

KORRUPSIYA YOSHLAR NIGOHIDA



KORRUPSIYA YOSHLAR NIGOHIDA

«Adolat» nashriyoti
Toshkent - 2021

QIZILKISTON DAVLAT JISMONIY
TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

№ _____ I _____

UO'K 328.185(08)
KBK 66.3
K 71

Tahrir hay'ati:

*Abdulkamol Rahmonov, Islom Hamroyev, Fazliddin Ziyayev,
Elyor Murod, Salohiddin Shodmonov, Shahnoza Ochilova,
Doniyor Nurmuhamedov*

Taqrizchi:

Abduqayum Yo'ldoshev, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi

K 71 Korruptsiya yoshlar nigohida / [Matn] -
Toshkent: «Adolat» nashriyoti, - 2021. - 232 b.

Ushbu to'plamda «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri miqyosida «Korruptsiya – taraqqiyot kushandasi» loyihasi asosida tashkil etilgan insholar tanlovi ishtirokchilarining sara ijodiy ishlari jamlangan. O'quvchilar insholarida korruptsiyaga qarshi kurash mavzusi doirasida fikr, mulohaza va takliflarini bayon qilgan.

UO'K 328.185(08)
KBK 66.3
K 71

ISBN 978-9943-7636-0-9

© «Adolat» nashriyoti, 2021

O'ZBEKISTON YOSHLARI KORRUPSIYAGA QARSHI

Korruptsiya muammosi va unga qarshi kurash masalasi hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu illatning keng quloch yoyishi o'ta salbiy oqibatlariga olib keladi. Korruptsiya, xususan, demokratik jarayonlarning amalga oshishiga to'sqinlik qiladi, iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishi, kadrlar sifatining pasayishi va oqibatda barcha sohalarining oqsashiga, uyushgan jinoyatchilikning ildiz otishiga, hukumatga bo'lgan ishonch yo'qolishi va ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi o'z faoliyatida aholining barcha qatlamlari orasida, ayniqsa, yoshlar orasida korruptsiyaga qarshi murosasiz kurash madaniyatini kuchaytirishni muhim deb hisoblaydi. Partiya korruptsiya bilan kurashish nafaqat davlat organlari va huquqni muhofaza etish tuzilmalarining vazifasi, balki butun jamiyatning burchi ekanligini e'tirof etadi va unga qarshi murosasiz kurashishni ustuvor vazifa sifatida belgilab olgan. «Adolat – har bir inson uchun» saylovoldi dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashni ko'zda tutgan holda partiya korruptsiyani tag-tomiri bilan yo'qotish uchun kurashib kelmoqda. «Biz korruptsiyaga qarshimiz!» shiori ostida partiya tomonidan respublikamizning 45 ta tuman va shaharlarida aksiyalar tashkil etilganligi, «Korruptsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz», «Korruptsiya – salbiy illat» shiorlari ostida targ'ibot bannerlari ishlab chiqilganligi va aholi gavjum joylarda, yo'lovchi transport vositalariga joylashtirilishi xalqimizni sergaklikka chorlaydi deb o'ylayman.

Bundan ko'zlangan maqsad joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan g'oyalar asosida umumta'lim maktablari o'quvchilari ongiga korrupsiyaning jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sirini sodda va tushunarli qilib yetkazish, bu borada ularning huquqiy bilimni yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik madaniyatini shakllantirishdir. O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri miqyosida «Insholar tanlovi» o'tkazilib, bunda o'quvchi-yoshlar faol qatnashgani, korrupsiyaning salbiy oqibatlarini chin yurakdan his qilib, qalb so'zlarini aytishga astoydil intilganligi e'tiborga molikdir. Partiyamizda «Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi!» loyihasi asosida tashkil etilgan mazkur tanlovning bosh maqsadi – iqtidorli yoshlarni aniqlash, partiyamizning dasturiy vazifalarini amaliyotga tatbiq etish, yosh iste'dod egalarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga qaratilgan.

Adolatparvar yoshlarimiz yozgan insholarida ona yurtga mehr-muhabbati, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash, jamiyatda ushbu illatga nisbatan mutlaqo toqatsizlik madaniyatini shakllantirish, poraxo'rlik, talon-torojlik, firibgarlik, tovlamachilikdan xoli jamiyatni rivojlantirish ularning eng yuksak orzu-maqсадlari ekanini aks ettirishdi. Ishtirokchilarning ushbu ijodiy ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar hamda Toshkent shahri partiya kengashlarida tuzilgan tanlov hay'atlari, partiya Siyosiy Kengashida faoliyat olib borgan ishchi guruh tomonidan xolis baholandi.

Insholar har biri ishchi guruh tomonidan diqqat-e'tibor bilan o'qib chiqilganda hozirgi jadallik bilan taraqqiy etayotgan jamiyatda yosh avlodning ongi, fikrlash qobiliyati ancha teranligi va shaxsiy dunyoqarashga ega ekanliklarining gu-

vohi bo'ldik. Yoshlarning shijoatli qalbida milliy g'urur va kelajakka ishonch, qat'iyat va iroda, shu aziz yurt farzandi ekanidan faxr-iftixor va uni har xil illatlardan asrash kabi hislar mujassamligiga shohid bo'ldik.

Tanlovda ishtirok etgan o'n mingdan ortiq umumta'lim maktablari o'quvchilarining insholaridan saralab olingan va ushbu to'plamga kiritilgan ijodiy ishlar bilan tanishgan kitobxonlar ham bunga amin bo'lishlariga ishonaman.

Biz, albatta, Siz aziz yoshlar bilan korrupsiyadan xoli, har tomonlama rivojlangan, adolatli va inson huquqlari ustuvor bo'lgan jamiyat quramiz!

Bahrom ABDUHALIMOV,
O'zbekiston «Adolat» SDP
Siyosiy Kengashi raisi

«Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, «Halollik vaksinasi» bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. «Halollik vaksinasi»ni qayerdan olamiz? Bu ta'bir – majoziy, albatta, lekin biz shunday muhitni yaratishimiz kerak.

Korrupsiyani ichki ishlar bilmaydimi, prokuratura, mahalla, nuroniylar bilmaydimi? Hamma biladi. Yonimizda yuribdi ular. Biz bu baloga vaksinasi qilib kurashmasak, kelajagimiz bo'lmaydi. Bu oyoqg'imizdagi kishan».

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat MIRZIYOYEVning
Oliy Majlisga Murojaatnomasidan.
2020-yil 24-yanvar**

**Hamida QURBONBOYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi
63-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi**

KORRUPSIYANI ILDIZIGACHA QURITAMIZ

Vatan farzandiman, deguvchi har bir inson uning taraqqiyoti yo'lida vijdonan xizmat qilmog'i lozim. Xalqqa xiyonat – Vatanga xiyonatdir. Taraqqiyotimiz rivojiga salbiy ta'sir etayotgan illat – korrupsiya. Bugungi kunda butun dunyoni tashvishga solayotgan bu illat azaldan davlat va jamiyat ravnaqiga to'sqinlik qilib kelmoqda.

Korrupsiya haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, bu so'zning lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak. Korrupsiya lotincha «corrumpo» so'zidan olingan bo'lib, «poraga sotilish», «aynish» degan ma'noni bildiradi. Kengroq ifodalaydigan bo'lsak, mansabdor shaxsning mansabi bo'yicha berilgan huquq va vakolatlarini o'z manfaati yo'lida, shaxsiy boyish maqsadida suiiste'mol qilishidir. Korrupsiya davlat rivojiga va unda olib borilayotgan islohotlarga to'sqinlik qiladi. U davlatni nafaqat moddiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yemirib, ishonchsizlikni vujudga keltiradi. Bu esa Vatanga daxldorlik va ishonch tuyg'ularining so'nishiga olib keladi.

Bu mavzuda so'z yuritar ekanmiz, Yurtboshimizning quyidagi fikrlarini doimo esda saqlashimiz lozim: «Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz». Bilamizki, shaxs, jamiyat, davlat tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Agar korrupsiya ildizi bilan quritilmasa, bu illat jamiyatning biror a'zosiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Korrupsiya - nihoyatda vayronkor kuch. Uning ta'sirida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, ma'naviyat izdan chiqib boshlaydi. Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch ishga qo'l urgan kishi uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qoladi. Bundaylar hayotda hamma narsani sotish va sotib olish mumkin deb o'ylaydi. Bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech bir narsani ishonib bo'lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yor-u birodarlarining yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi. Ular farzandlariga harom luqma yedirayotganlarini anglamaydilar. Bunday oilada o'sgan o'g'il-qizlarning ham kelajakda halol yashashiga ishonish qiyin.

Bu illat jamiyatni tanazzulga olib keladi, qonun ustuvorligiga putur yetkazadi. Qonun ustuvor bo'lmagan jamiyatda esa fuqarolar huquqlari buzilishi bilan bog'liq holatlar ko'p uchraydi. Demak, ko'rinib turibdiki, bu qing'ir ish jamiyatni, xalqni parokandalikka yetaklaydi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida keng ko'lamli ishlar olib borildi. Ayniqsa, «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida» qonun qabul qilingani alohida e'tiborga loyiqdir. Korrupsiyaning naqadar jirkanch illat ekanini tushungan inson bu ishga aslo qo'l urmaydi.

Darhaqiqat, har qanday vaziyatda ham halol odam hayotda g'olib bo'lib, baxtli-saodatli yashaydi. Shunday ekan, biz ham bir tan-u bir jon bo'lib, korrupsiya deya atalmish jirkanch illatga qarshi kurashib, yurtimiz taraqqiyoti yo'lida barcha imkoniyatlarimizni ishga solishimiz darkor. Shundaygina buyuk maqsadlar sari dadil odimlayveramiz.

Гулбануд ПОЛАТБАЕВА,
Қарақалпақстан Республикасы Нөкис райони
31-санлы уलयма билим бериў мектебинин
7-«б» класс оқыўшысы

КОРРУПЦИЯ – РАҶАЖЛАНЫЎ ЗЫЯНКЕСИ

Коррупция... Қандай жаман иллет екенлиги ҳаммеге мәлим. Бүгинги күни ҳаммени тәшүишке салып атырған бул иллет жәмийетке яғный мәмлекетимиздиң раҗажланыўына тосқынлық қылып келмекте.

Бул ҳаққында тоқталып өтетүғын болсақ «Коррупция» атамасы латынша сөз болып «саррумпо» «параға сатылыў», «айныў» деген мәнини аңлатады. Кеңирек түсиник беретүғын болсақ әмелдар адамның әмели бойынша берилген ҳуқуқ ҳәм исенимин өз мәпин гөзлеген ҳалда жеке мәплерине пайдаланыўы болып есапланады.

Тарийхқа нәзер таслайтуғын болсақ, инсаният қалиплесиўиниң дәслепки дәўирлериниң өзіндеақ коррупцияның айрым көринислерин көриўге болады. Яғный қәўим ақсақаллары тәрәпинен лаўазымлы адамларға ҳақы төленген. Кейин ала коррупцияның ҳәр түрли формалары пайда бола баслаған.

Ата-бабаларымыз әзелден өз перзентлерин илим-билим ийелеўге, ҳадал кәсип ийелеўге бағдарлаған.

Билемиз, инсаният жамийет пенен тығыз байланыслы. Сол себебли, жамийеттиң бир ағзасына тәсир еткен иллет, әлбетте барлық жәмийет ағзаларына өз тәсирин тийгизбей турмайды.

ХҲХ әсир қарақалпақ классик шайыры Күнхожа жасларды диянатлы, ҳақ кеўил, дурыс сөзли, әдил етип

тәрбиялаўды баслы мәселе етип қояды. Буның ушын ең алды менен елди басқарып атырған басшылардың өрнек ислери үлкен сабақ болатуғынлығын айтқан.

Сонлықтан:

Заманың жоқ заман керек,

Журтқа бир әдил хан керек,

– деп жазады.

Ал белгили шайыр Бердақ Ғарғабай улы гейпара устазлардың тәлим тәрбия бериўде итибарсызлығын, дүнья-мал жыйнаўға умтылатуғынлығын, өз кәсибине көз боямашылық ислейтуғынлығын төмендеги қосық қатары арқалы әшкаралайды:

Биразлар жүр молла болып,

Аўзында бәрқа алла болып,

Тил ушында олла болып,

Сондайларға жаза бер.

– деп өзиниң билимлендириў хәм ағартыўшылық тараўларындағы көз қарасын билдирген.

Бизиң халқымыз «хадал адам» деп жақсы адамды, «хадал болсын» деп жақсы, табыслы мийнетти қәстерлейди. «Харам» араб сөзи болып «бийкарланған қылық – қылўа», «жеўге қадаған етилген азық-аўқатлар» түсиниледи. Ал «хадал» сөзи араб тилинен кирип келген сөз болып, бизиңше «таза», «рухсат етилген» деген мәнини билдиреди.

Демек, ата-бабаларымыз ишип-жеген аўқатларын ғана харам - хадал деп бөлип қоймастан олардың қылықлары, тәртиби, ислеп атырған ислерин де харам хәм хадалға ажыратқан.

Жәмийетте адамларды алдап, сапасыз өнимлерин сатыў, зорлық пенен тартып алынған, пара яки алдаў арқалы табылған пуллар, затлар, өнимлерде харам болып есапланады.

Бул хаққында түркмен классиги Мақтымқулы:

Залымлар умытып зикирли Алланы,

Арзан алып қымбат сатар гәллени

Сүтхор бийинсаплар хадал тилланы,

Харам пайдасына берисин көриң.

– деп жазады.

Жоқарыда айтып өткенимиздей, коррупция миллий манаўиятымызға кесирин тийгизеди. Соның ушын, ашкөзлик, парахорық иллетлеринен аўлақ болыўымыз лазым.

Әсиресе, Ғәрезсизлик жылларында коррупцияға қарсы гүресиў бойынша кең көлемли ислер алып барылмақта.

Президентимиз Ш. Мирзиёев «Коррупцияға қарсы гүресиў хаққында» ғы қарарды қабыллады. Бул бойынша барлық тараўларда жумыслар алып барылмақта. «Коррупция-раўажланыў зыянкеси» атамасындағы сәўбетлесиўлер болып өтпекте.

Хәзирги күнде халқымыз коррупцияның ақыбетлерин жүдә жақсы түсинеди. Ар-уятлы, хадал инсанлар этирапында усындай иллетлерди көрсе, билсе, сезсе тийисли шөлкемлерге хабар бериўди ўазыйпасы, хадал мийнети арқасында жасап атырған халқы алдындағы қарызы деп биледи. Себеби, белгили грек алымы Аристотел «Хәкимиятқа пул менен ерискен адам оннан дәрамат алыўға умтылады» деген еди.

Бизге белгили, коррупция нәтийжесинде ислеп шығылған өнимлердиң сапасызлығы, жоқары оқыў орнын питкерген жаслардың өз кәсибин билмеўи, салынған имаратлардың, жоллардың талапқа жуўап бермеўи, жынаятшылықтың хәўиж алыўы сыяқлы иллетлерге жол қойылады.

Бул болса өз-өзинен мәмлекетимиздиң раўажланбай қалыўына тийкар болады.

Соның ушын да, президентимиз коррупциясыз өмирди жаратыў ушын жан кўйдирип жаңа қарарлар шығармақта.

Мине усы орында «Өзбекстан қахарманы» ҳўрметли атағына ийе белгили сўз зергери И.Юсуповтың «Пара» атлы қосығы ядыма тўсти:

*Бир иллет бар «пара» деген,
Береди екен-алады екен,
Ҳарам қоллар қалтырамай,
Қалтасына салады екен.
Ҳарамсынбай алып-алып,
Ақыбети барып-барып,
Артық дўнъя көз шығарып,
Бир бәлеге шатады екен.*

деп, жәмийетимиздеги айырым парахор инсанларды ашкаралайды ҳәм бул жолдан қайтыўға шақырады.

Жуўмақлап айтқанда, биз жас әўлад, балалықтан ҳадал мийнетке, әдеплиликке оқыў орнында, шаңарақта алған тәрбиямыз тийкарында үйренип барамыз. Яғный биреўдиң затын сорамай алмаў, таўып алынған затты ийесине жеткерип берийўге ҳәрекет етиў, урлық исле-меў, ҳешким көрмедидеп жаман ислерди ислей бермеў кереклигин уғамыз. Себеби ҳәр-бир инсанда «хўждан» деген сезим ояў болады. Биз өз хўжданымыз алдында жуўап беремиз.

Демек, биз, өсип киятырған жас әўладлар, бундай иллетлерден жырақ болып, ҳадал кәсип өнер ийелеп, Өзбекстан ҳәм Қарақалпақстан Республикаларының раўажланыўына өз үлесимизди қосамыз.

Себеби, коррупция мәмлекет раўажланыўының баслы зыянкеси екенлигин биз жақсы түсинемиз. Биз коррупцияға қарсымыз!

Феруза ХОЖАМУРАТОВА,

Қарақалпақстан Республикасы Шимбай районы
10-санлы улыўма билим берий мектебиниң 6-«А»
класс оқыўшысы

БИЗ КОРРУПЦИЯҒА ҚАРСЫМЫЗ

Коррупция- шахс өз дәрежесинен пайдаланып нызамға қарсы пуқаралардан пул алыў, соның менен бирге, нызамға қарсы өз дәрежесинен пайдаланыў.

Коррупсия- атамасы латынша «корруптио» сөзинен алынған болып, бузылыўшы, пара берип сатып алыў ҳәм тағыда басқа мәнислерди аңлатады.

Коррупция-пуқаралардың ҳәм жоқары дәрежелі инсанлардың бир-бирине болған мунәсибетлеринен келип шығады.

Коррупция ҳәр қандай мәмлекетти ыдырата ала-туғын жаман иллет.

Коррупцияның тарийхы әййемги Юнонстанға ба-рып тақалады.

Ол жерлерде бир дәрежеге ийе болыў ушын сардар-ларға саўға-сәлемлар берий әдети болған. Бул ўақыя сол ўақытлары жақсы қабылланған. Усындай жағдай әййемги Мысрдада гүзетилген.

Бул бюрократиялық аппараттың пайда болыўына түртки болды. Бюрократиялық аппарат коррупцияға жол ашып берген.

Коррупцияға қарсы гүресий бойынша дўнъя мәмлекетлеринде көплеген жумыслар алып барылған. 2003-жылы 9-декабрьде БМШ тәрәпинен Мексикадағы Мерийда қаласында конференция өткерилди. Конфе-

ренциядан мақсет коррупцияға қарсы гүресіу бойынша мәмлекетлер арасында дослықты беккемлеу. Үш күн дауам еткен конференция барысында 100 ден артық мәмлекет коррупцияға қарсы конвенсияны имзалады.

2003-жылы 9-декабрь күни БМШ тәрөпинен коррупцияға қарсы конвенция имзаланды. Конвенция 2003-жыл 31-октябрьден күшке кирди.

Өзбекстан Республикасының коррупцияға қарсы гүресіу бойынша нызамы 2017-жыл 4-январьда имзаланды. Сол күннен баслап коррупцияға қарсы гүресіу бойынша шөлкемлер дүзилди. Нызам бойынша коррупцияға қарсы гүресіу бойынша жоқары нәтийжелерге ерискен мәмлекетлерден тәжирийбе алмасыу да киргизилген. Бундай мәмлекетлер деп Сингапур, Гонкгон, Португалия сыяқлы мәмлекетлерди атап өтсек болады.

Тәжирийбе алмасыу барысында коррупцияға қарсы гүресіу менен биргеликте оны келтирип шығарыушы жағдайлардың алдын алыуда атап өтилген.

Соның ушында халқымызда «Кеселликти емлегеннен оның алдын алған жақсы» деген ҳикметли гәп бар. Соның ушын да ҳәммемиз бул иллетке қарсы бирликте гүресип, алдын алыуымыз керек.

Коррупцияға қарсы гүрескен биринши мәмлекет деп әйемги Шумер мәмлекети тән алынған.

Коррупцияға қарсы гүресіуди турмысымыздан баслауымыз керек. Мысалы, лицей, колледжлерде баҳаны жақсылау, жоқары оқыу орнына кириу ҳәм тағыда басқа жағдайларда өзлеримизди мүнәсип тутыуымыз керек.

Ҳәмме биргеликте бул иллетке қарсы гүресіуимиз керек. Ҳәзирги күнде ҳәр-бир мәмлекет бул иллетке биргеликте қарсы гүресип атырған болсада, бул иллет дүнъя жүзинен жоқ болмай атыр. Бул иллетке араласқан инсанларда ата-анасына, демократияға ҳақый-

қатқа ҳәм тағыда басқа уллы нәрселерге болған исеним жоқ болады. Бул болса оларда ҳәмме нәрсени сатып алыу мүмкин деген натууры түсиниктиң қәлиплесіуине алып келеди.

Коррупцияға араласқан ҳәр қандай мәмлекетте терроризм, қопарыушылық сыяқлы жаман иллетлердин гүллеп жайнауына себепши болады. Бул болса ҳәр қандай мәмлекеттиң ыдырауына себепши болады.

Соның ушын ҳәр-бир мәмлекет халықлары бул апатқа қарсы биргеликте, шын жүректен гүрессе ғана жасларымызды, келешегимизди, ұатанымызды бул иллеттен асыраймыз, соның менен бирге, бул иллетке араласқанларды, қорқыу астында жасап атырған адамларды бул иллеттен азат етемиз. Сондай қылып бул иллетти дүнъя жүзинен жоқ қылуымыз мүмкин. Сонда ғана бул иллет себепли ҳешким дүнъядан көз жумбайды.



Komila BAXTIYOROVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi
40-maktabning 11-«V» sinf o'quvchisi

TO'XTA, KORRUPSIYA!

Korrupsiya... Naqadar qabih illat! U azal-azaldan jamiyat ravnaqiga to'sqinlik qilib kelmoqda. Barqaror rivojlantirish, taraqqiyot yo'lini tanlagan har bir davlat, eng avval, korrupsiya, tamagirlik, poraxo'rlik kabi illatlarga qarshi murosasiz kurash olib boradi. Bunday jirkanch illatlarning tomir otishiga yo'l qo'yilsa, o'sha joyda oldinga siljish bo'lmaydi.

Ijtimoiy-tarixiy vaziyat, fuqarolar dunyoqarashi, davlat tuzilishi, iqtisodiy rivojlanish omillaridan kelib chiqib, har bir davlat korrupsiyaga qarshi o'ziga xos usullarda kurashmoqda. Har biri korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi. Bu borada eng samarali yo'l hali topilgan emas. Chunki korrupsiya bir qarashda oddiy jinoyat bo'lib ko'ringani bilan, aslida, uning kelib chiqishi va yashovchanlik sabablari juda chigal va murakkabdir. Bir davlatda natija bergan usul boshqa davlatda u qadar samara ko'rsatmasligi mumkin. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishni keng qamrovda olib borish choralari ko'zda tutilgani, bu borada har bir mamlakat alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Korrupsiyaviy jinoyatlar davlat iqtisodiyotiga jiddiy ziyon yetkazishdan tashqari, halol mehnat bilan kun kechirayotgan kishilarga ham ma'naviy zarar keltiradi. Xizmat faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir etiladigan bunday ijtimoiy xavfli qilmishlarning yashirin jinoyatligicha qolishi ularning ko'plab sodir etilishiga yo'l ochadi.

Odatda, har qanday korrupsiyaviy jinoyatchilik yangi bir qonunbuzarlik sodir etilishiga ko'prik vazifasini o'taydi. Korrupsiyaviy jinoyatlarning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, huquq-tartibot idoralari xodimlarining o'zlari tomonidan ham sodir etiladi.

Poraxo'rlikka ikki yoki undan ortiq shaxsning pora olish, pora berish bilan bog'liq bo'lgan g'ayrihuquqiy konfedsioniya bitimi, deb ta'rif berishimiz mumkin. Bitimdan pora oluvchi ham, pora beruvchi ham manfaatdor. Lekin bu manfaatdorlikdan uchinchi shaxslar, jamiyat va davlat zarar ko'radi. Pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, xizmatchini pora evaziga og'dirish, tovlamachilik bilan haq berishni talab qilish va boshqa yigirmadan ortiq korrupsiyaviy qilmishlar jinoyat deb e'tirof etilib, Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jazo belgilab qo'yilgan. Ichki ishlar va prokuratura xodimlari zimmasiga bu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning jinoyatini isbotlab, odil sudlovga topshirish vazifasi yuklatiladi. Tergov va sudlov amaliyotiga nazar tashlar ekanmiz, bu toifa jinoyatlarning juda ham ko'p ochilayotganining guvohi bo'lamiz. Bunga sabab korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklatilgan idoralarning nazoratni susaytirib yuborgani, mas'uliyatni unutayotganidir, ehtimol.

Kadrlar masalasiga korrupsiyaning aralashishi islohotlar yo'liga va mamlakat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'diradi. Soliq, bojxona, moliya va boshqa muhim sohalarda bunday jinoyatlar sodir etilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri. Mutaxassislarining fikricha, korrupsiya so'zi «sotish» va «sotilish» degan ma'nolarni anglatar ekan. Rahbar yoki mas'ul kishi qanday qilib korrupsiyaga qo'l uradi? Bunga qanday omillar sabab bo'ladi?.. Bu savollarga javob har xil bo'lishi mumkin. Lekin shunisi aniqki, sotadigan, sotiladigan odam hech bir vazifani sidqidildan bajarmaydi. Korrupsiyaga aloqador

odam qonunni buzishdan tashqari, o'zining kimligi, e'tiqodi, madaniyati qay darajada ekanini ham oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga ilm-u hunar o'rgatgan, obro' va mansab, non-tuz bergan el-yurtning, ustozlari-yu ota-onasining yuziga oyoq qo'yadi. Bir misol, oliy o'quv yurtida talabadan yo uning ota-onasidan pora olgan, tamagirlik qilgan mansabdor shaxsda iymon, vijdon, insoniylik degan tuyg'ular bo'lmaydi. Ular farzandlariga harom luqma yedirayotganini tushunishmaydi. Mana shu haqiqatni oliy o'quv yurtlaridagi har bir mansabdor yaxshi bilib olishi zarur.

Undaylar qing'irliklarini hech kim bilmaydi, sezmaydi deb o'ylaydi. Vaholanki, bugun odamlarning ko'zi ochilmoqda. Oliy o'quv yurtida qaysi dekan yoki boshqa mansabdor shaxs qing'ir ish qilayotganini atrofdagilar yaxshi bilishadi. Oriyatli, vijdonli ziyolilar ular haqida tegishli idoralarga xabar berib qo'yishni o'zlarining burchi, xalq oldidagi qarzi deb bilmoqdalar. Shunga yarasha oliy o'quv yurtlari ham asta-sekin «tozalanmoqda»!

To'g'ri ishlab, halol yashash saodatini yoshlikdan o'rgangan odamning umri halovatda bo'ladi. Adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasb-u amalga, ishonchga xiyonat qilib bo'lmasligini o'qib-uqqan, korrupsiyaga qarshi o'zida immunitet hosil qilgan yoshlar kelajakda jur'atli, vijdonli inson bo'lib yetishadi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo'lmasligini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunadi. Tanish-bilishchilikdan davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetmasligi kerak.

Rahbar hammaga o'rnak bo'lib, halol ishlab, fidoyilik ko'rsatish o'rniga, poraxo'rlik qilsa, yosh kadrlar undan nimani o'rganadi? Qanaqa o'rnak oladi? Darhaqiqat, har qanday vaziyatda ham halol odam baxtli-saodatli yashaydi.

Bugun butun jamiyatimiz ana shunday pokiza hayotga intilmoqda!

Korrupsiyani yengib bo'lmaydi, deyish, albatta, oson. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, xalq intilsa, fuqarolar birgalikda kurashsa, uni bartaraf etsa bo'ladi. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan qutqarish sharaflı burchimiz ekanini hamma birdek tushunmog'i shart. Aks holda, o'ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo'rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar jazoga tortilishi muqarrar!

Hozirgi kunda dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng birlamchi masalalardan biri korrupsiya muammosidir. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro miqyosga ko'tarilib, jahon siyosatining muhim masalalaridan biriga aylandi. Bino-barin, ushbu illat nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq bo'lishi, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid tug'dirishi barchaga ma'lum. Jamiyatda ogohlikni targ'ib qilish, xalqning bilimini oshirish, hukumat odamlari uchun ishlashni, har bir fuqaro o'zi yashayotgan jamiyat oldida muayyan majburiyatlarga ega ekanini, qolaversa, taraqqiyot har bir inson qo'shgan hissadan boshlanishini uqtira olish ham insoniy, ham amaliy yordam, deydi korrupsiya masalasini ko'tarib chiqayotgan tomonlar. Toki odamlar shikoyat qilishdan qo'rqmasin. Huquqi hurmat qilinishini talab qila olsin.

Dunyo kun sayin, soat sayin rivojlanyapti. Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikning tezkor, yangidan-yangi ufoqlari ochilyapti, milliy iqtisodiyotlar o'zaro chambarchas bog'langan holda yuksalmoqda, taraqqiy etmoqda. Bugun har qanday davlat boshqa davlatlar bilan izchil hamkorlik qilmasdan, oqilona investitsiya va resurslarga tayanmasdan, jahonga chiqmasdan, ayni paytda dunyoga keng eshiklarini ochmasdan, odamlar bemalol ishlaydigan ishonchli makonga aylanmasdan yuqori natijalarga erisha olmaydi.

Erkin faoliyat yuritishga keng yo'l ochib berilgan, inson huquqlari, qonuniy manfaatlar qat'iy himoya qilinadigan mamlakatning ostonasidan odam arimaydi, bunday davlat dunyoning turli nuqtalarida ishbilarmonlar talpinadigan yurtga aylanadi. Mamlakatimiz mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. O'tgan davr mobaynida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza va tizimli amaliyot shakllandi.

Muxtasar aytganda, korrupsiya – taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu il-latga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavf-ni bartaraf etgan bo'lamiz. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shunday ekan, biz ham bir tan-u bir jon bo'lib, korrupsiya deya atalmish bu jirkanch illatga qarshi kurashib, yurtimiz taraqqiyoti yo'lida barcha imkoniyatlarimizni ishga so-lishimiz darkor. Xulosa o'rnida ardoqli shoirimiz Muham-mad Yusufning «Xalq bo'l, elim» nomli she'rini keltirishni joiz deb bildim:

*Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang – xalq bo'l, elim.*

*Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana.
Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang – xalq bo'l, elim.*

*Sen tebratgan beshigini Sohibqiron,
Sening bolang yulduzlarga qo'ygan narvon.
Bir mayizni qirqqa bo'lgan bir tan-u jon –
Kunlaringga qaytay desang – xalq bo'l, elim.*

*Daryo bo'lib jo'shgin endi zavqi ulug',
Bayramingda sevinch ko'z yoshingga qulluq,
Yurtim degan jasur Yurtboshingga qulluq,
Unga qanot bo'lay desang – xalq bo'l, elim.*

*Bo'lar elning bolalari bir-birin der,
Bo'lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo'l endi, qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo'l, elim, xalq bo'l, elim, xalq bo'l, elim!*



Муслима БАЗАРБАЕВА,
Қарақалпақстан Республикасы Мойноқ районы
12-санлы улықма билим бериў мектебиниң
9-класс оқыўшысы

БИЗ ЖАСЛАР КОРРУПЦИЯҒА ҚАРСЫМЫЗ

*Бир иллет бар пара деген,
Береди екен, алады екен.
Харам қоллар қалтырамай,
Қалтасына салады екен.*

– деп жазған еди халқымыздын белгили шайыры Ибрайым Юсупов. Шынында да, ҳәрбир нәрсениң өз қарама-карасы тәрәпи болғанындай, бизиң ийгиликли ислеримизге, мақсетлеримизге тосқынлық жасаўшы зыянлы иллетлерде бар. Олар биз өз мақсетлеримизге ерисиўимизде үлкен тосқынлық жасаўшы иллетлер экстремизм, терроризм ҳәм коррупцияларда бар.

Мен коррупция ҳаққында тоқтап өтпекшимен. Коррупция латын тилинен алынған сөз болып «Айныў», «параға сатылыў» дегенди билдиреди. Эпиўайы халық тили менен айтқанда парахорлық. Парахорлық неге керек? – Әлбетте бул ҳәрқандай лаўазымлы шахслардың өз мәпин ойлап, өзиниң нәписин қандырыў жолында топланатуғын косымша байлық. Коррупция майда нәрселерден басланады. Мәселен, ата-аналар өз перзентлерин балалар бақшасына алып барыў пайтында, тәрбияшылар менен балама яки қызыма жаксы қарасын, тәрбияласын деп, ҳәр түрли саўғалар береді. Мәселен, ҳәр байрамларда да бақша баслықларына саўғалар бе-

риўи мүмкин. Бул болса, коррупцияның тез пәт пенен раўажланыўына жол ашып береді. Себеби, усы киби майда нәрселерден коррупция өз тамыры кең жайып бара береді. Айырым ўақытлары коррупцияның раўажланыўына халқымыздың өзи де себепши болып қалады. Буған жоқарыда айтылған пикир мысал бола алады. Ата-аналар ҳәр байрамларда бақша баслықларына түрли саўғалар усыныўы шәрт емес. Себеби, бақшаға келген ҳәрбир жас перзентлерди тәрбиялаў, оларға жүкленген, жуўапкершиликли ис есапланады. Және де мәмлекетимизде ҳәрбир инсан динине, тилине, милетине қарамастан ызам алдында тең. Бул дегени бизиң мәмлекетимизде жасаўшы ҳәр бир инсанлар тең ҳуқықлы. Биз соған шүкирлик етип жасаўымыз керек. Себеби, дүньяда өз ғәрезсизлигине ересе алмаған мәмлекетлер қанша.

Мәмлекетимизде жаслар ҳәр тәрәплеме қоллап куўатланып атыр. Хәтте буған бизиң мәмлекетимизде 2021-жылға қойылған жыл аты гуўа. Ал енди, мәмлекетимизде талантлы жасларды жүзеге шығарып, оларды ҳәр тәрәплеме коллап-куўатлап, олардың талант ҳәм қәбилетлерин туўры бақалап ҳәр түрли мәмлекетлик сыйлықлар берилип атырған бир пайытта: оқыў орнына тест тапсырыў ўақтында пул алар екен деген сөзлерде қулағымызға шалынады. Бул билим журтларында тексеріў ҳәм қадағалаўлардың өз күшин жоғалтқанлығынан дерек береді. Биз ҳәрбиримиз өз мақсетлеримизге жетиў ушын оқып, өз үстимизде көп ўақыт ислеўимиз, излениўимиз керек. Әне, сондағана биз ең бийиқ шыңларға шыға аламыз. Егер биз бул шыңларға коррупсия менен шығатуғын болсақ, биз өз мәнзилемизге жете алмай жолда қалып қоямыз. Себеби, коррупция раўажланыўдың - ең үлкен душпаны. Бул ҳаққында мәмлекетимиз президенти Шавкат Мирзиёев: «Биз ең

Муслима БАЗАРБАЕВА,
Қарақалпақстан Республикасы Мойноқ районы
12-санлы улыұма билим бериў мектебиниң
9-класс оқыўшысы

БИЗ ЖАСЛАР КОРРУПЦИЯҒА ҚАРСЫМЫЗ

*Бир иллет бар пара деген,
Береди екен, алады екен.
Харам қоллар қалтырамай,
Қалтасына салады екен.*

– деп жазған еди халқымыздын белгили шайыры Ибрайым Юсупов. Шынында да, ҳәрбир нәрсениң өз қарама-карасы тәрәпи болғанындай, бизиң ийгиликли ислеримизге, мақсетлеримизге тосқынлық жасаўшы зыянлы иллетлерде бар. Олар биз өз мақсетлеримизге ерисиўимизде үлкен тосқынлық жасаўшы иллетлер экстремизм, терроризм ҳәм коррупцияларда бар.

Мен коррупция ҳаққында тоқтап өтпекшимен. Коррупция латын тилинен алынған сөз болып «Айныў», «параға сатылыў» дегенди билдиреди. Әпиўайы халық тили менен айтқанда парахорлық. Парахорлық неге керек? – Әлбетте бул ҳәрқандай лаўазымлы шахслардың өз мәпин ойлап, өзиниң нәписин қандырыў жолында топланатуғын косымша байлық. Коррупция майда нәрселерден басланады. Мәселен, ата-аналар өз перзентлерин балалар бақшасына алып барыў пайтында, тәрбияшылар менен балама яки қызыма жаксы қарасын, тәрбияласын деп, ҳәр түрли саўғалар береди. Мәселен, ҳәр байрамларда да бақша баслықларына саўғалар бе-

риўи мүмкин. Бул болса, коррупцияның тез пәт пенен раўажланыўына жол ашып береді. Себеби, усы киби майда нәрселерден коррупция өз тамыры кең жайып бара береді. Айырым ўақытлары коррупцияның раўажланыўына халқымыздың өзи де себепши болып калады. Буған жоқарыда айтылған пикир мысал бола алады. Ата-аналар ҳәр байрамларда бақша баслықларына түрли саўғалар усыныўы шәрт емес. Себеби, бақшаға келген ҳәрбир жас перзентлерди тәрбиялаў, оларға жүкленген, жуўапкершиликли ис есапланады. Және де мәмлекетимизде ҳәрбир инсан динине, тилине, миллетине қарамастан нызам алдында тең. Бул дегени бизиң мәмлекетимизде жасаўшы ҳәр бир инсанлар тең хуқықлы. Биз соған шүкирлик етип жасаўымыз керек. Себеби, дүньяда өз ғәрезсизлигине ересе алмаған мәмлекетлер қанша.

Мәмлекетимизде жаслар ҳәр тәрәплеме қоллап куўатланып атыр. Қәтте буған бизиң мәмлекетимизде 2021-жылға қойылған жыл аты гуўа. Ал енди, мәмлекетимизде талантлы жасларды жүзеге шығарып, оларды ҳәр тәрәплеме коллап-куўатлап, олардың талант ҳәм қәбилетлерин туўры баҳалап ҳәр түрли мәмлекетлик сыйлықлар берилип атырған бир пайытта: оқыў орнына тест тапсырыў ўақтында пул алар екен деген сөзлерде қулағымызға шалынады. Бул билим журтларында тексеріў ҳәм қадағалаўлардың өз күшин жоғалтқанлығынан дерек береді. Биз ҳәрбиримиз өз мақсетлеримизге жетиў ушын оқып, өз үстимизде көп ўақыт ислеўимиз, излениўимиз керек. Әне, сондағана биз ең бийиқ шыңларға шыға аламыз. Егер биз бул шыңларға коррупсия менен шығатуғын болсақ, биз өз мәнзилимизге жете алмай жолда қалып қоямыз. Себеби, коррупция раўажланыўдың - ең үлкен душпаны. Бул ҳаққында мәмлекетимиз президенти Шавкат Мирзиёев: «Биз ең

аёеле мамлекетимизде коррупцияны болдырмайуымыз керек. Себеби, коррупция мамлекетимиз келешегин қурыўда үлкен тосық болады.» - деген еди. Шынында да, коррупция раўажланыў – зыянкеси десек қәтелеспеймиз. Коррупцияның даўасы жүдә аўыр кеселлик, яғный вирус деп есапланатуғын болсак, оған қарсы ҳадаллық вакцинасын кайдан табамыз? – деген сораўлар ҳәрбиримизди ойландырады.

Әлбетте, буған ең дәслеп мамлекетимизде коррупцияны болдырмай ушын исленип атырған ис-илажлары айрыкша көзге тасланады. Атап айтканда 2020-жыл 29-июнь сәнесинде ПФ-6013-сан пәрманы ҳәм ПҚ-4761-сан қарарына тийкарланып «Өзбекстан Республикасы коррупцияға қарсы гүресий агентлиги» дүзилди. Агентлик директоры Акмал Бурханов етип тайынланды. Агентлик тиккелей президентке бойсынады ҳәм Олий мажлис алдында есабат бередиди. Және де параберген ҳәм алған шахсларда теңдей жуўапкершиликке тартылады. Оларға Өзбекстан Республикасы Конституциясының 110-210-211-статьялары менен жынаят ислери қозғатылады. Ең кем бес жыллық қамақ мүддети белгиленеди. Мен шығармамды өзимнің қәлемиме тийисли бир қосық пенен жуўмақламақшыман.

Коррупция бул ақыры жок түпсизлик,

Коррупция батпағына батып қалмаңлар,

«Бийнәрўа» адамнан қорқ дегениндей,

Сергекликке шақыраман адамлар.

- биз жаслар келешегиде ушын Өзбекстанымызда коррупциясыз беккем жәмийет қурамыз!

Omina NABIJONOVA,
Andijon viloyati Marhamat tumanidagi 2-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 8-«G» sinf o'quvchisi

YO'QOLSIN KORRUPSIYA

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi. Taraqqiyotni sekinlashtiradi, davlatni ich-ichidan yemirib boradi, xalqni xonavayron etadi, huquq va manfaatlar buzilishiga olib keladi. Bugungi kunda butun jahon miqyosida ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayni paytda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning barcha huquqiy asoslari yaratilgan. Bu borada har birimizdan hushyorlik, mas'uliyat va ogohlik talab etiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning «Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz», degan gaplarida ulkan ma'no mujassam. Darhaqiqat, korrupsiya bor joyda na haqiqat, na adolat bo'ladi. Hech qaysi sohaning rivojlanishiga, oldimizga qo'ygan maqsadimizga erisha olmaymiz.

Korrupsiya qonunning qo'pol ravishda buzilishidir. Korrupsiyaga yo'l qo'yganing umri qisqadir. Korrupsiya bu shaxsning o'z mansab va xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda qilgan xatti-harakatidir. Korrupsiya darajasining yuqoriligi mamlakatni xalqaro miqyosida obro'sizlantiradigan, investitsiyaviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omildir. Shu bois korrupsiya bilan murosqa qilib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bu illatga qarshi kurashish, uning kelib chiqishiga sharoit yaratib berayotgan

omillarni bartaraf etish, uni ildizi bilan yo'q qilish uchun davlatimiz jiddiy bel bog'ladi. Xususan, «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun va uning asosida bir qator qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Shu o'rinda har bir davlat organi tomonidan bu illatga qarshi kurashish maqsadida dasturlar, chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Xususan, Adliya vazirligida korrupsiya birinchi raqamli dushman deb e'lon qilingan. Tizimni korrupsiyasiz sohaga aylantirish borasida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirilib, samarali natijalarga erishilmoqda. «Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi» xalqaro standart asosida vazirlikning 10 dan ziyod ichki hujjati tubdan yangilandi. Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tashkil etildi. Vazirlikning «Telegram» messenjeridagi «Huquqiy axborot» kanalida hamda «Facebook» ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazib boriladi.

Korrupsiya bugungi kunda ko'plab sohalar tarkibiga kirib ulgurgan. Bu holat butun dunyo bo'ylab yoyilgan qonunchilik tizimiga va adolatli siyosatga qarshi jinoyat sifatida baholanadi. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatini tartibga solishga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Korrupsiyaning tarixiy o'zatlari juda-juda qadimga borib taqalib, ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi.

Ko'p hollarda bu atama siyosiy byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida taqib qilinadi.

Korrupsiya termini mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlaridan o'zlari-ning shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishni anglatadi.

Yorqin kelajagimiz uchun korrupsiyaga qarshimiz.



Ozoda AKMALOVA,
Andijon viloyati Andijon tumanidagi
2-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – ADOLATSIZLIKDIR!

Korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilikka va axloqqa zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir. Aksariyat davlatlarda korrupsiyaga jinoyat sifatida qaraladi. Korrupsiyaning keng tarqalgan turlari mavjud bo'lib, uning tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik. Bu turdagi korrupsion harakatlarda davlatning rivojlanishi va iqtisodiy yuksalishini barbad etuvchi omillar hisoblanadi. Ular pora olish, pora berish va ikki tomon o'rtasida ma'lum bir haq evaziga burchi, shuningdek, ishonib topshirilgan mansabni suiiste'mol qilish, qo'rqitish orqali o'zganing shaxsiy boyligini o'zlashtirib olish va yana qator noxush holatlarni amalga oshirish, aldash va ishonchni poymol qilish kabi ko'plab holatlar bilan ifodalanganadi. Korrupsiya davlatning xalqaro darajadagi munosabatlari keskin zarba berib, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirib yuboradi, shu bilan bir qatorda, jinoiy harakatlarning avj olishiga imkoniyat yaratib, jinoiy to'dalarning rivojlanib ketishiga yo'l ochib beradi. Bunday holatlarning chet mamlakatlarda keng yoyilganligi esa achinarlidir. Nafaqat korrupsiyaning, balki boshqa qonunbuzarliklarning ham oldini olish uchun ham davlat organlarida faoliyat yuritayotgan har bir shaxs kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, har qanday qonun xalq va uning manfaatlari uchun xizmat qiladi, agar jarayonda korrupsiya

aralashsa, bu xalqning huquqiy erkinliklarini poymol etib, adolatsizliklarni keltirib chiqaradi. Fuqarolarga huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlab, bu jinoyatni keltirib chiqaradigan sabablarni anglatish va bartaraf etish yo'llari haqida to'laqonli ma'lumot berish zarur. Korrupsion jinoyatlarni sodir etgan har qanday fuqaro qonun oldida tengligi, unda ko'rsatilgan yo'riqlar bo'yicha qilgan jinoyatiga javob berishi muqarrarliligi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish lozim. Korrupsiya bugungi kunda ko'plab sohalarga kirib ulgurgan. Bu holat butun dunyo bo'ylab yoyilgan qonunchilik tizimiga va adolatli siyosatga qarshi jinoyat sifatida baholalanadi. Korrupsiya so'zi lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda «buzish», «aynish», «pora evaziga sotib olish», «sotish» kabi ma'nolarni anglatadi. Bunday qonunga xilof bo'lgan holat mansabdor shaxslarning davlat, jamiyat va xalq oldidagi burch va vazifasini suiiste'mol qilishidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bu illatga qarshi kurashda muhim qadam bo'ldi.

Qonunlarimizda ham bu jinoyat uchun qat'iy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, 211-modda – Pora berish, 212-modda – Pora olish-berishda vositachilik qilish, 213-modda – Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish holatlari jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Korrupsiya shaxsiy manfaat uchun mansabni suiiste'mol qilishdir. Unga qarshi birgalikda kurashamiz!

Sug'diyona MAMASODIQOVA,
Andijon viloyati Jalaquduq tumanidagi 50-maktabning
11-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA YOSHLAR NIGOHIDA

Prezidentimiz aytganlaridek, korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz. Chunki har bir narsaga pora bilan erishilsa, kelajakda barcha narsa pulga bog'liq bo'lib qoladi. Tarixga nazar solsak, bu ish azaldan bo'lib kelgan. Hozirgi vaqtga kelib esa korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari olib borilmoqda. Mening fikrimcha, korrupsiya bartaraf etilsa, barcha insonlarning pulga emas, o'ziga ishonchi oshadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan korrupsiya asta-sekin bartaraf etilmoqda. O'qishga kirishda sodir etiladigan korrupsiyaga qarshi ham ko'plab jiddiy ishlar olib borilmoqda. Masalan, o'quvchilar test topshiradigan xonalarga kameralar qo'yilmoqda. Biz ham korrupsiyaning oldini olmog'imiz kerak. Buning uchun davlat bilan birga ish tutishimiz lozim.

«Korrupsiya» lotincha tilidan olingan bo'lib «poraga sotilish», «aynash» degan ma'nolarni anglatadi. U jirkanch illatdir. Korrupsiya kuchayib borganligi sababli global muammolardan biriga aylanib qoldi. Bu muammolarni yo'qotish uchun esa barchamiz birdam bo'lishimiz kerak. Korrupsiya ko'plab joylarda uchramoqda. Bunga sabab esa, albatta, o'zimizdir. Chunki o'qishga kirishda ham ko'pchilik oson yo'lni tanlab, pora bilan kirib kelajagini barbod qilmoqda.

Biz, albatta, korrupsiyaga qarshi turishimiz kerak. Biz shunday jannatmonand yurtida tug'ilganimizga shukr qilishimiz lozim, chunki biz ozod yurtida dunyoga keldik.

Notinchlik bo'lib turgan joylarda esa yegani bir burda noni, yashagani joyi yo'q insonlar juda ko'p. Biz esa musulmon bo'lib tug'ildikmi, albatta, halol va haromni farqlay olishimiz lozim. Korrupsiya faqatgina bizning yurtimizni emas, butun dunyoning halovatini o'g'irlayotgan illatdir. Biz esa bu illatga qarshi turishimiz kerak. Korrupsiyaga qarshi tursak, albatta, bizning yurtimiz gullab-yashnaydi. Yoshlikdan bolalarga halol va haromning farqini o'rgatib borsak, albatta, ulardan yaxshi insonlar chiqadi. Biz har doim yurtimiz obod, farovon bo'lmoqligi uchun qo'limizdan kelgan barcha ishlarni qilishimiz kerak. Yurt bizga shunday imkoniyatlar bermoqda, biz ham bunga javoban qo'limizdan kelgan ishlarni qilib, o'zimizni ko'rsatishimiz lozim. Biz ham halol, pok bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashsak, yurtimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.



Barnoxon ODILOVA,
Andijon viloyati Andijon tumanidagi 10-umumta'lim
maktabining 11-«B» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYASIZ HAYOT QURAMIZ

Korrupsiya nima? Bu haqda hammaning o'ziga xos tasavvuri, tushunchasi bor, albatta. Qonunda unga shunday ta'rif berilgan: «Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish».

Bugun eng ko'p ishlatilayotgan so'zlarimizdan biri – korrupsiya. Ijtimoiy hayotda uning domiga tushib, oyog'i qoqilayotganlar oz emas. Qadimgi dunyoda ba'zi qabilalarda muayyan mavqega ega bo'lish uchun uning sardoriga turli sovg'a-salom berish odatidan korrupsiyaning ildizlari boshlangan ekan. U vaqtlarda bu amal odatiy hol deb qabul qilingani tabiiy. Biroq jamiyat hayotining murakkablashuvi va markazlashuvi korrupsiyaning mamlakat rivojiga katta to'siq ekanini ko'rsatdi. Tez-tez eshitib qolayotganimiz: bolalar bog'chasidan to oliy o'quv yurtlarigacha, qorovuldan to hokimgacha, ayblanuvchidan to qozigacha bu illat qurboniga aylanib, qancha jazolansa-da, tamagirlikka qarshi qattiq kurashilsa-da, korrupsiyaga to'la barham berib bo'lmayapti. Xo'sh, nega shunday? Sababi oddiy: odamlar uncha-muncha ishni azbaroyi vaqtini behuda sarflamaslik uchun emas, o'sha yumushi ayrim nopok, tamagirlar tomonidan o'rnatilgan turli soxta g'ovlar sabab bitmay

qolishidan qo'rquv tufayli ham pora berish payida bo'ladi. Shu zaylda ko'pchilik «beraveradi», kamchilik «olaveradi». Albatta, bundaylar safi oshishi va nafsi hakalak otishida siz-u biz, barchamiz aybdormiz! Bir kishining internetda «Hatto korrupsiyaga qarshi kurashadigan idoralarda ham korrupsiya bor», deya qoldirgan izohi kishini chuqur o'ylantirib qo'yadi.

Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishidan tashqari, o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga non-tuz berib katta qilgan, ilm-u hunar, obro' va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo'yadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va prinsiplarini belgilashda bunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash masalasi qat'iy hisobga olingan.

Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin deb o'ylaydi. Ular hech kimga, imon-e'tiqodga ishonmaydi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo'lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yor-u birodarlari, mahalla-ko'yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Qonunga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiq-lashtirish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etilishi belgilangan. Ushbu komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

belgilanishi qayd etilgan. Bu me'yor korrupsiyaga qarshi kurashning doimiy va izchil tus olishida muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyamizga muvofiq Prezident fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir.

Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Agar qonun hayotda ishlamasa, uning bir necha varaq oddiy qog'ozdan farqi qolmaydi. Shunday ekan, «Korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi», deb o'ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo'ladi. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish haqida hammamiz o'ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o'tkazishimiz, unga qarshi qat'iy kurashishimiz kerak.

Bu kurash kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshlanadi. Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, navbatni tezlashtirish, reyting daftarchasiga tuzukroq baho qo'ydirish va hokazo vaziyatlarda o'zimizni munosib tutishimiz lozim bo'ladi.

Qonunda belgilanganidek, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. To'g'ri ishlab, to'g'ri yashash saodatini bolalikdan, yoshlikdan o'rgangan odam mard va halol bo'ladi. Adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasbu-amalga, ishonchga xiyonat qilib bo'lmasligini o'qib-uqqan, poraxorlik va korrupsiyaga, suiiste'molchilikka qarshi o'zida immunitet hosil qilgan yoshlar kelajakda jur'atli, vijdonli inson bo'lib yetishadi. Qonunga, tartib-qoidalariga hurmat saqlab, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qiladi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo'lmasligini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunadi.

Korrupsiya jahondagi har qanday davlatda fuqarolarning tinchligi va xotirjamligi, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvchi, inson huquqlari buzilishiga olib keluvchi, iqtisodiy bozor munosabatlariga to'sqinlik qiladigan o'ta xavfli illatlardan biridir. Ya'ni jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanmas ekan, davlatning iqtisodiy, siyosiy salohiyati zaiflashadi, fuqarolarning huquq va erkinliklari kamsitiladi.

Bir yosh kadr mas'uliyatli vazifaga kelsa, amalga ega bo'lsa, bundan ota-ona, qarindosh-urug' qanchalik quvonadi?.. Bu tabiiy va ezgu tuyg'u, albatta. Lekin ba'zi noto'g'ri, zararli illatlar, bilib-bilmay, tushunib-tushunmay yo'l qo'yib beriladigan odatlar ham borki, ularni aslo esdan chiqarmasligimiz kerak. Gohida shunday bo'ladiki, yaqinlar, og'a-inilarning «O'g'lim yoki og'ayni, mana, ishlayapsan-ku, opangning uzatilayotgan qiziga durustroq sovg'a bergin, amakingning yetmay turgan mashina puliga yordam qilib yuborgin, qiynalib yuribdi...» qabilidagi istak va xohishlar yosh kadrlarni buzadi, boshini aylantirib qo'yadi. Yaqinlariga hurmat yuzasidan bechora o'zini o'qqa-cho'qqa urib, noqonuniy ish qilishga, oson pul topishga harakat qiladi. Istab-istamay, boshi berk ko'chaga kirib qoladi, korrupsiya tuzog'iga ilinadi.

Qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilikdan davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetmasligi, qonunlarga, insonning qadr-qimmatiga raxna solinmasligi kerak. Qandaydir manfaat ortidan bog'langan rishta, do'stlik, akaukachilik uzoqqa cho'zilmaydi, hech kimga hurmat olib bermaydi. Bunga hayotdan ko'plab misollar topish mumkin.

Dunyoda korrupsiyaning turi ham, tavsifi ham juda ko'p. Uning kelib chiqish sabablarini ochish, unga qarshi kurashishning samarali yo'llarini topish bo'yicha olimlar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. Turli ko'rsatkich va

raqamlar aks etgan jadvallar yaratilgan, o'ziga xos reytinglar tuzilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil formulalari ham ishlab chiqilgan. Bu boradagi ishlar va izlanishlar izchil davom etmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda, davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlashda, fuqarolarga tezkor va xolis axborot yetkazishda ommaviy axborot vositalariga erkinlik berish, demokratik islohotlar jarayonida ularning nufuzi va mavqeyini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish masalalari qonunda alohida belgilab qo'yilgan.

Shu o'rinda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasining yanabirtomoniga e'tibor qaratsak. Nobop, «muomala qilish», «kelishish»ga moyil rahbar yoki boshqa bir mas'ul nafaqat tashkilotga, jamiyatga, ishchi-xodimlarga ziyon yetkazadi, balki bunday odam bilan tashkilotning, jamoaning, ayniqsa, yosh kadrlarning vaqti, umri behuda o'tadi. Rahbar hammaga o'rnak bo'lib, halol ishlab, fidoyilik ko'rsatish o'rniga, yig'ilishlarda bir gapni gapirib, o'zi butunlay teskarisini qilsa, undan yosh kadrlar nimani o'rganadi? Qanday o'rnak oladi?.. Korrupsiyaga qarshi kurashish yana shunisi bilan muhimki, mazkur jarayonlarda ishchi-xodimlar, yoshlar halol ishlash, ishonch va vakolatga munosib xizmat bilan javob qaytarish zarur, degan tushunchaga tayanib faoliyat yuritishni o'rganadi. Har qanday vaziyatda mard odam, baribir, halol bo'ladi, degan e'tiqodda sobit turadi.

Dunyo kun sayin, soat sayin rivojlanyapti. Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikning tezkor, yangidan-yangi ufqlari ochilyapti, milliy iqtisodiyotlar o'zaro chambarchas bog'langan holda yuksalmoqda, taraqqiy etmoqda. Bugun har qanday davlat boshqa davlatlar bilan izchil hamkorlik

qilmasdan, oqilona investitsiya va resurslarga tayanmasdan, jahonga chiqmasdan, ayni paytda dunyoga eshiklarini keng ochmasdan, odamlar bemalol ishlaydigan ishonchli makonga aylanmasdan yuqori natijalarga erisholmaydi.

Erkin faoliyat yuritishga keng yo'l ochib berilgan, inson huquqlari, qonuniy manfaatlari qat'iy himoya qilinadigan mamlakatning ostonasidan odam arimaydi, bunday davlat dunyoning turli nuqtalaridan ishbilarmonlar talpinadigan yurtga aylanadi.

So'nggi vaqtlarda jamiyatimiz hayoti, mamlakatimiz iqtisodiyotining turli sohalarini yanada jadal rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, Prezident qaror va farmonlari ana shu ezgu maqsadga qaratilganini anglash qiyin emas. Turizmni rivojlantirish, dunyoning ko'plab davlatlaridan yurtimizga tashrif buyuradigan sayyohlar uchun viza rejimini bekor qilish yoki sud-huquq tizimini takomillashtirish, sudlarning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash yoxud tadbirkorlikka keng erkinlik berish, turli byurokratik to'siq va g'ovlarni yo'q qilish haqidagi hamda boshqa bir qancha qaror va farmonlar odamlarning yo'lini ochishga, O'zbekistonimizning jozibasini oshirishga xizmat qilmoqda.

«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun bu boradagi islohotlar yanada izchil tus olishiga sharoit yaratmoqda, xalqimizda katta umid uyg'otmoqda.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi - yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar o'rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kecha-yu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

Oydinoy JO'RAYEVA,
Andijon viloyati Andijon tumanidagi 39-IDUMIning
10-«B» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYAGA QARSHI QONUN BOR

Inson jinoyat yo'liga kirishiga ko'pincha uning nafs sababchi bo'ladi. Aynan mana shu nafs uning jinoyat botqog'iga botishiga, hatto umrlariga nuqta qo'yilishiga ham sababchidir. Adovatlar, turli jinoyatlar, ya'ni o'g'irlik, talonchilik, sotqinlik kabi illatlar, albatta, nafs orqali kelib chiqadi. Korruptsiya ham shular kabi nafs balosi sababli kelib chiqqan dahshatli illatdir. Korruptsiya biron-bir mansabdor shaxsning qonuniy va axloqiy qoidalarga zid ravishda mansabidan o'z manfaatlarini ko'zlab, pora olishidir. Poraxo'rlik, korruptsiyaning asl paydo bo'lgan payti hali hech kimga ma'lum emas. Qadimda ham biror lavozimga tayinlash yoki lavozimini ko'tarish uchun o'zidan yuqori lavozim egalariga poralar berilgan. Pora deganda, ko'pchilik pulni tushunadi. To'g'ri, poraning asosiy manbayi pul hisoblanadi, lekin pora tariqasida puldan tashqari turli sovg'a-salomlar, qimmatbaho buyumlar ham beriladi.

Hozirgi kunda jamiyatimizda korruptsiya rivojlanib bormoqda. Korruptsiya jamiyati a'zolari orasidagi muloqotning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Bunga misol qilib ishga, hatto yosh bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga navbatsiz joylashda, lavozim egalari o'z lavozimlaridan bir-ikki pog'ona yuqori lavozimga ko'tarilishni istaganlarida ayrimlar korruptsiyaga yo'l qo'yadi. Bu jarayon nafaqat yuqoridagi holatlarda, balki oila muhitida ham paydo bo'lgan. Masalan, uka-singil,

aka-opalarimizga biror ish buyurib, evaziga biron narsa berishimizni aytamiz. Ko'pincha ukalarimizga do'konga chiqib, aytgan narsamizni olib kelib bersa, ortgan pul o'ziga bo'lishini yoki biron narsa olib berishimizni aytamiz. Menimcha, shular ham kichik bo'lsa-da, poraxo'rlikning bir turidir. Chunki biz ukamizga ortgan pul o'ziga bo'lishini yoki muzqaymoq olib berishimizni aytmasak, u kino ko'rayotganini yoki biron yumush qilayotganini aytib, albatta, rad javobini berishi mumkin. Oilada pora olish evaziga ish bajarishga o'rgangan farzand kelajakda biror mansabni egallab, u yerda ham o'sha ishini davom ettiraveradi.

Korruptsiya yomon oqibatlarga olib keladi. U jamiyatning davlat xodimlariga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi, jamiyat va davlat o'rtasida devor paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Jamiyat va davlat o'rtasida birdamlik yo'qoladi. Davlat olib borayotgan islohotlarga qarshi chiqadi. Natijada bunday davlat inqirozga yuz tutadi. Bunday davlatning kelajagi ham porloq bo'lmaydi.

Biz, yoshlar korruptsiyaga qarshimiz, korruptsiya bilan inson hech qachon maqsadiga erisha olmaydi. Korruptsiya yo'liga kirgan inson pora olish evaziga boyishi yoki pora berish evaziga o'z maqsadiga yetgan taqdirda ham uning nihoyasi yaxshilik bilan tugamaydi. Masalan, pora berib, biror lavozimga tayinlansa-yu, lavozim majburiyatlarini, vazifalarini yaxshi bilmasa, o'sha tashkilotda munosib ishlay olmaydi. O'sha mansab orqali halol boylik orttirmaydi. Bunday insonlar oxiri hech narsasiz, bir o'zi qoladi yoki qamoq jazosiga mahkum etiladi.

Agar inson maqsadiga chin dildan erishmoqchi bo'lsa, u hech qachon korruptsiya botqog'iga kirmaydi. Shunday ekan, biz ham o'z maqsadimizga halol mehnatimiz orqali erishaylik.

Bibisora A'ZAMOVA,
Andijon viloyati Andijon shahridagi 39-umumta'lim
maktabining 11-«B» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA VA KELAJAK

Hayotda yashash har bir insonga Yaratgandan berilgan eng ulug' ne'matdir. To'g'ri yo'ldan borish ham, egri yo'ldan yurish ham faqat insonlarga bog'liq. Hayotda shunday insonlar o'tganki, ularni hozir butun jahon biladi. Chunki ular o'zining halol mehnati orqali to'g'ri yo'lni tanlagan. Egri yo'lni tanlagan insonlar maqsadlariga tez va oson yetishlari mumkin. Ammo vaqt o'tib, ular jar yoqasiga kelib qolganini anglaydi.

Qadimgi davrdan beri shakllanib kelayotgan muammo borki, u hozir butun dunyoning muammosiga aylangan. Bu muammo korrupsiyadir. Korrupsiya shunday bir illatki, u insonni tubanlashtiradi, davlatni yemiradi. Bu yo'lga kirgan insonning to'g'ri yo'lga qaytishi juda ham qiyin bo'lib qoladi. Hozirgi kunda korrupsiyaning 3 xil shakli bor. Ya'ni siyosiy korrupsiya, iqtisodiy korrupsiya va jinoiy korrupsiya.

Siyosiy korrupsiyada o'z vazifasida ishlayotgan odam o'zining lavozimini oshirish, vakolatlarini kengaytirish maqsadida noqonuniy partiyalardan va shu kabi qarorlardan foydalanishga harakat qiladi.

Iqtisodiy korrupsiya deganda, o'zining manfaatlarini o'ylab, noto'g'ri yo'l bilan pul mablag'lariga erishish tushuniladi. Jinoiy korrupsiya jinoiy guruhlar tuzish, zulm qilish, boshqa bir shaxsga tuhmat qilish orqali kelib chiqadi.

Korrupsiya tufayli juda ko'p muammolar kelib chiqadi. Misol uchun, agar maktabda korrupsiya kuzatilsa, o'quv-

chining ongi zaharlanadi, ruhiyati tushadi, turli xil fan sohalariga bo'lgan qiziqishi yo'qoladi va bu kelajakda insonlarning oddiy turmush tarziga, loqaydlikka, huquqiy bilimlarning past darajada bo'lishiga sabab bo'ladi. Korrupsiya kelajakda davlatni har tomonlama inqirozga olib keladi.

Dunyo mamlakatlari har yili bir trillion AQSh dollari miqdorida zararlanadi. Buning oldini olish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2003-yilda «Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiya»sini ishlab chiqqan. Bu hujjatga O'zbekiston 2008-yilda qo'shilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 9-dekabr - «Korrupsiyaga qarshi kurashish kuni» deb belgilangan. Har yili butun dunyo bo'ylab ushbu kun nishonlanadi va turli xil tadbirlar o'tkaziladi.

Mir Alisher Navoiy shunday deb aytgan:

*Menga qilsa ming jafo, bir qatra faryod aylamam,
Elga qilsa bir jafo, ming qatla faryod aylaram.*

Har qanday shakldagi korrupsiya orqali xalq jabrlanadi. Korrupsiyaning yo'qolishi uchun qadimda adolatli podshohlar barcha uchun teng bo'lgan qat'iy qarorlar, qonunlar tuzgan va xalq o'rtasida tinchlikni ta'minlagan.

Hozirgi kunda korrupsiyaga jiddiy ta'sir ko'rsatgan va yaxshi natijalarga erishgan bir necha davlatlar bor. Bunga Shvetsiya, Singapur, Portugaliya mamlakatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim vazifalaridan biri odamlarning huquqiy bilimini oshirishdir. Huquqiy bilim qanday oshiriladi? Barchaga ma'lumki, ta'lim-tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Oila muhiti farzandning ta'lim-tarbiyasiga yaxshi ta'sir ko'rsatsa, u to'g'ri fikrlay oladi, kelajakda ajdodlariga munosib avlod bo'lishga harakat

qiladi. Oila muhiti tufayli o'sayotgan har bir yosh avlodning huquqiy bilimi kengayib, oshib boradi. Huquqiy bilimlar xalq o'rtasida rivojlansa, ular o'z haq-huquqlarini biladi, qonunlarga qarab ish yuritadi, farzandlariga to'g'ri tarbiya beradi. Agar har bir insonda huquqiy bilimlar bo'lsa va u jamlansa, jamiyatda, albatta, adolat bo'ladi.

Hozirgi paytda yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar juda kattadir. Korruptsiyaga qarshi kurash mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlangan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bu haqida «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kitobida o'z fikrlarini bayon qilgan va muhim ishlar amalga oshirilgan. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham 2017-yilning 3-yanvarida «Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunni imzolagan. Bu kabi qonun va ishlar jamiyatda sodir bo'layotgan korruptsiyaning kamayishiga sabab bo'lmoqda va yoshlar uchun imkoniyatlar eshigi ochilmoqda.

Yurt kelajagi biz, yoshlar qo'lida ekan, har doim Vatanimiz uchun sodiq farzand bo'lishga, kelajak uchun o'z hissamizni qo'shishga harakat qilamiz.

Asila TUROBOVA,

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI

Hayotda, albatta, har birimiz ertami-kechmi nohaqlikka, adolatsizlikka to'qnash kelishimiz ehtimoldan xoli emas. Aytaylik, puxta bilimga ega kadrning o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga kirolmasligi yoki sudyaning pora evaziga gunohkorni oqlab, begunohni qoralashi kabi nohaqliklar-u bedodliklar hayotda ozmi-ko'pmi uchrab turadigan hodi-salardir.

Davlat idorasida xizmat qilayotgan mas'ul shaxs pora evaziga fuqaroning ishini «to'g'rilab», hojatbarorlik qiladi. Korruptsiya tushunchasi va shakllari xalqaro darajada rasman BMTning 1995-yildagi rezolutsiyasida o'z aksini topgan. Ushbu rezolutsiya qoidalariga muvofiq, davlat ichki qonunchiligi korruptsiya mezonlarini va uni bartaraf etish choralarini belgilaydi. Ushbu illatning ildizlari bir necha ming yillarga borib taqalishi odamni chuqur mulohazaga undaydi. Dastlab insonlar biror-bir mavqega ega bo'lish uchun qabila boshlig'i yoki oqsoqolga sovg'a-salomlar hadya qilganlar. Qimmatroq sovg'a bu odamni boshqalardan ajratib turgan va uning iltimosi yoki talabi so'zsiz qondirilgan. Unga qarshi kurashgan ilk hukmdor sifatda eramizdan ikki yarim ming yil avval yashagan Shumer podshohi Uruinimgina nomi tilga olinadi. Qadim zamonlardayoq korruptsiyaga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ko'ngildagidek natijani bermagan.

Kamomadga yo'l qo'yishlar va pora olishlar muntazam ravishda davom etavergan. Inson borki, nafs bor, inson borki, xatoga yo'l qo'yadi. Nafs, manfaat tufayli insonlar nohaqdan nohaq hukmdor-u sudyalarning adolatsiz hukmlari jabrini chekkan.

Men korrupsiyani hazrat Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, elga zulm qilish, deb baholayman. 90-yillarda sobiq sotsialistik respublikalarda yuz bergan liberallashuv jarayonlari tufayli mansabdorlarning o'z mansab vakolatini suiiste'mol qilishi yanada kuchaydi. «Financial Times» gazetasi 1995-yil 31-dekabrda sonida 1995-yilni «Korrupsiya yili» deb e'lon qildi. Korrupsiya haqidagi bilimlarni targ'ib qilish uchun BMT 9-dekabrni «Xalqaro korrupsiya qarshi kurashish kuni» deb belgiladi. Korrupsiya iqtisodiy jinoyatlar orasida yetakchi o'rin tutadi. Uning insonlarga va umuman, jamiyatga yetkazadigan zarari juda katta. Bu o'rinda ulardan ayrimlarini qayd etish bilan cheklanamiz, xolos.

Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash yuzasidan qanday ishlar olib borilayotgani xususida so'z yuritsak, o'tgan yillar mobaynida poraxo'rlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish kabi holatlar bo'yicha qonunchilikda turli jazolar belgilangan. Shunga qaramasdan, bizda bevosita korrupsiyaga oid qonun yo'q edi. 2016-yil 24-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun qabul qilinib, u 13-dekabrda Oliy Majlisi Senati tomonidan ma'qullandi. Ushbu qonun mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dasturilamal bo'ldi.

Korxona va tashkilotlar, oliy o'quv yurtlari, mahallalarda korrupsiya illatining oldini olishga qaratilgan ko'plab o'quv-seminarlar, davra suhbatlari tashkil etilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat hamda

jamoat tashkilotlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan uzviy hamkorlik o'z samarasini bermiqda. Buning natijasida huquqbuzarliklar, manfaatlar to'qnashuvi, turli darajadagi suiiste'molliklarning oldi olinib, oldindan bartaraf etishga yordam beryapti. E'tiborlisi, qilinayotgan amaliy ishlar xalqaro darajada ham e'tirof etilmoqda. Xususan, mamlakatimizning mintaq va MDH davlatlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lidagi harakatlari yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Korrupsiyaga qarshi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari, balki barcha birga kurash olib borishi orqali natijaga erishish mumkin. Sababi mazkur illatlarni bartaraf etishda har bir fuqaroning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda aholi o'rtasida ommaviy axborot vositalari orqali olib boriladigan targ'ibot-tashvilot ishlari va seminarlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu orqali korrupsiyaga qarshi kurashni ommaviy tashkil etish bilan birgalikda, hamyurtlarimizning huquqiy bilimni yanada rivojlantirishga erishilyapti.



Dilnora QAHHOROVA,
Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 43-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYANI YENGAMIZ

Korrupsiya... Korrupsiya – inson hayotiga xavf soluvchi illat. Bugungi kunda butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solib kelayotgan bu illat azaldan jamiyat va davlat ravnaqiga zimdan to'sqinlik qilib kelayotgan eng jirkanch omillardan biridir. Korrupsiya haqida so'z yuritar ekanmiz, bu so'zning lug'aviy ma'nosi barchani birdek o'ylantirsa, ajab emas, albatta. Keling, bu borada to'xtalib o'tsak. «Korrupsiya» atamasi lotinchadan olingan bo'lib «corrumpo» – «poraga sotilish», «aynish» degan ma'noni anglatadi. Kengroq ifodalaydigan bo'lsak, mansabdor shaxsning o'z manfaatini ko'zlab shaxsiy boyish maqsadida vazifasini suiiste'mol qilishi bilan bog'liq bo'lgan amaliyotdir. Ayniqsa, bu yetuk mutaxassislar, jahon andozasi darajasidagi kadrlar tayyorlashni asosiy maqsad qilib olgan mamlakatimiz oldida turgan dolzarb masalalaridan biridir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyat shakllanish jarayonining ikki davri bo'lmish ibtidoiy jamiyatlarda ham korrupsiyaning ayrim ko'rinishlari bo'lib, o'sha davrda qabila oqsoqollari yoki harbiy boshliqlarga muayyan bir imtiyozni egallash uchun haq to'lash tabiiy hol hisoblangan. Keyinchalik esa davlat boshqaruvining takomillashuvi va murakkablashuviga ko'ra korrupsiyaning ham turli xil shakllari yuzaga kelib, oxir-oqibatda u global muammolardan biriga aylandi.

Bilamizki, shaxs, jamiyat hamda davlat tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq. Shu sababli jamiyatning biror


a'zosiga ta'sir qilgan biror illat, albatta, butun jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Korrupsiya paydo bo'lishi va rivoji mazkur taraqqiyotga zimdan to'sqinlik qiladi hamda davlatning olib borayotgan islohotlariga qarshilik ko'rsatadi. Korrupsiya illatiga qul bo'lgan amaldorlar davlatning, jamiyatning, xalqning bildirgan ishonchini suiiste'mol qilib, o'z manfaatlarini ustun qo'yadilar. Bu esa ish sifatining buzilishiga olib keladi. Natijada xalq o'rtasida Vatanga daxldorlik va kelajakka ishonch tuyg'ulari so'nadi.

Korrupsiya mamlakatni va uning taraqqiyotini ortga surib, kelajakni xavf ostida qoldiradi. Korrupsiya davlatni nafaqat moddiy, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham yemirilish va davlat o'rtasida ishonchsizlikning vujudga kelishiga olib keladi. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti. Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritamiz. Korrupsiya termini, odatda, mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlaridan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda qadimga borib taqaladi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi

organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi manbalardan ma'lum. Chunki bu davlatning obro'siga putur yetkazadi.

Dunyo kun sayin rivojlanyapti. Davlatlar va xalqlar orasidagi hamkorlikning yangi ufqlari ochilmoqda, milliy iqtisodiyotlar rivojlanishda davom etmoqda. Bugungi kunda har qanday davlat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan, ayni paytda jahonga chiqmasdan, odamlar tinch hayot kechiradigan makonga aylanmasdan yuqori natijalarga erisha olmaydi. Shunday ekan, biz yosh avlod kelajakda o'z mustaqil fikriga ega, ishbilarmon, yetuk kadrlar bo'lib, Vatan nufuzini yanada oshirishimiz lozim. Hayotimizga korrupsiyaning kirishiga yo'l qo'ymasak, biz, albatta, yutuqlarga erishamiz.



Dilnura SA'DULLAYEVA,
Buxoro viloyati Peshku tumanidagi 15-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – ADOLAT KUSHANDASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida barcha sohalarda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, Vatanimiz ravnaqi va xalqimizning munosib hayot kechirishini ta'minlashda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan g'ov bo'layotgani alohida tilga olindi.

Tarixdan ma'lumki, asrlar osha har qaysi davlat va jamiyat poraxo'rlik bilan to'xtovsiz kurashib keladi. Diniy ta'limotlarning hech biri poraxo'rlikni oqlamaydi. Pora olgan kishi ushbu harom tarzda topgan pulini oilasining kam-ko'stiga ishlatadi, farzandlarini boqadi. Ammo bu insonga ruhiy notinchlik keltiradi. Bu illat bor ekan, jamiyatning hech bir tarmog'ini rivojlantirib bo'lmaydi.

Korrupsiya har qanday barqarorlik bilan taraqqiy etishiga to'sqinlik qilgani uchun unga qarshi kurashish, butun dunyo mamlakatlarining dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda. Avvalo, poraxo'rlik so'zining ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, «korrupsiya» atamasi lotincha «corruptic» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning ma'nosi «berish, sotib olish» degan ma'noni bildiradi. Taraqqiyotga to'siq bo'layotgan bir qator omillar, illatlardan biri va eng xavflisi poraxo'rlikdir. Bu illat, avvalo, xalqimizning davlat va islohotlarga ishonchini so'ndirib, norozilik kayfiyatini kuchaytirishi bilan ham g'oyat xatarlidir. Korrupsiyaga qarshi o'z vaqtida kurashilmasa, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik yuzaga keladi. U aholining, xalqning olib borilayotgan is-



lohotlarga bo'lgan ishonchini yo'q qiladi hamda jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarda adolatsizlikni vujudga keltiradi. Xalq tilida soddagina qilib poraxo'rlik, keng ma'noda korrupsiya deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta uradi.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini, unga qarshi kurashishning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan, hatto poraxo'rlikning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqarilgan. Hanuzgacha korrupsiyaga qarshi kurashda barcha millatlar uchun qo'l keladigan yagona yechim yo'q.

Ongi zaharlangan, o'z manfaatini ustun qo'yuvchi kimsalar bor ekan, korrupsiya biz bilan yashayveradi. Har qaysimiz korrupsiyaga qarshi kurashmog'imiz, qilgan yaxshiliklarimizni adolat tarozisiga tortib turmog'imiz darkor.

Korrupsiya degan illatni yo'qotmoq uchun chindan ham barcha birlashmog'i kerak. Vatanimiz gullab-yashnashida to'sqinlik qiladigan illatlarni ildizi bilan yo'qotishimiz kerak. Go'zal hayot, chiroyli turmush uchun harakat qilgan har bir inson maqsadiga yetadi. Xulosa shundaki, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jamiyat yaratgan tizimning nosog'lom yashashida namoyon bo'ladi. Bu illatga qarshi butun jamiyat bir yoqadan bosh chiqarib kurashsagina, aniq natijalarga erisha olamiz. Biz poraxo'rlikka qarshimiz.

Iroda MAHMUDOVA,

Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 43-umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – QING'IRLIKDIR!

Korrupsiya. Bu so'zni aniq va tushunarli holda ifoda etadigan bo'lsak, korrupsiya biror-bir shaxsning o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yishi deyishimiz mumkin. Bunday inson hech bir vazifani chin ko'ngildan bajarmaydi, albatta. Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzadi, undan tashqari, o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanligini oshkor qiladi. Nafaqat ma'naviy ziyon yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani hurmat qilmay, obro'sini to'kadi, unga non-tuz bergan, katta qilgan, ilm-u hunar, obro' va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo'yadi. Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri bo'lmaydi. Ular hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin deb o'ylaydi.

Pora olgan kishi ushbu harom tarzda topgan pulini oilasining kam-ko'stiga ishlatadi, farzandlarini boqadi. Ammo bu insonga ruhiy notinchlik keltiradi. Xalqimizda «Halol pul yirtiq cho'ntakda ham turadi» degan maqol bejiz aytilmagan. Insonning hayotdagi maqsadi ham o'zidan yaxshilik qoldirishdir. Qalbida, yuragida Vatanga bo'lgan mehr-sadoqati bor inson hech qachon bu kabi qing'ir ishlarga qo'l urib, o'z yurtining taraqqiyotiga bolta urmaydi. Inson psixologiyasi shundayki, u hech qachon o'zini yomon hisoblamaydi. Pora olish va berishning sabablari va maqsadlarini tubdan ko'zdan kechirsak, uning jamiyat uchun biror-bir foydasini ko'rmaymiz.

Bugungi kunda radio hamda oynayi jahon orqali insonni sergaklikka chorlovchi bir qator eshittirishlar, videoroliklar

uzatilmogda. Ming afsuslar bo'lsinki, ushbu illat oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari va o'quv jarayonini ham chetlab o'tmayapti. Har ishda osonlikni ko'zlaydigan, hayotda aniq maqsadlar qo'ya olmagan insonlargina bunday ishlarga qo'l urishi mumkin.

Har bir qonun yaxshilikni ko'zlab, ezgu maqsadda qabul qilinadi. Korrupsiyaga qarshi qaratilgan bir qator qonunlar ham, albatta, jamiyat hayotida adolat o'rnatish, xalq kelajagini o'ylagan holda qabul qilingan. «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun ham ana shunday tarixiy ahamiyatga ega hujjatlardan biridir. Mazkur qonunda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha barcha masalalar aniq belgilab qo'yilgan.

Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlar amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Agar qonun hayotda ishlamasa, uning bir necha varaq oddiy qog'ozdan farqi yo'q.

Shunday ekan, korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish uchun qonunga barchamiz amal qilib, unga nisbatan doimo hurmatda bo'lishimiz lozim. Zero, qonunlar jamiyat hayotini tartibga soluvchi vositalardan biridir. Iymoni butun, insofli kishi hech qachon yomon yo'lga yurmaydi. Pora olish naqadar og'ir jinoyat bo'lsa, pora berish ham ushbu jinoyatga sherikdir. Hayotga yengil-yelpi qarab, osonlik ortidan quvib yuradigan insonlardan aslo o'rnak olmaylik, aksincha, har birimiz shu qadar pok hayot kechiraylikki, umr yo'limiz boshqalarga o'rnak bo'lsin.

Sug'diyona FARMONOVA,
Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi 21-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – BU ZULMDIR

Adolat va zulm. Ozodlik va qaramlik. Obodlik va vayronkorlik. Ma'rifat va jaholat. Ha, bu bir-biriga zid tushunchalar toki inson yer yuzida bor ekan, u bilan hamisha hamroh, hamnafas, hamqadam. Bularning ikkinchisini yenggandagina birinchisiga erishmoq mumkin. Tarix haqiqati shuni ko'rsatmoqdaki, zulmni adolat shamshiri bilan, qaramlikni ahillik mayog'i bilan, vayronkorlikni bunyodkorlik tilsimi bilan yengmoq mumkin. Bizga O'zbekiston atalmish adolat hukm surayotgan, ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilayotgan, ilm-u ma'rifat rivoj topayotgan yurtda yashamoq baxti muyassar bo'lgan. Darhaqiqat, bugun O'zbekiston shaxdam qadamlar bilan dunyo yuzini ko'rmoqda. Bugun o'zbek yoshlari jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini hilpiratmoqda, madhiyamiz olam uzra jarang sochmoqda.

Mamlakatimiz yoshlari fan va sport olimpiadalarida dunyo yoshlaridan kam emasligini medallar shodasi orqali isbotlamoqda.

Yurtboshimizning jahon minbarida so'zlagan o'zbekcha nutqidan olam ahli hayrat yoqasini tutmoqda. Albatta, bularning zamirida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat, yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar, ulkan bunyodkorlik ishlari turibdi. Biroq hamon taraqqiyot ildiziga urilayotgan bolta misol bir tushuncha borki, undan qutulayotganimiz yo'q.

Bu biz va siz o'ylagan illat, albatta, korrupsiya. Shu nuqtada haqli savollar tug'iladi: korrupsiya o'zi nima? Uning qanday shakli va ko'rinishlari bor? Uni ildizi bilan batamom yo'qotish mumkinmi?

Korrupsiya ortida insonning shaxsiy manfaatlari, xalq tili bilan aytganda, nafs turibdi. Demak, o'z nafsiga qul bandalar adolat, insof, vijdon kabi azaliy va abadiy tushunchalarni oyoqosti qilib, o'zining razil maqsadiga erishmoqchi bo'ladi. Biroq adolat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi deganlaridek, korrupsiya orqali erishilgan maqsad bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Shuning uchun bugun Prezidentimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida o'z farzandlarini muassasaga qo'yimoqchi bo'lgan ota-onalar uchun qulay tizimning yo'lga qo'yilganligi, xalq ta'limi sohasida kundalik.com dasturining ishlayotganligi, oliy ta'limda talabalarining o'zlashtirish ballari internet tarmog'iga joylanayotganligi, bank va kredit yo'nalishidagi shaffoflik, uy-joy kadastri bilan bog'liq islohotlar, soliq va soliqqa tortish bo'yicha samarali ishlar, yoshlarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratilganligi zamirida ham korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashning amaliy ifodasi mujassam. Bularning hammasida unib-o'sib kelayotgan avlod – bizning manfaatlarimiz, yorug' kelajagimiz, istiqbolli rejalarimiz o'z aksini topgan.

Bir tasavvur qiling: bugun korrupsiya bilan o'z farzandini o'qishga kiritib qo'ygan, shu yo'l bilan keyinchalik ishga ham joylab qo'ygan ota-onaning farzandi bu chirkin usulni davom ettirmasligiga kim kafolat beradi?! Jamiyatdagi illatlarni daraxtga o'xshatsak, biz uning boshlang'ich nuqtasini shox va butalardan emas, ildizidan qidirmog'imiz darkor. Zero, ildiz bizning o'zimiz, huquqiy madaniyatimiz. Demak, korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik uchun har bir kishi yoshligidan ilm-u ma'rifat egallashi, o'z sohasining bilimdoniga aylanishi, jamiyatning ongli a'zosi ekanligini bilib olishi zarur. Shuning uchun ham Yurtboshimiz adolat maydonining shohsupasi bo'lgan Xalq qabulxonasi eshiklarini keng ochib qo'yдилarki, toki

odamlar o'z g'am-u tashvishlarini baralla ayta olsinlar, toki xalqimiz manfaatlari har narsadan ustunligini his qilsinlar, toki mansabdor shaxslar millat uchun qayg'ursinlar. Xalq qabulxonalari hozirgi kunda har bir viloyat va tumanda o'z faoliyatini yuritmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz har bir nutqida korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish borasida tizimli ishlarni yo'lga qo'yish hamda zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish borasidagi fikrlarini o'rtaga tashlaydi. Jumladan, 2020-yil dekabr oyida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham korrupsiya masalasiga alohida to'xtalib, jumladan, shunday dedi: «... afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda». Yurtboshimiz shu so'zlardan so'ng korrupsiya balosining oldi olinmasa, jamiyatning biror tarmog'i rivojlanmasligini alohida e'tirof etdi. Shu o'rinda yangi ibora «halollik vaksinasi» haqida to'xtalib o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, butun dunyo ahli bu illatga qarshi kurashsa, ilm-u ma'rifatni mayoq qilsak, xalq va vatan manfaatlarini har narsadan ustun qo'ysak, shundagina biz bu illatdan xalos bo'la olamiz. Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama kamol topishi, sog'lom, ilimli bo'lib yetishishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Biz ulardan unumli foydalanib, kelajakda vatanimizga nafi tegadigan insonlar bo'lib yetishishimiz lozim.

Xushro'bi AVAZOVA,
Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi 31-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi

ADOLAT KUSHANDASI

Korrupsiya qadimdan mavjud bo'lib, ayirboshlashning noqonuniy shakli, ya'ni boshqa bir insonlarga yoki atrof-muhitga, hayvonot va o'simlik olamiga zarar yetkazadigan omil hisoblanadi. Korrupsiya haqida qadimgi Misr fir'avnlari, hind rojalari, Sharq mutafakkirlari aytib o'tishgan. G'arb mamlakatlari ham bundan mustasno emas, albatta. Korrupsiya – jahondagi har qanday davlatda fuqarolarning tinchligi va xotirjamligi, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvchi, inson huquqlari buzilishiga olib keluvchi, iqtisodiy bozor munosabatlariga to'sqinlik qiluvchi o'ta xavfli illatlardan biridir.

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

E'tibor bilan dunyoga nazar solsak, rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida korrupsiya kam. Xalqaro institutlarning xabar berishicha, rivojlangan davlatlarda korrupsiya maksimal 15 foiz ekan, demak, ular korrupsiyaga qarshi samarali kurasha olgani uchun ham hozirda rivojlanganlar safida turibdi.

Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Korrupsiya buzg'unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham jamiyat qadim zamonlardan boshlab unga qarshi kurashib keldi. O'zbekis-

ton Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: «Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz!», deb bejiz aytmagan.



Zulayho SA'DULLAYEVA,
Jizzax viloyati Arnasoy tumanidagi 7-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

YOSHLAR KORRUPSIYASIZ KELAJAK TARAFDORI

Korrupsiya – ijtimoiy-iqtisodiy vayronkor kuchdir. Uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruv organlariga ishonchi yo'qoladi, uyushgan jinoyatchilik uchun zamin yaratiladi, jamiyatda ma'naviyat izdan chiqadi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro'yxatini yana uzoq davom ettirishimiz mumkin. Buning uchun, eng avvalo, korrupsiya tushunchasining ma'nosiga e'tiborimizni qarataylik. Huquqiy adabiyotlarda «Korrupsiya – davlat va boshqa xizmatchilarning ijtimoiy jihatdan g'arazli maqsadlarda o'zining mavqeyi, vakolati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, mansabdan noqonuniy ravishda foydalanishi va sotilishidir», deyilgan. Korrupsiya atamasi esa lotin tilidan olingan bo'lib «buzish», «poraga sotilish» degan ma'nolarni anglatadi. Umuman, korrupsiya atamasiga berilgan ta'riflar juda ko'p va ma'no jihatdan yaqin. Masalan, korrupsiya muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullangan amerikalik olimlar – E.Benfield va M.Jonston «Korrupsiya – bu siyosiy arboblarning, davlat apparati xodimlarining va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki ma'lum guruhlarining manfaatlarini uchun o'zlarining rasmiy burchlarini va davlat funksiyalarini bajarishdan bosh tortishdir», deb ta'rif bergan. Ko'rinib turibdiki, bu yerda kalit so'z «davlat organlari xodimlari» sanaladi. Ya'ni ushbu jumlaning o'zi korrupsi-

ya darajasi yuqori bo'lishida davlat xizmatchilarining roli muhim ekanligini ko'rsatadi. Davlat organlarida xizmat qilayotgan ayrim shaxslarning bunday qabih ishga qo'l urishga nima undamoqda? Javob yana izohning o'zida. Moddiy yoki mulkiy yo'sinda noqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida.

O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarining «Yeb to'ymagan – yalab to'ymas» nomli hikoyasida yozuvchi shunday deydi: «Qadim zamonda ko'zi ojiz odam bo'lgan ekan. Albatta, ko'zi ojizlik ayb emas... Xullas o'sha odam tirikchiligi tang ahvolda qolgach, o'ziga o'xshash so'qir bir tilanchiga shogird tushibdi. Gadoylik hunarining sirini o'rgatishni so'rabdi.

– Bu hunarning uchta qoidasi bor, – debdi ustoz. – Qayerda bo'lsa ham, qancha bo'lsa ham, kimdan bo'lsa ham olaverasan!

Oradan ko'p yillar o'tibdi. Ustoz tilanchi hammomning isiq xonasida mudrab o'tirsa, yonbosh tomondan ovoz kelibdi:

– Xayr qiling!

– Esing joyidami? – debdi ustoz tilanchi. – Hammomda ham sadaqa so'raydimi?

– Qayerda bo'lsa ham! – debdi boyagi ovoz. Ustoz tilanchining achchig'i chiqibdi.

– Qanaqa betamizsan, yalang'och odamda pul nima qilsin?

– Qancha bo'lsa ham!

Ustoz tilanchi shogirdining ovozidan tanib qolibdi.

– Hoy, badbaxt! Kelib-kelib o'z ustozingni ham shilasanimi?

– Kimdan bo'lsa ham! – debdi shogird tilanchi...

Albatta, poraxo'r tilanchi emas. Poraxo'r avvaliga o'zini tiyib yuradi. «Insof» bilan oladi. Ammo bora-bora qayerda bo'lsa ham, qancha bo'lsa ham, kimdan bo'lsa ham, olishga o'rganadi. Va... oxiri hammomga yalang'och kiradi... tag'in kim bilsin...

Zulayho SA'DULLAYEVA,
Jizzax viloyati Arnasoy tumanidagi 7-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

YOSHLAR KORRUPSIYASIZ KELAJAK TARAFDORI

Korrupsiya – ijtimoiy-iqtisodiy vayronkor kuchdir. Uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruv organlariga ishonchi yo'qoladi, uyushgan jinoyatchilik uchun zamin yaratiladi, jamiyatda ma'naviyat izdan chiqadi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro'yxatini yana uzoq davom ettirishimiz mumkin. Buning uchun, eng avvalo, korrupsiya tushunchasining ma'nosiga e'tiborimizni qarataylik. Huquqiy adabiyotlarda «Korrupsiya – davlat va boshqa xizmatchilarning ijtimoiy jihatdan g'arazli maqsadlarda o'zining mavqeyi, vakolati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, mansabdan noqonuniy ravishda foydalanishi va sotilishidir», deyilgan. Korrupsiya atamasi esa lotin tilidan olingan bo'lib «buzish», «poraga sotilish» degan ma'nolarni anglatadi. Umuman, korrupsiya atamasiga berilgan ta'riflar juda ko'p va ma'no jihatdan yaqin. Masalan, korrupsiya muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullangan amerikalik olimlar – E.Benfield va M.Jonston «Korrupsiya – bu siyosiy arboblarning, davlat apparati xodimlarining va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki ma'lum guruhlarining manfaatlari uchun o'zlarining rasmiy burchlarini va davlat funksiyalarini bajarishdan bosh tortishdir», deb ta'rif bergan. Ko'rinib turibdiki, bu yerda kalit so'z «davlat organlari xodimlari» sanaladi. Ya'ni ushbu jumlaning o'zi korrupsiya

darajasi yuqori bo'lishida davlat xizmatchilarining roli muhim ekanligini ko'rsatadi. Davlat organlarida xizmat qilayotgan ayrim shaxslarning bunday qabih ishga qo'l urishga nima undamoqda? Javob yana izohning o'zida. Moddiy yoki mulkiy yo'sinda noqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida.

O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarining «Yeb to'ymagan – yalab to'ymas» nomli hikoyasida yozuvchi shunday deydi: «Qadim zamonda ko'zi ojiz odam bo'lgan ekan. Albatta, ko'zi ojizlik ayb emas... Xullas o'sha odam tirikchiligi tang ahvolda qolgach, o'ziga o'xshash so'qir bir tilanchiga shogird tushibdi. Gadoylik hunarining sirini o'rgatishni so'rabdi.

– Bu hunarning uchta qoidasi bor, – debdi ustoz. – Qayerda bo'lsa ham, qancha bo'lsa ham, kimdan bo'lsa ham olaverasan!

Oradan ko'p yillar o'tibdi. Ustoz tilanchi hammomning isiq xonasida mudrab o'tirsa, yonbosh tomondan ovoz kelibdi:

– Xayr qiling!

– Esing joyidami? – debdi ustoz tilanchi. – Hammomda ham sadaqa so'raydimi?

– Qayerda bo'lsa ham! – debdi boyagi ovoz. Ustoz tilanchining achchig'i chiqibdi.

– Qanaqa betamizsan, yalang'och odamda pul nima qilsin?

– Qancha bo'lsa ham!

Ustoz tilanchi shogirdining ovozidan tanib qolibdi.

– Hoy, badbaxt! Kelib-kelib o'z ustozingni ham shilasanimi?

– Kimdan bo'lsa ham! – debdi shogird tilanchi...

Albatta, poraxo'r tilanchi emas. Poraxo'r avvaliga o'zini tiyib yuradi. «Insof» bilan oladi. Ammo bora-bora qayerda bo'lsa ham, qancha bo'lsa ham, kimdan bo'lsa ham, olishga o'rganadi. Va... oxiri hammomga yalang'och kiradi... tag'in kim bilsin...

Yozuvchi bejiz «ko'zi ojiz» demayapti. Chunki ba'zi davlat amaldorlarining ko'zini pul ko'r qilib qo'ygan. Shuning uchun ular o'zlarining tubanlashib borayotganini, davlatning rivojlanishiga to'siq bo'layotganini ko'rmayapti. Mana buni haqiqiy fojia demasdan iloj yo'q. Yana bir tasvir «oxiri hammomga yalang'och kiradi», ya'ni qonun oldida javob beradi va o'z jazosini oladi.

Ko'ryapsizmi, korrupsiya insonlarni insoniylikdan yiroq qilib, faqat o'z manfaatlarini o'ylovchi xudbin kimsaga aylantirib qo'ymoqda. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Aristotel: «Hokimiyatga pul bilan erishgan odam undan daromad olishga intiladi», degan edi. Endi o'ylab ko'raylik, hokimiyatdan daromad olishga intilgan odam har narsaga qodir emasmi? Masalan, oliy o'quv yurtlariga kirish uchun pora bergan inson bilimi yo'q bo'lsa ham, oliy o'quv yurtiga kiradi. Ular bitiradi ham deydik, o'qimasa, o'ziga dersiz. Aslo yo'q, axir, u kelajakda biz kabi yosh avlodga ta'lim berish uchun maktabga kelmaydimi? O'tkir Hoshimov ta'biri bilan aytganda «Aql bilan mansabga erishish mumkin, lekin mansab bilan aqlga erishib bo'lmaydi».

Hozirgi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar olib borilmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 2-fevraldagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qaroriga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi. Mamlakatimizda bu qabih illatga qarshi shuncha chora-tadbirlar ko'rilayotgan ekan, biz ham bu yovuz illatni yo'q qilish uchun o'z hissamizni qo'shaylik. O'z ildizimizga o'zimiz bolta urmaylik, aziz vatandoshlar.

Maftuna UMAROVA,
Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim
maktabining 10-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA JAMIYATNI YEMIRADI

Korrupsiya haqida so'z yuritar ekanmiz, bu so'zning lug'aviy ma'nosi barchamizni birdek o'ylantirsa, ajab emas, albatta. «Korrupsiya» atamasi lotinchadan olingan bo'lib, «corrumpo» – «poraga sotilish», «aynish» degan ma'nolarni anglatadi. Korrupsiya nafaqat hozir, balki tarixdanoq rivojlanib kelgan.

Korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini endi keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, tamagirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarur. Bugungi kunda har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi. Negaki, bugun bu illatni birgina yo'l bilan yo'q qilish umuman mumkin emas-da.

Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari, o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini ko'rsatadi. Ular bugun qilayotgan qing'irliklarimni hech kim bilmaydi, sezmaydi deb o'ylaydi. Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham ochiladi. Bugun bo'lmasa, ertaga bari-bir adolat qaror topadi. Darhaqiqat, har qanday vaziyatda ham halol odam hayotda g'olib bo'lib, baxtli-saodatli hayot kechiradi.

Korrupsiya va poraxo'rlik davlatni ich-ichidan yemirishini jahondagi ba'zi davlatlar misolida ko'rishimiz mumkin. Ayni shu masalada Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu illatlarni eng global muammolardan biri sifatida e'tirof etib, ularga qarshi kurashish masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurash targ'ibotini olib borish maqsadida ko'plab tashkilotlar tuzilgan.

Biz korrupsiyaga qarshimiz! Jahonda va respublikamizda korrupsiya illatiga qarshi kurash choralari keng olib borilmoqda. Biz korrupsiyasiz kelajak tarafdorimiz!



Mashhura SAMIYEVA,
Jizzax viloyati Mirzacho'l tumanidagi 5-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – SOTQINLIKDIR!

Dunyo keng va bepoyondir. Unda turfa xalq, millat vakillari istiqomat qiladi. Biroq ularning barchasi uchun ham umumiy bo'lgan bir yovuz illat borki, u poraxo'rlik, ya'ni korrupsiya-dir. Chindan ham, korrupsiya birgina inson emas, balki butun insoniyat uchun, dunyo hamjamiyati uchun eng dolzarb muammolardan biridir. Umuman olganda, «korrupsiya» so'zi lotincha so'z bo'lib, «aynish, pulga sotilish» degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, insonlarning o'z mansabi va mavqeyidan shaxsiy manfaatlar yo'lida, amal, mansab, boylik yoki pul ilinjida foydalanishi hamdir. O'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun boshqalar haq-huquqlarini poymol etib, o'z manfaatlarini o'zgalar manfaatlaridan ustun qo'yadigan nopok insonlarga korrupsion harakatlarni amalga oshiradi.

Shu o'rinda aytish joizki, korrupsiya davlat yaxlitligiga, xalq birdamligiga tahdid soluvchi omildir. Negaki, korrupsiya ko'p hollarda mansabdor shaxslar, ya'ni davlat mansabidagi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston jahonda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yuqori o'rinlarda turadi. Shunga qaramasdan, jamiyatimiz hayotidan poraxo'rlikni butkul bartaraf etolganimizcha yo'q hali. Ayniqsa, sog'liqni saqlash, ta'lim, bank tizimlarida, bojxona kabi davlat tashkilotlarida korrupsiyaning alomatlari sezilmoqda. Agar ular to'xtatilmasa, bora-bora xalqda davlatga, davlat tashkilotlariga bo'lgan ishonchsizlik tuyg'usi oshadi, natijada xalq va davlat yaxlitligi, birdamligiga putur yetib, ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yo'qoladi.

Bunday holatlar, jumladan, aynan poraxo'rlik kecha yoki bugun paydo bo'lgan illat emas. Aksincha, u insoniyat tarixida qadimdan, ming yillar avval paydo bo'lgan. Tarix zarvaraqlari guvohlik berishicha, eramizdan ikki yarim ming yillar avval Shumer davlati podshosi Uruinim xalq hayotida avj olgan poraxo'rlikni taqiqlab, korrupsiyaga yo'l qo'yganlarni og'ir jazolarga mahkum etgan ekan.

Shu bois ham yurtimizda poraxo'rlikka qarshi ko'plab sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Korrupsiya jamiyatni o'z iskanjasiga oladigan, zulmat qa'riga yetaklaydigan dahshatli bir illatdir. Uning jamiyat hayotida salbiy ta'siri kuchli bo'lib, xalqning yakdilligiga, mamlakat iqtisodiyotiga, investitsiyalar muhitiga, ayniqsa, fuqarolik jamiyati taraqqiyotiga putur yetkazib, bu yo'lda asosiy to'siq bo'ldi. Shuning uchun O'zbekiston 2008-yil iyul oyida BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasiga a'zo bo'ldi.

Har tomonlama rivojlanib, taraqqiyot yo'lida ildam harakat qilib borayotgan yangi O'zbekiston jamiyatimiz hayotida ham tubdan o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2017-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham aynan korrupsiyani bartaraf etish masalasiga e'tibor qaratilib, korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus organi tashkil etilishi haqida fikr bildirildi. Unga ko'ra, Adliya vazirligi va Bosh prokuratura tomonidan BMTning Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda «jamoatchilik nazorati» tuzilib, bu tuzilmaning maqsad va vazifalari belgilab berildi.

Jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash bosh va ustuvor vazifalardan biri bo'lib, unga tahdid solayotgan omillardan biri korrupsiya ekan, albatta, o'z-o'zidan korrupsiyaga qarshi kurashish davr talabi bo'lmoqda. Shunday ekan, barchamiz halollik, to'g'rilik kabi chin insoniy fazilatlar ila umrimizni bezab, poraxo'rlikni o'zimizdan uzoqlashtirib, korrupsiyaga qarshi barchamiz bir tan-u bir jon bo'lib kurashaylik!

Zarifaxon ABDUQAYUMOVA,
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 8-umumiyy
o'rta ta'lim maktabining 6-«R» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA YOSHLAR NIGOHIDA

Bog'ga o'tqazilgan yangi niholga hech kim e'tibor qilmasa, uni parvarishlamasa, beso'naqay shoxlari har tomonga tarvaqaylagan daraxt bo'lgani kabi murg'ak go'dak ham yoshligidan mehr bilan tarbiya qilinmasa, unga tik yurish, ilm, odob o'rgatilmasa, ulg'aygani sari turli xil illatlarga oshno bo'lib qolishi mumkin.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli illat katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Bu illatni bartaraf etish bo'yicha dunyo mamlakatlari tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha bu illat yakun topmayapti. Ayrim kimsalar baland mansabga erishish uchun korrupsiyaga qo'l urishadi.

Nima uchun odamzod o'z manfaati, nafari yo'lida hech narsadan qaytmaydi? Pora olgan yoki bergan, tamagirlik qilgan shaxs uchun iymon, vijdon, insoniylik degan tuyg'ular bo'lmaydimi? Axir, bu dunyoning barcha go'zalliklari mehr-u muhabbat bilan sug'oriladi-ku!

Gap shundaki, bunday tuban kishilarning ma'naviyati sust, dunyoqarashi sayoz bo'ladi. Bolaligidan ilmga loqaydlik, komillikka bee'tiborlik bilan voyaga yetgan bo'ladi. Shunday oilada o'sgan o'g'il-qizlar ertaga bundan batar ochofat va poraxo'r bo'lib o'sadi va bir kuni, albatta, qopqonga tushib, umri panjara ortida o'tadi. Shu haqiqatni barchamiz yaxshi bilib olishimiz kerak.

Hech bir inson poraxo'rlikni o'ziga kasb qilib, maqsadiga yeta olgan emas. Chunki korrupsiya va poraxo'rlikning ko'chasi tor va qisqa bo'ladi. Bu yo'lga kirib qolgan inson tobora qorong'ilik domiga giriftor bo'ladi. Bir kuni panjara ortida afsus-nadomat chekib o'tiradi. Zero, jinoyatga jazo muqarrar!

Odamlarning korrupsiya girdobiga ilinib qolishiga, avvalo, ilm-u ziyo, ma'rifat tushunchalarining tub mohiyatini anglamayotgani sabab bo'lmoqda, menimcha. Chunki ilm – sahroda suv, hayot yo'llarida – tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, odamlar orasida – zeb-u ziynat, illatlarga qarshi kurashda beqiyos kuchdir. U orqali barcha ezgu maqsad va manzillarga yetish, yuksak cho'qqilarni egallash mumkin. Ayniqsa, bugun bizning imkoniyatlarimiz cheksiz. Ammo Yurtboshimizning yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlaridan oqilona foydalanmayotganlar, jaholat botqog'i tomon odimlayotganlar ham topiladi. Ularning orasida yosh avlodning borligi achinarli hol.

Men ham ozod o'lkaning hur qiziman, yoshlaridan biriman. O'z tengqurlarimga qarata, baralla ovoz bilan shuni aytamanki, aziz tengdoshlarim, bugun ilm olaylik, kitob o'qiylik, dong'i dunyoni tutgan bobolarimizning ma'naviy meroslarini o'rganib, millatimizni, Vatanimizni korrupsiya balosidan qutqaraylik.

Mohitobon SALOHIDDINOVA,
Namangan viloyati Chust tumanidagi 3-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYASIZ KELAJAK SARI

Avvallari ko'p ham e'tibor bermagan ekanman, yo ruhan ulg'ayish bosqichiga endi qadam qo'yayapmanmi, yo hali ham g'o'rmanmi, har holda, men uchun ko'p narsa o'zgaryapti. Yo'q, olam emas, men o'zgaryapman. Onam: «Ulg'ayib qolibsan», dedilar, yaxshi ma'noda qabul qildim. Korrupsiya haqida insho yozayotib, atrofga qarasam, korrupsiya pana-pastqamda, bitta-yarimta uchrab qolar, ko'ringanlarining ham oqibati u qadar ko'ngilsiz emas edi...

Bugun men zimmamda muhim topshiriq – o'z so'zimni ayta olish mas'uliyati turganini his qilaman. Fikrlarim, ehtimol, arzimasa, bolalarcha bo'lishi mumkin, ammo ularni kimdir tinglayotgani men uchun muhim.

To'g'ri, hali yoshman, ammo qarashlarim ijtimoiy muhitda shakllanishini bilaman, o'sishni istayman, Vatan koriga yarasam deyman.

Men «mustaqillik», «adolat», «kelajak», «xalq» so'zlari oliy bo'lishi, mamlakatimiz o'zini ulug' bilishi, jahonda viqor ila turishini orzu qilaman.

Olamni taniganim sayin hayratim ortmoqda. Sayyoralarining orbitadagi bexato harakati, gravitatsiya, Oy-Quyosh – barchasida benuqson hisob-kitob bor. Eng mayda hasharotgacha o'z missiyasi, yaralish sababi genida dasturlangan. Borliq ulkan mexanizm, maxluqot uning qismlari. Bittagina muruvvat o'z funksiyasini bajarmasa, mexanizm izdan chiqishi mumkin. Bu oddiy fizik qonuniyatda izohlanadi: butunning taqdiri zarralarning harakatida.

Besh yashar jiyanim bor. Ismi Aziza. Meni ko'rsa, tamom, «qurut mashmasha»sini boshlaydi, topib bermasang, qutulib bo'psan (vodiya «chuppi» ham qurut, «kango» ham qurut. Xullas, ashaddiy qurutxo'rlar shu yerda yashaydi).

Kecha maktabdan kelsam, tag'in osildi:

– Qurut!

Ikki cho'ntagiga ikkitadan soldim:

– Bunisi senga, bunisi ukangga. Xo'pmi?

Aziza javob bermay, boshini liqillatdi. Shunaqa chaq-qonlik bilan ketma-ket uchta qurutni og'ziga solib qochdi. Hah, mitti yulg'ich. Halitdan bunaqa qiliq.

Menga ermak topildi: tushuntirish ishlari olib boryapman.

Ba'zida o'ylab qolaman: odam yaralgandayoq, uning qo'niga tamagirlik moddasi qo'shilib qolganmikan? Aziza-ku go'dak, ammo kattalar-chi? Ularni qaysi mezon oqlaydi?! Sofdil kishilar ham bexijolat shu botqoqqa botayotgani bor gap-ku. Korrupsiya «to'g'ri tushuniladigan» jamiyatga aylandikmi? Jirkanmay qo'ydikmi?

Nazarimda, ayrim kishilar adolatsizlik, poraxo'rlikni oqlashayotgandek tuyulaveradi. «Iloji bordir. Bir nima qiling, bizda ham qolib ketmaydi. Xarajatiga turib beraman. Qancha bo'ladi? Qalovini topsangiz, qor ham yog'adi, aka». Men yoshman. Lekin korrupsiyaning qanday balo ekanini anglashga aqlim yetarli. O'zimdan misol. Turli bellashuvlar, onlayn tanlov, so'rovnomalar... Bari shaffof o'tishiga ishonasizmi?

Tasavvur qiling, «Telegram»ning qaysidir guruhida tanlov e'lon qilindi. Ishtirok etasiz. G'olibni aniqlash usuli an-tiq: to'plangan layklar soniga qarab. G'alati tuyulmayapti-mi sizga, adolat qani, ovoz to'plash sun'iy, baholanish nisbiy emasmi?!

Bugun O'zbekiston katta yo'lda, ijobiy o'zgarishlar ko'p, hukumatning maqsadi buyuk. Ammo to'g'onoqlar ham son

mingta. Loqaydlik, xudbinlik, «o'zim bo'lay»lar, mudroqlar, uyqudagilar. Eng rasvolari – mansabidan pastkashlarcha foydalanib, yurtimiz rivojiga raxna solayotgan yulg'ichlar. Ular hamma sohada ham topiladi. Undaylarga qolsa, bog'chaga, maktabga bolangni joylash – pul, ishga kirish – pul. Ayrim shifokorlar bemorga tuzuk qaramaydi – cho'ntagiga ul-bul solmasang. Bir qiz esimdan chiqmaydi, o'tgan yili «UZI» navbatida ko'rgandim. Men onam bilan, uning yonida ota-onasi. Kattalarning suhbatidan bildimki, u ikki haftagina oldin soppa-sog' bo'lgan, endi esa yurak yetishmovchiligidan ko'z osti, lablarigacha ko'karib ketibdi. Noto'g'ri tashxis, xato muolaja oqibati. O'pka, yurak suv ol-guncha, tuzuk tekshirmay, tomiridan suyuqlik dori quyave-rishibdi, natijada yuragi kengayib ketgan. Bir dardi qolib – ikkinchisi. Dahshat-a? O'sha shifokor haqqoniy o'qiganiga, yetarli bilim olganiga ishonasizmi?! Ehtimol, u egri-bugri so'qmoq orqali o'qishga kirgan, tag'in shu usul bilan bitirib, ishga joylashgandir. Hayronman, u kabilar attestatsiyani qandoq eplashadi?..

«UZI»-chi? «Yo'lga yaramaydi, Toshkentga obormang-lar», deganini eshitganimda, ko'nglimning allaqayeri chirt uzildi... Uni – o'sha qizni keyin so'rab-surishtirmadim. O'zimni ayadimmi, uning sog'ayib ketganiga ishongim keldimi... Hammasi chalkashib ketdi. Ammo harsillab nafas olayotgan qizning surati yuragimga bir umrga chizilib qoldi.

Shifokorlik – sharaflı kasb. Bu kasbni adashib tanlab bo'l-maydi. Bemor hayotidan o'z jig'ildonini ustun qo'yganelarni, «dorifurushga sherik» shifokorlarni eshitsam, titrab ketaman. Shu kabi voqealar ta'sir etdimi yo odamlarga shifo ulashish istagi ustunlik qildimi, bilmayman, kelajakda mohir, yetuk shifokor bo'lmoqchiman, o'z kasbining nodir va halol egasi. Xudo xohlasa, avvalo, inson bo'laman. Ilohim, yetkazsin.

Aslida, hayot zanjirining halqalari uzviy bog'langan. Bir halqadagi muammo ikkinchisiga ta'sir etmay qo'ymaydi.

Xullas, yo adolatdan, yo korrupsiyadan voz kechish kerak! Ikki qarama-qarshi yo'lga bir paytda yurib bo'lmaydi. Bu hayot zanjirida o'zimizni saqlab qolishning birgina yo'li bor: korrupsiya va uni yuzaga chiqarayotgan illatlarga qarshi kurashish, adolat tarozisini mahkam tutish. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida O'gdulmish shunday deydi:

*Yonar o't misol zulm, yoqar, kuydirar,
Adolat suv erur – ne'mat undirar...*

Bir narsadan quvonaman: hukumatimiz bugun adolat bayrog'ini baland ko'targan, muhimi – shu. To'g'rilik va adolatga tayanuvchi davlat buzilmaydi. Sohibqiron Amir Temur bobomiz aytganidek: «Kuch – adolatda!»

Xayriyat, korrupsiya orqali uzoqqa borib bo'lmasligini ko'pchilik angelayпти, mamlakat yakdillik bilan bu «ajdarho»ga urush ochgan. Menimcha, avvalambor, korrupsiya yuzaga keladigan qulay sharoitni bloklash, sabablarni bartaraf qilish, kuchli jazo choralari qo'llash lozim. Yana bir gap, yuqori va quyi bo'g'in amaldorlarining daromadi bozor bilan mutanosib bo'lgandagina u o'z «qilig'»idan kechishi mumkin. Korrupsiya bilan xalqaro hamjamiyat azaldan kurashadi. Ijobiy natijaga erishgan Daniya, Norvegiya, Shveytsariya kabi davlatlar tajribasidan foydalanish, mentalitet hamda sharoitimizda o'zini oqlay oladigan usullarni olishimiz mumkin. Ayniqsa, Singapur tajribasi katta maktab. Ijtimoiy roliklar, volontyor yoshlar harakatlari, kino va teatr, OAVda korrupsiya oqibatlarini ko'rsatish, tushuntirish orqali jamiyatga ta'sir etib, yordamga kelsa, sekin-asta o'zgaradi, menimcha. Lekin tushunish kerakki, jarima, jazo, qamoq korrupsiyadan yuz foiz qutqara olmaydi. Xalq ongi o'zgarmas, bu baloga qarshi kurashmas ekan, korrupsiya tushov kabi ortga tortaveradi.

Yoshlarning bir vakili sifatida aytar so'zim: hammamiz birlashsak, korrupsiya quriy boshlaydi, undan qutuladigan kunga yetib boramiz. Bunga ishonaman. Men shu yo'lni tanladim. Yonimda maslakdosh do'stlarim ko'p. Ulg'ayamiz, jamiyatning har bir bo'g'inida biz bo'lamiz hali. Xudo xohlasa, o'zimiz orzu qilgandek yashaymiz, ishlaymiz, farzandlarini voyaga yetkazamiz. U jamiyatda yulg'ich, muttahaam, tamagirlarga o'rin yo'q.

Qarshimdan chiqqan nopoklikka, bu botqoqqa meni tortmoqchi bo'lganlar uchrab qolsa, aytar so'zim bitta: «Yo'q!» Siz ham bu yo'lda biz bilanmisiz, aziz tengdoshim?



Saida ABDURAHMONOVA,
Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi 13-DIMIning
7-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – XATAR!

Bizning hayotimizga ko'rk qo'shadigan fazilatlardan biri adolat bo'lsa, jamiyat obro'-nufuziga putur yetkazadigan, uni taraqqiyotdan chetlashtiradigan illat adolatsizlikdir. Yer yuzi yaratilganidan buyon bu ikki murosasiz kuch – adolat va adolatsizlik borliq va tabiat kuchlari ustidan hukmronlik qilib keladi. Tengsiz aql, zabon, yuksak imkoniyatlar ato etilgan insonlarning adolatsizligi nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham xatarlidir. Qanday ko'rinishda bo'lmasin, paydo bo'ladigan bunday adolatsizliklar odamlarning haqli e'tirozlarini, noroziliklarini keltirib chiqaradi. Bugun esa qora jinoyatlarni o'z soyasiga yashirayotgan, minglab yovuzliklarga homiylik qilayotgan korrupsiya ham chirkin adolatsizlikdir. Shu ma'noda aytish mumkinki, korrupsiya jamiyat ravnaqiga g'ov bo'luvchi, insoniyat yo'lini yuksalishdan adashtiruvchi qusurlardan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari bilan qiziqqanimda, shu narsani bilib oldimki, qonunchilik tizimida shafoflikning yo'qligi, davlat idoralari ishidagi yopiqlik, davlat xizmatchilarining past oylik maoshi bu illatning avj olishiga sabab bo'lar ekan. Hamma davrlarda ham ba'zi odamlar o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab, oson boyish istagida ko'r-ko'rona bu jinoiy ishga qo'l urganlar. Aslida, korrupsiya yoki oddiygina qilib aytganda, tamagirlik, poraxo'rlik bugun paydo bo'lgan illat emas. U qadimdan buyon mavjud bo'lib kelmoqda. Adabiyot fanidan olgan saboqlarimga tayanib

aytishim mumkinki, o'tmishda yashab faoliyat ko'rsatgan ayrim amaldorlar tomonidan ham poraxo'rlik, tamagirlik illati sodir etilgan. Masalan, Muqimiyning «Tanobchilar» satirasida Sulton Alixo'ja va Hakimjon ismli amaldorlarning kirdikorlari fosh etilgan. Shuningdek, hassos ijodkor, hikoya ustasi Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ellikboshi, mingboshi, amin kabi mansabdorlarning tamagirligi, o'z mansab vazifasini suiiste'mol qilishi og'ir hayotni yanada achinarli ahvolga tushirganiga guvoh bo'lamiz.

Oллоh bergan ne'matlarga shukr qilmay, nafsimizning quliga aylanishimiz, o'zimizning rizqimiz qolib, o'zgalarining nasibasiga ham qo'l uzatishimiz bugungi kunda avj olib borayotgan korrupsiya o'chog'iga o't qalaydi. Shu o'rinda buyuk mutafakkir Mahmud Zamaxshariyning «Pora faqat nohaqlig-u zolimlarga yordam beruvchidir» degan fikrlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq. Qadimgi yunon donishmandi Arastuning «Har qanday davlat tizimida qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarning noqonuniy yo'l bilan boyishiga yo'l qo'ymaslik lozim» degan mulohazalari esa ayni haqiqat edi. Yusuf Xos Hojib ham pora haqidagi o'z fikrlarini quyidagicha bayon etgan: «Pora o'nglanib ketgan ishlarni buzadi, bitayotgan ishlarni barbod qiladi». Fransuz mutafakkiri Sharl Monteske ham bu borada shunday yozadi: «Asrlar tajribasidan ma'lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan shaxs uni suiiste'mol qilishga moyil bo'ladi va ma'lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo'nalishda yuradi».

Korrupsiyaning kelib chiqish tarixi, rivojlanishi masalalarini Nikkolo Makiavelli o'rganib, uni yo'talga qiyoslab, shunday degan edi: «Korrupsiyani ham yo'talga o'xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o'tkazib yuborsangiz, uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin». Mana shu so'zlardagi haqiqatni bugungi kunda dunyo

bo'yicha keng tarqalgan korrupsiya ko'rinishlariga nisbatan ham qo'llash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida korrupsiyaning turli shakllariga qarshi yo'naltirilgan me'yorlar belgilangan. Pora olish va berish, hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishga milliy qonunchiligimizda javobgarlik belgilab qo'yilgan. Chunki korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi, fuqarolarning hokimiyatga nisbatan ishonchini yo'qotadi. Xalqaro valyuta jamg'ar-masining hisob-kitoblariga ko'ra, korrupsiya tufayli jahon iqtisodiyoti yiliga o'rtacha 1,5-2 trillion dollar zarar ko'radi. Albatta, uning ichida mamlakatimiz iqtisodiyoti ko'radigan zarar ham mavjud. Bu illatning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida dunyo miqyosida qabul qilingan xalqaro huquqiy manbalarga quyidagilarni kiritish mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarori bilan qabul qilingan Konvensiya, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida shunday yozib qo'yilgan: «Shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish taqiqlanadi».

Jahon hamjamiyati ham bugungi kunda poraxo'rlikning avj olishi va rivojlanishiga jim qarab turgani yo'q. Jumladan, 2004-yili Nyu-Yorkda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddimasida korrupsiya jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat ekanligi hamda u demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazishi, inson huquqlari buzilishiga olib kelishi, bozorlar

faoliyatiga to'sqinlik qilishi, hayot sifatini yomonlashtirishi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib gullashi uchun sharoit yaratib berishi ta'kidlanadi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, korrupsiya nafaqat bugungi kunimizga, balki kelajak avlod haqli bo'lgan yorug' kelajakka ham tumanli parda soladi. Yosh avlodning bir vakili sifatida aytishim mumkinki, shaxdam qadamlar bilan kelajak sari odimlab ketayotgan Vatanimizning nurafshon yo'llarini poraxo'rlik degan g'ovlardan tozalash biz yoshlarning eng buyuk maqsadimizdir. Bizlar qo'limizga qonun va adolat mayog'ini olib, o'tmishning qabohatga burkangan, korrupsiyaga guvohlik bergan lahzalarini yo'q qilamiz va bu jinoyatlarning soyasi kelajak uchun ko'lanka solmasligiga intilamiz. Muxtasar qilib aytganda, biz maqsadlari ulkan yoshlarmiz, korrupsiyasiz kelajak tarafdorimiz!



Dilshoda HAMIDJONOVA,
Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi 13-umumi
o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA MAMLAKATNING RIVOJIGA QO'YILGAN TO'G'ONDIR

Vatan haqida o'y surilganda uni azim daraxtga qiyos etadilar. Ulkan shoxlarni birlashtirib turgan tana – bu xalq otasi. Shoxlar katta-kichikligiga qarab shahar va tumanlar bo'lsa, yaproqlari oilalardir. Daraxt ildizlari esa bizni ko'tarib turgan ko'rinmas kuch – hokimiyat. Ha, aslida bizning ko'kka bo'y cho'zib rivojlanishimizda tuproq ostidagilarning xizmati katta. Ular nimani topishmasin, yurt farovonligi va obodligi yo'lida sarflashadi. Ming afsuski, bu «ildizlar»ni yemiruvchi «qurtlar» ham topilib turadi. O'sha «qurtlar»dan biri – korrupsiya, xalq tilida aytganda poraxo'rlikdir. Qurt ildizni boshqa daraxt a'zolaridan ayirib, yakka-latib qo'yganidek, korrupsiya ham xalq va hokimiyatni ajratib yuborish payida bo'ladi. Shu bois poraxo'rlik bir paydo bo'lganda uning ko'payish davri boshlangunga qadar tezroq qutulish lozim. Zero, u tinim bilmaydi, yer ostida yurib, qabih niyatini amalga oshirish uchun «mo'rt ildiz» izlaydi.

Korrupsiya mamlakatning rivojiga qo'yilgan to'g'ondir. U taraqqiyot daryosi suvlarini to'sib qo'yadi, u tomonga, ya'ni yangi manzillar, yangi marralar makoniga o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Natijada davlat tubsiz jarlikka tomon yuz tutadi. Bunday paytda to'g'onni chetlab, to'g'ri yo'ldan og'ishish emas, balki uni parchalab, olg'a qadam bosish kerak. Buning uchun yanada ko'proq «suv» – bilim, malaka, ko'nikma, tajriba lozim. O'tmishimiz shonli, shavkatli. Uning sahifala-

riga nazar solib tajriba topamiz. Dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan ilm-fan yutuqlarini o'rganamiz. Demak, bizdan ozgina harakat va xohish talab etilmoqda, xolos.

Bu ishni yorqin kelajak uchun bugunoq qilsa, arziydi. Chunki bu xavfli to'g'on olib tashlanmas ekan, kelajak qora tumanlar orasida qolib ketaveradi.

Inson uchun halol yashash va halol rizq topishdan o'zga baxt yo'q. Zero, haqiqiy baraka, tinchlik-xotirjamlik va shodlik ham halollikda. Iymoni bor inson har doim to'g'ri va halol yashaydi, shu bois ishida unum, yuzida tabassum bo'ladi. Iymonsiz inson esa, aksincha, na yeganida, na ichganida halovat topadi. Chunki iymon barcha fazilatlar boshi. Afsuski, hozirda iymonini qalqondek tutganlar barmoq bilan sanarli. Abdulla Oripov bu haqda shunday yozadi:

*Iymonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi.*

Agar ehtiyot bo'lmasak, kelajak avlod shunday bebaho xazinadan bebahra qolishi mumkin. Shuning uchun ikki dunyo kaliti yer yuzidan o'chmay turib uni o'zimizdan keyingi avlodlarga ham yetkazishimiz darkor. Buning uchun ularga iymon darslarini o'tish, iymonni asrash – bu dunyo va oxiratni asrash ekanligini tushuntirishdan erinmaslik lozim. Zero, iymoni mustahkam inson pora kabi irkit narsani ushlashdan har doim hazar qiladi.

«Poraxo'rlik xushbo'y hidli, shirin ta'mli zaharga o'xshaydi. Maza qilib ichasan, lekin qanday qilib seni tubsizlik jariga itarganini sezmay qolasan», degan edi Abdulla Qahhor. Darhaqiqat, korrupsiya – shirin sharob. Qancha ichsang ham, chanqog'ingni qondirmaydi, aksincha, xumori tutaveradi. Abdulla Qahhor poraxo'rlik, uning turli

nayranglari fosh etilgan «Tobutdan tovush» komediyasini yozgan. Unda militsiya kapitani Navro'zov poraxo'rlar haqida shunday deydi: «Bitta go'l poraxo'rni tutishdan ko'ra 20 ta uchar o'g'rini tutish osonroq». Aslida ham shunday. O'g'ri tunda pisib kelib cho'ntagingizga qo'l soladi, poraxo'r esa kuppa-kunduzi, yana davlat kursisiga o'tirib olib, pulingizni shiladi. Asardagi Obidjonning quyidagi gaplari poraxo'rlarning chizilgan suratiga o'xshaydi: «Hozir tirikmisiz? Tirik bo'lsangiz, shuncha yildan beri jon asorati ko'rinmasmidi? Yo'q, siz eringiz bilan birga allaqachonlar o'lgansizlar, eltib ko'mish qolgan, xolos! Sizning bu gaplaringiz tobutdan chiqqan tovushga o'xshaydi. Gapirmang, odamning eti jimirlaydi».

Har bir uyning qurilishi, albatta, poydevordan boshlanadi, chunki poydevori mustahkam uyda nuqson bo'lishi mumkin emas. Yurt kelajagi, poydevori yoshlardir. Ma'naviyati butun, iymoni mustahkam, bilimi to'kis yoshlari bor yurt ertasiga hech qanday korrupsiya xavf sola olmaydi. Negaki, uning bunday dushmanni yengishga qodir quroli – tarbiyali yoshlari bor. Iymon darslarini yod olgan yoshlar halol va haromning farqini tushunadi. Ma'naviyat bulog'idan suv ichgan avlod sahrodagi sarob va korrupsiya bir narsa ekanligidan xabardor bo'ladi. Shu bois poraxo'rlikni yengmoqchi bo'lgan mamlakat, avvalo, kelajak umidlarini korrupsiyaga nafrat, uning ayanchli oqibatlarini anglash ruhida tarbiyalaydi. Zero, ma'naviyatli yoshlarga orzudagi mukammal olamni yarata olishadi.

Mumtozbegim OBIDOVA,
Namangan viloyati Pop tumanidagi 11-DIMlning
9-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – XAVF MANBAYI!

Til – nutq ko'rki. So'z – fikrlar libosi. Shularni inobatga olgan holda korrupsiya haqida fikrlarimni bayon etaman. «Korrupsiya o'zi nima? Uni kimlar amalga oshiradi? Korrupsiya qanday vujudga keladi?» degan muammoli savollar jamiyatimizda uchrab turadi. Ommaviy axborot vositalari orqali korrupsiya bilan bog'liq sodir etilgan ko'plab jinoyatlarni ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, korrupsiya o'zi nima? Uning asl mohiyati, uni harakatlantiruvchilar kimlar? Korrupsiya so'zi lotincha so'z bo'lib, «buzish», «aynish» degan ma'nolarni bildiradi. Biror mansabdor shaxsning qonunchilikka va axloqqa zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlaridan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishidir. Korrupsiyaning keng tarqalgan turlariga poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik kabilar kiradi. Bunday jinoyatlarning ko'plab sodir etilishi iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, siyosiy boshqaruvni izdan chiqarishi va fuqarolarning davlat tizimi va siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkin. Korrupsiyaviy jinoyatchilik ildiz otib, miqdori kun sayin ortib bormoqda. Eng xatarlisi esa odamlarning bu holatga befarqligi, unga oddiy holat sifatida munosabatda bo'lishidir. Chuqurroq o'ylab qarasak, korrupsiya va unga bog'liq jinoyatchilik davlatlarning bugungi iqtisodiy va siyosiy vaziyatida taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi asosiy xavf manbayi, xavfsizlikka tahdid hisoblanadi.

Korrupsiyadan ko'rilayotgan zararining ko'lami cheksiz. Mamlakatimiz kelajagi va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har qanday vijdonli fuqaro bu tahdiddan boxabar bo'lishi va hamisha yodda tutmog'i darkor. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuch g'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to'la-to'kis foydalanishini orzu qiladigan har bir fuqaro korrupsiya yo'liga zarur to'siq qo'yilmasa, qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab yetmog'i lozim. Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi kerak bo'lgan global muammolardan biridir. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan. Biz korrupsiya balosiga qarshi birgalikda, ahillik ila dadil qadamlar bilan kurashmog'imiz zarur. Shundagina bu soya solayotgan xavfga chek qo'ya olishimiz mumkin.

Korrupsiya – chegara bilmas «ajdaho». Darhaqiqat, u kirib bormagan, ildiz otmagan biror-bir jarayon, soha va hodisa bo'lmasa kerak. Ta'lim sohasi deysizmi, davlat organlari, jamoat ishlari, bozor iqtisodiyoti deysizmi, barcha-barchasini korrupsiyasiz tasavvur etish qiyin. Hatto bola tarbiyasida ham korrupsiyaning ilk ko'rinishlari kuzatiladi. Deylik, biror bola yoki qizaloq nimanidir qattiq turib talab qilib, yig'lamoqda. Ota-onalar ko'p hollarda bu muammoni tezlikda hal qilishga o'tadilar. Ya'ni yig'layotgan bolaga pul, shirinlik yoki bugunning eng yomon odatlaridan biri bo'lgan telefon apparatini tutadilar. Bu hol bolaning ruhiy-tarbiyaviy holatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Keyingi gal bola yana nimanidir bahona qilib pul, shirinlik yoki telefonga ega chiqish uchun istagan tantiqligini qiladi. Bora-bora bu holat bolada illatni shakllantiradi. Ana shu illatni bugungi kunda avj olayotgan korrupsiya deb aytsak bo'laveradi. Buning

oldini olish uchun, avvalo, ota-onada hafsala, bolalar bilan til topishish madaniyati, yuksak ma'naviyat bo'lishi kerak.

Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida «Fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'onoq bo'ladigan muammolardan biri – korrupsiyadir», deb qayd etgan. Bozor iqtisodiyoti kushandasi, davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik, biznes hamda investitsiya rivojida shafqatsiz to'siq ham ayni shu korrupsiya hisoblanadi. Har yili o'nlab korxonalarining ochilishi va yopilishi zahirida ana shu «ko'rinmas qo'llar» yotadi. Korrupsiya darajasi yuqorilashgan davlatga chet el investitsiyasini kiritish kamayib borayotganining asl sabablarini ham shu xavfli illatdan izlash lozimga o'xshaydi. Oldin G'arb, keyinroq Osiyo davlatlarida bu masala chuqurlashib, jamiyatda «kasallik» hududi va ko'lami, darajasi kuchayib borayotgan ekan, nima qilmoq kerak, degan savol paydo bo'ladi. Nima qilsa, dunyoni egallab, mamlakatlar iqtisodiyotiga raxna solayotgan bunday balo-qazoning ta'sir doirasi kamayadi?! Korrupsiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlari kundalik faoliyatiga aylanib, o'zaro bir-biriga bog'lanib, chirmashib ketganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Ushbu masalada davlatning huquq-tartibot ishlarida birmuncha hushyor, ziyrak bo'lishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi, faolroq ishlashi haqida tadqiqotchilar anchadan beri yozib keladi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiyalar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishi lozim.

Korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini endi keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash toza vijdonli, oriyatli ziyolilarning qalb amriga aylanmog'i

lozim. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmaydi. Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir jamiyat va davlat korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko'zda tutilgani, bu borada har bir masalaga e'tibor qaratilgani bejiz emas. Korrupsiya so'zi «sotish» va «sotilish» degan ma'nolarni ham anglatganidek, korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga non-tuz berib katta qilgan, ilm-u hunar, obro' va mansab bergan el-yurtining yuziga oyoq qo'yadi. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan qutqarish sharaflı burchimiz ekanligini hamma birdek tushunmog'i shart. Aks holda, o'ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo'rlik va tamagirlikdan o'zini tiya olmayotgan shaxslar jazoga tortilishi muqarrar!

Davlat jamiyatlardan, jamiyatlar esa oilalardan tashkil topgan. Agar korrupsiyaga qarshi kurashni va uning oldini olishni oiladan boshlasak, har bir oila bu masalaga mas'uliyat bilan yondashsa, jamiyatni hamda davlatni ushbu ofatdan xalos etish biroz bo'lsa-da, ijobiy tus olishi mumkin. Zero, oila ham kichik bir «davlat». Jamiyat esa ana shunday kichik «davlat»larning yig'indisidir. Agar ana shu «davlat»larda poraxo'rlik, tamagirlik, firibgarlik kabi korrupsiyaga xos xislatlarga nisbatan nafrat tuyg'usi shakllangan insonlar tarbiyalansa, qisqa muddat ichida bu ofatga barham bera olish mumkin. Oilada farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratiladi, biroq har doim ham biz tutgan yo'l ko'ngildagidek natija beravermaydi. Ba'zi yoshlarda ota-

onadan qo'rqish, tortinish kabi salbiy sifatlar shakllangan. Bu holatni quyidagi ikki misol bilan tushunarliroq tarzda bayon etishga harakat qilaman. Ikki oila. Ikkisi ham turfa olam. Va ikkisida ham turfa insonlar istiqomat qilishadi... Ana shu ikki oilada ikki holat yuz berdi. Birinchi oiladagi farzand maktabda qalamini yo'qotib qo'ydi. Uni tushirib qo'ydimi, kimdir oldimi, bilmaydi. Uyga keldi, dars tayyorlab o'tirgan chog'ida qalamini topolmadi. Topolmagach, onasidan yangi qalam olib berishni so'radi. Ona bundan achchiqlandi, farzandiga jahl qila boshladi va ertagayoq qalamini topib kelishni buyurdi. Bola ertasiga maktabga bordi va oyisidan qo'rqanligi sababli o'rtog'ining qalamini o'g'irlab olib keldi. Bir oiladagi ushbu holat ikkinchi oilaga ham ta'sirini o'tkazdi. Biroq bu oilada o'zgacha holat. Xuddi shu kuni yana bir bola onasiga: «Qalamimni yo'qotdim», deya arz qildi. Ona esa: «O'g'lim, qalamingni biror do'stingga bergansan va unutib qo'ygansan. Do'stingni ham esidan chiqqandir. Men senga boshqasini olib beraman, yo'qolganini esa do'stingga sovg'a qildim, deb hisobla», deb javob berdi. Yuqoridagi ikki holat ikki xil yakunga olib keldi, bolalardan biri qo'rquv sabab jinoyatga, biri esa yo'qotish sabab saxovatga qo'l urdi. Ana shunday ko'z ilg'amas jinoyatlar kishida jinoyatchilikka moyillikni keltirib chiqaradi va bora-bora bu jinoyatlar korrupsiyani shakllantiradi.

Bugungi kunda ota-onalardan farzandga e'tiborli bo'lish talab qilinayotgani ham bejiz emas. Chunki ogohlik – davr talabi. Qachonki ota-ona farzandi ta'lim-tarbiyasiga yoshligidan e'tibor qaratsa, o'zlari shaxsiy namuna bo'lsa, kelgusida illatlar bilan kurashish shunchalik oson va samarali bo'ladi.

Mana shu nurafshon Vatanimizda barcha insonlar jaholatdan yiroq bo'lib, ma'rifatli bo'lsinlar. Osmonimiz musaffo, har kungi otayotgan tongimiz munavvar, diyorimiz bundan-da go'zal, kelajagi esa yanada porloq bo'lsin! Ona yurtim, Senga ma'rifatli farzand bo'lish men uchun oliy baxtdir.

Shahzoda MAHAMMADMAMINOVA,
Namangan viloyati Chortoq tumanidagi 53-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

QORA DARAXT

(yoxud korrupsion illatning ildizi)

Men har doim korrupsiya haqida o'ylaganimda yoki korrupsiyaning biror noxush holati haqidagi xabarga duch kelganimda, beixtiyor insoniyat tarixidagi buyuk hikoyat yodimga tushaveradi. Ya'ni Odam (a.s.) jannatga kiritildi. Ammo unga jannatdagi mevani iste'mol qilish taqiqlandi. Biroq Odam o'z nafsining so'ziga kirib, taqiqlangan mevani tanovul qildi. Oqibatda jannatdan chiqarildi...

Taassufki, insoniyat tarixida necha ming odamlar jazoga tortilgan bo'lishiga qaramay, bu illat hali-hanuz davom etib kelmoqda. Shu jihatdan qaraganda, go'yo korrupsiya katta bir qora daraxtga o'xshaydi. Uning mevasini iste'mol qilish dunyodagi barcha davlat va jamiyatlarda qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilgan. Lekin... O'ylanib qolaman: korrupsiya nima? Bu so'zni kim, qanday tushunadi?

Fikrimcha, korrupsiya – oqni bila turib qora deyish yoki, aksincha, qoraning qoraligini anglab turgan holda oq, deyish demakdir. Boz ustiga, bunday noxolislik evaziga haq so'rash, sotish, sotilish – xoinlikdan bo'lak narsa emas.

Izlanishlarimga ko'ra, huquq ilmida korrupsiya – «Davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida, o'z xizmat mavqeyidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir», deyiladi. Xo'sh, korrupsiya qachon paydo bo'lgan? Bu nohalol illatning ildizi qaysi davrlarda tomir yoygan? Mutaxas-

sislar, hatto butun boshli institutlar va xalqaro tashkilotlar yuzlab tadqiqotlar o'tkazgan. Ayniqsa, korrupsiya borasida tuzilgan reytinglar, har xil ko'rsatkich va raqamlar, formulalar tuzilgan. Biroq hanuzgacha hech kim, hech bir davlatga va yo millatga asqatadigan yechim topgan emas. Shunga qaramasdan, hamma zamonlarda korrupsiyaga qarshi kurashilgan va bu kurash bardavomligi, barqarorligi yangi, samarali bosqichlarda davom ettirib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashning Prezident huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi shaklida tuzilganligi va bu jarayonga ko'plab jamoat tashkilotlari, siyosiy institutlar, OAV vakillari, jamoatchilik nazorati singari ijtimoiy tuzilmalar jalb etilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Shu jihatdan qaraganda, jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida rang-barang fikrlar mavjud. Jumladan, ayrim kishilar islom dini saboqlari jamiyatda korrupsiya oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi, degan fikrni ilgari surishadi. Lekin din masalasi hukumat darajasida juda katta mavqe va vakolatga ega bo'lgan tarixiy makon va zamonlarda ham korrupsiya illati mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Masalan, bu borada Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasi juda katta manba hisoblanadi: og'ilning devori teshilib, ho'kizini yo'qotgan Qobil boboning boshiga tushganlari, aminning kirdikorlari, poraxo'rliqi, tamagirliqi haqidagi chizgilar shundan darak beradi. Yoki Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidagi Zebi fojiasini olaylik. Razzoq so'figa yakka-yu yagona qizini Akbarali mingboshiga to'rtinchi xotin qilib berish voqealari korrupsion illatning tarixiy belgilarini yodga soladi. Yana bir misol: Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida shunday lavha bor:

«Qo'rboshi Homidning zakovatiga qoyil bo'lib iljaydi:

– Yo'q, yo'q, Mulla Homid, – dedi, – bu yoqda gap bor: hukumat xizmatida turganingdan keyin yuz yoqning mulo hazasini qilar ekansan...

– Tuzik, bek aka, ammo manim oshnachilig'im, tamom boshqachadir, – dedi Homid va yonchig'ini chiqarib, bir qo'lidan ikkinchi qo'lig'a oltinlarni sanab, tushira berdi. Qo'rboshining ko'zi oltinlar ustida o'ynab, bular barakasida qiladirg'an sunnat to'yisini, Marg'ilon beklari oldida ortiradirg'an obro'sini o'ylamoqda edi. Oltinlardan yigirmatasi ajratilgach, sanoqqa ishonmay ko'rib turg'ananim tushmi, deb uyqusiradi. Homid oltinlarni uzatdi, – mana, bek aka, bu arzimagan oltin xolis oshnalig'imizning bog'lanishidir, yana yetmagani bo'lsa qarab turmasmiz.

Qo'rboshi titrab, qaqshab oltinlarni joyladi».

Ko'rinib turibdiki, korrupsiya ilgarilar ham umumjamiyat, umummillat fojiasi sanalgan. Ayniqsa, o'tgan XIX va XX asrlarda bu illat O'zbekiston sharoitida paxtaning qaymog'i, paxtaning o'zi esa xalqimizning qoni bilan oziqlandi. To'g'ri, mustaqillik tufayli, paxta qisqardi. Ammo korrupsiya shifoxonalarda bemorlarning qonini ichishga o'tdi.

Eng yomoni, korrupsiya xuddi bir zulukdek oliy ta'lim muassasalari orasiga kirdi: chalasavodlar yetishtira boshladi. Oqibatda... favqulodda toza ilm olgan ayrim avlod o'z dunyosi (mamlakatimiz)ga sig'masdan chet ellarda muhojirga aylandi.

Xalq tilida soddagina qilib «poraxo'rlik», deya ataluvchi bu illat kimlarga daxl etmayapti? Binobarin, davlatimizning korrupsiyaga qarshi qaratilgan amaldagi qonunlari vositasida qo'llaniladigan jazo turlariga qattqlik tamoyilini singdirish shart, deb o'ylayman. Zero, qonuniy qattqlikkina jamiyatimizda korrupsiyaga barham bera olishi mumkin.

Marjona QANDIYOROVA,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi 15-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – NAFS BALOSI

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, jamiyat taraqqiy etavergani sayin bu illat ham tomir yoyib boravergan. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida ham aytib o'tiladi.

Demak, bu illat ming-ming yillardan buyon insoniyatni o'z domiga tortib kelmoqda. O'zbek adabiyotida ijod qilgan adiblarimiz Alisher Navoiy, Muqimiy, Abdulla Qahhorlar ijodida ham poraxo'rlik yomon illat ekanligi aytib o'tilgan. Shu o'rinda Navoiy bobomizning ushbu misralarini keltirib o'tishni joiz deb topdim:

*Nafs itin etsang zabun,
Olamda yo'q sendek shujo.*

Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasini o'qir ekanman, o'sha davrda poraxo'rlikning chuqur ildiz otganini, jamiyat esa shu botqoqqa botib qolganining guvohi bo'ldim. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida: «Fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir» deb qayd etilgan. Haqiqatan ham, korrupsiya jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi. Bu esa barcha sohadagi turli islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qo'ymaydi.

Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tmoqchiman, fuqarolarimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi

jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'paytiradi. Bu kamchilik esa oldinga siljishga, taraqqiyot rivojiga to'sqinlik qiladi.

Tanqidsiz taraqqiyot bo'lmasligini fuqarolar ongiga singdirib borish maqsadida televideniya maxsus ko'rsatuvlar tashkil qilinishi (bundagi bosh mavzu korrupsiya bo'lsin, albatta), maxsus davriy matbuot nashrlar ishining yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Dunyoni larzaga solayotgan illatga qarshi har bir davlat o'zining chora-tadbirlarini ishlab chiqqan. Qaysidir davlatda korrupsiyaga deyarli barham berilgan bo'lsa, yana qayerdadir bu illat «gullab-yashnash»da davom etmoqda. Muvaffaqiyatli kurashish namunasi sifatida Singapurdagi islohotlarni misol keltirish mumkin. Bu davlat qisqa vaqt ichida Osiyoning qoloq mamlakatidan dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylandi. Buning zahirida esa korrupsiyaga qarshi kurash yotadi. Singapur yetakchisi Li Kuan Juning korrupsiya ustidan g'alaba qozonishni istagan inson o'z qarindoshlari va yaqin do'stlarini ham qamashga tayyor bo'lishi kerakligi haqidagi mashhur iborasi mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash ayovsiz bo'lganidan dalolat beradi. Niderlandiyada esa pora bilan qo'lga tushgan amaldorlarga keyinchalik davlat tashkilotlarida ishlash taqiqlangan. Xitoyda esa 2003-yildan buyon o'n mingga yaqin mansabdor aynan korrupsiyaga qo'l urgani sabab o'limga hukm qilingan, ayrim hollarda pora bilan ushlangan amaldorlarning qo'llari chopilgan.

Bu borada yurtimizda ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 211-212-moddalarida pora berish, pora olish-berishda vo'sitachilik qilish eng kam oylik ish haqining ellik barobarigacha jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi belilangan.

Xulosa qilib aytganda, qonun ustuvorligini ta'minlash, adolatni beg'araz amalga oshirish bizning eng katta burchimizdir. Shunday ekan, bir tan-u bir jon bo'lib, korrupsiya deb atalmish bu jirkanch illatga qarshi kurashib, yurtimiz taraqqiyoti yo'lida barcha imkoniyatlarimizni ishga solishimiz darkor.



Lobar DAVRONOVA,
Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 34-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA BOTQOG'IGA BOTMAYLIK

Korrupsiya qadimdan mavjud bo'lib, ayirboshlashning noqonuniy shakli, ya'ni boshqa bir insonlarga yoki atrof-muhitga, hayvonot va o'simlik olamiga zarar yetkazadigan amal hisoblanadi. Korrupsiya haqida qadimgi Misr fir'avnlari, hind rojalari, O'rta Osiyo mutafakkirlari aytib o'tishgan. G'arb mamlakatlari ham bundan mustasno emas, albatta. Korrupsiya – jahondagi har qanday davlatda fuqarolarning tinchligi va xotirjamligi, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvchi, inson huquqlari buzilishiga olib keluvchi, iqtisodiy bozor munosabatlariga to'sqinlik qiluvchi o'ta xavfli illatlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy saytida yozilishicha, «Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida, o'z xizmat mavqeyidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir». Aslida, korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilik va axloqqa zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir. Atama, eng avvalo, siyosiy apparat xodimlariga nisbatan foydalanishi odat tusiga kirgan.

Pora olish, asosan, yuqori mansabga ega bo'lgan va o'rta mansabdorlar va hatto quyi mansablar o'rtasida ham uchraydi. Bunday poraxo'rliklar natijasida esa nafaqat xalq va davlat, balki boshqa yurtlar ham zarar ko'rish mumkin. Korrupsiyaning eng asosiy muammosi shundaki, ko'pchilik

uchun mo'ljallangan moddiy boylik bir nechta inson qo'lida bo'lib qoladi.

Korrupsiyaning kelib chiqish ildizi qayerda?

Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Gap shundaki, korrupsiyaning asl ildizi uning paydo bo'lish geografiyasi bilan o'zgaradi. Xo'sh, O'zbekistonda qanday omillar uning kurtak otib, «gullab-yashnashi»ga sharoit yaratmoqda?

Avvalo, Adliya vazirligi rasmiy saytida keltirilgan izohni qaytadan ko'rib chiqish tavsiya etiladi: «Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida, o'z xizmat mavqeyidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir». Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirish davomida milliy qonunlarga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini singdirish masalasiga alohida e'tibor berildi va bu 2008-yilda qabul

qilingan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi qonunda o'z aksini topdi.

2010-yilda O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakat dasturiga qo'shildi.

So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida»gi, «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi, «Elektron hukumat to'g'risida» hamda «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishchanlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odo-axloq qoidalarini tasdiqlashga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvar kuni «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun imzolandi. E'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiruvchi qonun 4-yanvar kuni «Xalq so'zi» va «Народное слово» gazetalarida chop etildi.

Qonundan ko'zlangan maqsad korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hujjatda «korrupsiya», «korrupsion huquqbuzarlik» va «manfaatlar mojarosi» kabi tushunchalarga izoh berilgan.

Hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarliligi bo'yicha choralar ustuvorligi keltirib o'tilgan.

Qonun korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini keltirib o'tadi:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha choralarni amalga oshirish;

- korrupsion huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ular oqibatlarini, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tatbiq etish.

Hujjatda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha choralarni keltirib o'tadi. Jumladan, davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va hisobdorligini ta'minlash, parlament va jamoatchilik nazorati, mansabdor shaxslar faoliyati sifatini baholash hamda ishga qabul qilish va mansab pillapoyalaridan ko'tarilishda ochiqlik va xolislik tamoyili asosida tanlovli saralashlarni olib borish tizimlarini joriy etish belgilangan. Davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomi aniqlanib, ularning ijtimoiy himoyasi, moddiy ta'minoti, har tomonlama rag'batlantirish choralari ko'riladi.

Ma'muriy jarayonlar sohasida korrupsiyadan ogohlantirish choralari ro'yxatiga ularning batafsil reglamentini belgilash, ushbu jarayonlarni soddalashtirish va byurokratik rasmiyatchiliklarga yo'l qo'ymaslik kiritilgan.

Korrupsion jinoyat to'g'risida oshkor qilgan shaxs davlat himoyasi ostiga olinadi. Biroq mazkur qoida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etganlarga nisbatan amal qilmaydi.

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

E'tibor bilan dunyoga nazar solsak, dunyodagi rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida korrupsiya kam. Xalqaro institutlarning xabar berishicha, rivojlangan davlatlarda korrupsiya maksimal 15 foiz ekan, demak, u davlatlar korrupsiyaga qarshi samarali kurasha olgani uchun ham hozirda rivojlangan davlatlar qatorida o'rin egallab turibdi.

Bunday turdagi illatga qarshi kurashish uchun, avvalambor, insonlarning ongini yuksaltirish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish zarur. Korrupsiya natijasida xalq va davlatning rivojlanishi ortda qolayotganligini va kelajakda yoshlar bizdan yomon o'rnak olishini tushuntirish lozim. Hozirgi kunda korrupsiya eng kam uchraydigan davlatlar Daniya, Yangi Zelandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa davlatlardir. Korrupsiya rivojlangan davlatlar esa Afg'oniston, Tunis, Jazoir va ko'plab Afrika davlatlaridir. E'tibor bering, barcha korrupsiya rivojlangan davlatlar necha yillardan beri notinch. U davlatlarda urushlar va qon to'kilish hollari oddiy holga aylanib bo'lgan va bularning asosiy sababchilaridan biri – bu korrupsiya. Demak, qachonki bu davlatlarda puldan ko'ra xalqning manfaatlari ustun qo'yilsa, yana tinchlik hukm suradi deb o'ylayman.

Xulosa shundaki, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog'lomligida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy vazifasi ijtimoiy kayfiyatni yoritish: cho'qqining o'tkir nuqtasiga yetib kelganimizni eslatib turishdan iborat.

Fikrlarimni yakunlar ekanman, maktab o'quvchisi sifatida korrupsiyaning davlat va jamiyat poydevoriga urilayotgan bolta ekanligini his qildim. Kuchim va imkonim boricha bunday qabih illatga qarshi kurashishga va do'stlarimga ham tavsiya etishga harakat qilaman.



Nigina SANAQULOVA,
Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 11-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA ISKANJASIDAN QUTULMOQ KERAK

Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Bu illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Korrupsiya lotincha «dacor rumpere» – «burmoq» termini, odatda, mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlaridan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishni anglatadi.

Korrupsiya – tamagirlikning yuqori nuqtasi. Unga qarshi kurashish uchun amaldorlardan siyosiy iroda talab qilinadi. Ushbu vaziyatdan chiqish usuli shuki, avvalo, davlat byurokratik apparati hajmi imkon qadar kamayishi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga va iqtisodiy faoliyatiga davlatning minimal aralashuvi, monopoliyaga barham berishi lozim.

Tan olish joizki, davlat xaridlari, investitsiya, bank, soliq, bojxona, bozorlar, qurilish tizimida korrupsiyaga aloqador shaxslar yaxshi daromad ko'radi. Qonunchilik amaliyoti, huquq-tartibot organlarining ularga qarshi turish borasida o'ta ojizligi, zaifligi, hatto xayrixohligi holatlari ishimizga xalaqit berib, buning oqibatida xalq va davlatning yer osti

hamda yer usti boyligini o'zlashtirish evaziga chet ellarda dang'illama uylarga egalik qilish holatlari ko'payib boradi.

Jamiyat a'zolarini birday qiynab kelayotgan baloyi ofatlarga qarshi kurashish uchun biz qo'shni davlatlar tajribasini o'rganish va saboqlar chiqarish yo'lida izlanib, Rossiyadagi ahvolni misol keltirsak bo'ladi. 2000-yillar avvalida ulkan mamlakatning milliy xavfsizligiga korrupsiya xavf sola boshlagach, maxsus idora ochildi, mavjud muammolar xalqaro tajriba bilan taqqoslanib, «homiy» vazifasini bajar-gan xizmat tizimi rahbarlariga keskin choralar ko'rildi.



Sevinch AHMATILLAYEVA,
Navoiy viloyati Karmana tumanidagi 8-umumiy o'ta
ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYANING ILDIZIGA BOLTA URAMIZ

Yosh avlod ulg'ayar ekan qalbida, ong-u shuurida Vatani rivojiga hissa qo'shishdek ezgu orzu-intilishlar jo'sh ura boshlaydi. O'ziga ishonib topshirilgan vazifani vijdonan ado eta oladigan insongina Vataniga munosib farzand bo'la oladi.

Korrupsiya – inson umr bahorini xazonlarga yo'g'rilgan kuzga aylantirguvchi, jaholat dunyosi tomon yetaklaguvchi, oxiri faqat va faqat afsus, nadomat bilan yakun yasovchi illatdir. Korrupsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, «pora evaziga sotilish», «buzilish» degan ma'nolarini bildiradi. Korrupsiya – mansabdor shaxsning o'z mansabi yoki xizmat mavqeyidan qonunga xilof ravishda foydalanish, o'ziga berilgan vakolatlarini shaxsiy boyish maqsadida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot.

Olimlar korrupsiyaning tarixiy ildizlarini qadimgi Shumer davlati bilan bog'laydi. Usmoniylar xalifaligi davrida ham mavjud bo'lgan. Avvaliga xalifa barcha ishlarni o'zi nazorat qilardi, keyinchalik bu ishni o'ziga yaqin vazirga topshiradi. X asrning o'rtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirga pora berish amaliyoti shakllanib bo'lgandi. Shu tariqa poraxo'rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi.

Bu holat Usmoniylar saltanatida ham istisno emasdi. Harbiy xizmatchilarga haddan tashqari ko'p vakolat-

lar berilishi, yer ajratilishi poraxo'rlikka yo'l ochdi. Harbiy xizmatchilar vakolatli davlat amaldorlariga «hadya» berishlari orqali urush holatlarida ro'yxatga yozilmasdilar. Buning natijasini XVII–XIX asrlardagi mag'lubiyatlarda ko'rish mumkin. Bu illatning ancha oldin shakllanganligi haqida ko'plab dalillar mavjud.

Men korrupsiyani butun bir millat uchun qilingan jinoyat deb bilaman. Korrupsiya tufayli necha-necha insonlar umri zavol topadi, fuqarolarning huquq va erkinliklariga putur yetadi. Bilimli, malakali kadrlar chetda qolib, butun mamlakat kelajagi xavf ostida qoladi. Korrupsiya mamlakatning taraqqiyot ildizlariga bolta uradi.

Korrupsiya birgina siz-u bizning muammomiz emas, balki butun dunyo muammosidir. Korrupsiyaga qarshi kurashish hali hanuz dolzarbligicha qolayotgan masaladir. Bu muammoni hal qilishda barchamiz harakat qilishimiz darakor. Korrupsiya tabassum porlayotgan nigohlarni namlaydi. Korrupsiyaning oldini olish maqsadida BMT tomonidan Korrupsiyaga qarshi konvensiya qabul qilingan. 2008-yil 7-iyulda O'zbekiston ushbu konvensiyani ratifikatsiya qildi.

Adolat shunday bir yog'duki, uning nuri jaholat dunyosining zavol topishiga sabab bo'ladi. Jaholat va ma'rifat o'rtasidagi kurash abadiy.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilindi, Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvarda imzolandi. 2017-yil 4-yanvar kuni «Xalq so'zi» gazetasida e'lon qilindi. Ushbu qonun 6 bo'lim, 34 ta moddadan iborat. Qonunning 1-moddasida: «Ushbu qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat», deyilgan.

O'zbekiston 2010-yil korrupsiyaga qarshi kurashish borasida Istanbul harakati dasturiga qo'shildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi farmoniga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Agentlik tashkil etildi. Hukumatning 2020-yil 31-dekabr-dagi 829-son qarori bilan «Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomi tasdiqlandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasida pora olganlik, 211-moddasida pora berganlik, 212-moddasida pora olish va berishda vositachilik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Korrupsiya faqat bir millat yoki davlat uchun dolzarb bo'lib kelayotgan muammo emas. Korrupsiya butun insoniyatning muammosidir. Inson o'z umri davomida kimgadir yaxshilik qilishi ham, gunoh botqog'iga botishi ham mumkin. Oddiygina ko'ringan shu birgina so'z olam ahlini hali-hanuzgacha kurashga, chuqur o'yga tolishga undaydi.

BMT tomonidan 2003-yil 9-dekabrda Meksikada Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konvensiya imzolandi va bu sana «Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni» sifatida e'lon qilinib, 2004-yil 9-dekabrda boshlab nishonlana boshlandi.

«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi kiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun yaxshi bir kasb egasi, fan nomzodi, deputat bo'lish shart emas. Birgina toza vijdonning o'zi kifoya, shunday ekan, korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashaylik!

Gavhar ODILOVA,
Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 7-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

YOSHLAR KORRUPSIYAGA QARSHI

Inson! Naqadar buyuk mo'jiza. Tangri taoloning yer yuziga bergan buyuk tuhfasidir. Shular haqida xayol surar ekanman, men ham inson bo'lib yaralganimga shukrona keltiraman.

Tangri taolo insonni yaratib, unga jannatdan joy ato qilgan ekan. Kunlarning birida shayton odam qalbiga nafs urug'larini ekibdi. Nafs domiga giriftor bo'lgan inson Allohning karamini unutib, Janobi Haq taqirlagan bug'doy boshog'ini yebdi. Bu holatdan Yaratganning qahri kelib, odamni yer yuziga quvg'in qilgan ekan. Mana, necha asrlar o'tibdi, inson farzandlari shayton diliga solgan nafs balosidan qutula olmay, joni halakda. Shular haqida yozar ekanman, nafs barcha illatlar o'chog'i ekanligini yaxshi anglayman.

Nafs – har bir insonning qon-qoniga singib ketgan illat. Agar inson hushyor bo'lmasa, o'tkinchi havaslarga berilsa, bu illat uni mahv etadi. Oddiy hayotimizga nazar tashlaydigan bo'lsak ham, bu illatni juda ko'p uchratamiz. Masalan, biror yaxshi narsamiz bo'lsa, biz undan yanada ko'proq bo'lishini xohlaymiz, qanchalik ko'paysa, nafs ko'zlarimizni shunchalik ko'r qiladi. Mana, insoniyatning buyuk fojiasi!

Ba'zan xayol sura turib, insonning hayoti haqida o'ylayman. Shunday damlarda nafs butun bir jamiyatning, balki butun dunyoning eng katta dushmani ekanligini yaxshi tushunaman.

Nafs barcha illatlarning onasidir. Shu jumladan, korrupsiyaning ham. Korrupsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, «poraga sotilish» «aynish» degan ma'nolarga duch kelamiz. Poraxo'rlik va korrupsiya so'zlarining lug'aviy ma'nosi bitta. Korrupsiya – bu ma'lum bir mansabdor shaxs yoki jismoniy shaxslarning o'ziga berilgan vakolatlaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishidir. Korrupsiya bor joyda rivojlanish, o'sish, ertangi kunga intilish bo'lmaydi. Jamiyat bir nuqtada qotib qoladi. Butun bir davlatning poydevori yemiriladi. Jamiyat tanazzulga yuzlanadi. Millatning buyuk ustuni buziladi. Agar jamiyatni daraxtga qiyoslasak, poraxo'rlik uning ildizlarini quritib, taraqqiyotni to'xtatuvchi illatdir. Chunki korrupsiya ildiz otgan har qanday joyda qonunlar o'z kuchini yo'qotadi.

Men o'qigan kitoblarda ham korrupsiya eng yomon illat sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Mungli ko'zlar», Abdulla Qahhorning «Poraxo'rning o'limi», «O'g'ri» kabi asarlarida muammoning oqibatlari ochib berilgan.

Halollik korrupsiyasiz kelajakning garovidir. Negaki, korrupsiya millatni kelajagidan ayiradi. Bu haqida AQShning o'ttiz ikkinchi Prezidenti Franklin Ruzvelt shunday degan edi: «Korrupsiya bizni kelajakdan ayiradigan, unga raxna soladigan eng katta kuchdir».

Bugungi kunda muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ishlarda ham mamlakatimizni korrupsiyasiz kelajakka olib chiqish asosiy muammolardan biridir. Chunki korrupsiya bor ekan, biz porloq kelajakka erisha olmaymiz. Bu yo'lda biz yoshlar Prezidentimizga qanot bo'lishimiz lozim. Zero, Yurtboshimizning o'zlari ta'kidlaganidek: «Korrupsiyaga Vatanini sevgan insongina qarshi bo'la oladi». Aziz tengdoshim, biz O'zbekistonning ertasimiz. Shunday ekan, biz

yoshlar korrupsiyaga qarshimiz va mamlakatimizni buyuk va nurli kelajak sari eltamiz!

Ijodiy ishimizning so'ngida buyuk hind siyosatchisi Mahatma Gandining fikrlarini keltirmoqchiman: «Chumoli o'zining gavdasidan bir necha bor og'ir yukni tortib, ko'tarib boradi. Biz insonlar ham chumolilardan o'rnak olishimiz lozim».



Bahora AVAZBERDIYEVA,
Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 11-AFCHO'IMning
9-sinf o'quvchisi

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik va tamagirliklarga chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarur. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmaydi. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko'zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Pora olish, asosan, yuqori mansabga ega bo'lgan va o'rta mansabdorlar va hatto quyi mansablar o'rtasida ham uchraydi. Bunday poraxo'rliklar natijasida esa nafaqat xalq va davlat, balki boshqa yurtlar ham zarar ko'rishi mumkin. Korrupsiyaning eng asosiy muammosi shundaki, ko'pchilik uchun mo'ljallangan moddiy boylik bir necha inson qo'lida bo'lib qoladi.

Korrupsiya botqog'iga botgan insonlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash toza vijdonli, oriyatli ziyolilarning qalb amriga aylamog'i lozim. Korrupsiya jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi,

bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz ochib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.



Nozima ABDULLAYEVA,
Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi
2-umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

YOSHLAR KORRUPSIYASIZ KELAJAK TARAFDORI

Korrupsiya jahondagi har qanday davlatda fuqarolarining tinchligi va xotirjamligi, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvchi, inson huquqlari buzilishiga olib keluvchi, iqtisodiy bozor munosabatlariga to'sqinlik qiluvchi o'ta xavfli illatlardan biridir.

Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish, afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisa qatorida yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o'sishi nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham qarshi bevosita tahdid tug'diradi.

Dunyoga nazar solsak, rivojlangan davlatlarda korrupsiya maksimal 15 foizni tashkil etar ekan. Demak, u davlatlar korrupsiyaga qarshi samarali kurasha olgani uchun ham hozirda rivojlangan davlatlar qatorida o'rin egallab turibdi.

Qonunchilik asosida «2017-2018-yillarda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlat dasturi» tasdiqlandi. Unda qo'yilgan aksariyat vazifalar amalga oshirildi. 2018-yil 9-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 12-moddasida «Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan

chora-tadbirlar ustuvor bo'ladi», degan qoida belgilandi. Shuningdek, mazkur qonun kuchi bilan bu sohada davlat xizmati ko'rsatishning shaffof tizimi shakllantirildi.

Barcha davlat boshqaruvi organlarining ochiqligini ta'minlash, bu organlarning asosiy yo'nalishi sifatida sud va huquqni himoya qilish organlarining xalq oldida mas'ulligi va hisob berib borish prinsiplarining o'rnatilishi bu borada katta qadam bo'ldi. Bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekanmiz, samarali kurashni tashkil eta olmaymiz. Ushbu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa jiddiy kurashishi kerak. Shuning uchun har bir davlat idorasida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z ichki dasturlari bo'lishi shart.

Biz bu umr yo'llarida qaysi yo'ldan boramiz? Hozirgi davrda korrupsiya deb atalmish ofatdan qanday himo- yalanib, unga qarshi kurash olib boramiz? Inson bu yo'lda ishonch-la o'z e'tiqodi asosida baxtimiz qomusi – Konstitutsiyamiz belgilab bergan qonun-qoidalariga rioya etgan- dagina, albatta, to'g'ri yo'ldan borishi shubhasiz.

Anora G'ULOMOVA,
Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi 20-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – ADOLATSIZLIKKA YO'L

Korrupsiya bizning kungacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi korrupsiya tag-tugi bilan yo'qolib ketgani yo'q. Bu hozirgi kunda barcha mamlakatlarning asosiy muammosi hisoblanib, bunga qarshi kurashish yer yuzidagi barcha davlatlarda davom etmoqda.

Poraxo'rlik va korrupsiya jamiyatning rivojlanishiga xalaqit beradi. Shuningdek, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib kelmoqda. Yana bir tomoni shundaki, insonlar o'z haq-huquqini himoya qila olmaydi.

Ushbu illatga mening fikrim shundan iboratki, avvalo, oilada bola tarbiyasiga ota-ona katta e'tibor berishi lozim. Chunki ba'zida ukalarimiz «Bog'chaga bormayman yoki ovqatimni yemayman», deb xarxasha qilishsa, otalarimiz darrov ularning qo'lga pul yoki konfet berib ovutadilar. Bu esa tamagirlikning soddagina ko'rinishi deb o'ylayman. Shundan so'ng farzand ulg'aygani sari uning talablari kuchayib boraveradi. Natijada o'z muammolarini ham pora orqali hal etish mumkinligini o'ylaydi yoki amalga oshiradi. Endi tasavvur qilaylik, O'zbekistondagi barcha oilalardan hech bo'lmaganda bittadan farzand shunday fazilat bilan voyaga yetsa, korrupsiya degan yaramas illat bizning davlatimiz, millatimiz boshiga soya solib turaveradi.

Korrupsiyani yo'qotish uchun yurt ravnaqi, kelajagini asrab qolish uchun biz xalqimiz ongiga vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik va milliy qadriyatlarimizni

singdirishimiz lozim. Shundagina davlatimizda korrupsiyani bartaraf eta olamiz.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi tegishli choralar ko'rilmogda. Ammo bu illatga qarshi kurashish faqat tegishli organlarninggina emas, balki barchaning muhim vazifasi ekanligini yodimizda tutishimiz lozim. Ana shundagina ushbu xavfni bartaraf etish mumkin. Zero, biz yoshlar korrupsiyasiz kelajak tarafdorimiz.



Mohinabonu ZAYNIYEVA,
Samarqand viloyati Urgut tumanidagi 28-umumiy o'rta
ta'lim maktabning 8-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA NURLI KELAJAKKA TO'G'ONOQ

Korrupsiya eng yomon illatlardan bo'lib, butun dunyo jamiyatini tashvishga solib kelmoqda. Tarixdan ma'lumki, ibtidoiy jamiyatlarda ham korrupsiyaning ayrim ko'rinishlari bo'lgan. Masalan, o'sha davrlarda qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqlarga qaysidir imtiyozni egallash uchun haq to'lash tabiiy hol bo'lgan. Keyinchalik davlat boshqaruvi ta-komillashuvi natijasida korrupsiyaning ham turli xil shakllari yuzaga kelib, oxir-oqibatda u global muammolardan biriga aylanib qoldi.

Korrupsiya bor joyda rivojlanish to'la-to'kis amalga oshmaydi. Korrupsiya, birinchidan, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa ham-ma sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolarimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolatning buzilishini ko'paytiradi. Dinimizda ham poraxo'rlik taqiqlangan. Bundan tashqari, ko'plab donolarimiz o'zlarining ilmiy-ma'rifiy asarlarida ham bu borada to'xtalib o'tganlar. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida «Fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir», deb qayd etgan. Alisher Navoiy asarlarini o'qib, tahlil qilganimizda ham insoniy xislatlar va uning aksi bo'lgan tuban illatlarni ko'rishimiz mumkin.



Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash kerak. Bu borada onalarimizning o'rni katta deb o'ylayman. Agar oilada halol luqma yeb katta bo'lsak, bu ota-onalarimiz, yurtimiz va albatta, bizning ham baxti-mizdir. Chunki halollik bor joyda fayz-baraka, sokinlik ham-da xotirjamlik bor.



Kumush XAYITKULIYEVA,
Samarqand viloyati Samarqand shahridagi
50-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi

YOSHLAR KORRUPSIYASIZ KELAJAK TARAFDORI

Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi. Shuningdek, u odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Korrupsiyaning tarixiy o'zarlari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqanligi taxmin qilinadi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi.

2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturning ijrosi amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan biridir. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvar kuni «Korrupsiyaga qarshi kurash

to'g'risida»gi qonun imzolandi. Qonundan ko'zlangan maqsad korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik, fuqarolarning huquq-erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik hamda korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarliligi bo'yicha choralar ustuvorligi keltirib o'tilgan.

Har bir jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi, albatta, davlatlarning yetakchi kuchlari yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Buyuk o'zbek xalqi qadim-qadimdan farzand, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelgan. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizning bugungi kundagi ahamiyati nechog'lik muhim ekanligini ko'rsatib bermoqda. Zotan, mustaqil davlatimiz istiqboli uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur.

Bugungi kunda mustaqil fikrlaydigan, mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning bandligini ta'minlash, iqtidor sohiblarini qo'llab-quvvatlash, sportni rivojlantirish kabi ishlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, mustaqil Vatanimizni har tomonlama eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Yurtboshimiz yoshlar tarbiyasi butun millat oldidagi ulkan mas'uliyatli vazifa ekanligini ta'kidlab: «Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm va hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib ber-

masak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas», deya bejiz kuyinib gapirmayaptilar.

Menimcha, korrupsiya illatini keskin kamaytirish uchun oilada yoshlarni halollikka o'rgatish kerak. Yoshlar pora berish ham, pora olish ham jinoyat ekanini anglab yetishlari lozim. Bundan tashqari, mamlakatimizda odamlarni ogohlikka chaqirish bo'yicha targ'ibotni yanada kuchaytirish talab etiladi.

Pokiza MURODOVA,
Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 22-umumiy
o'rta ta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi


KORRUPSIYA JAMIYAT RIVOJIGA RAXNA SOLADI

Barchamizga ma'lumki, hozirgi zamon turmush tarzida tobora keng qo'llanayotgan atamalardan biri bu korrupsiyadir. Yurtimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq korrupsiya illatiga qarshi kurashish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga putur yetkazadi hamda qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi.

Bu illat qadimdan mavjud bo'lib, ikki taraflama amalga oshiriladi. Ya'ni ikkala tomon ham qandaydir moddiy boylikka ega bo'lishi uchun davlat qonunlariga zid ravishda ish bajaradilar. Bunday turdagi illatga qarshi kurashish lozim. Mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat va barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar. Korrupsiya inson va jamiyat hayotini izidan chiqarib, jamiyatning rivojiga raxna soluvchi illat ekanligini har bir ma'naviyatli inson sezadi, his qiladi. Chunki pora berish, tanish-bilish orqali ishga kirish, pul sababli bilimi yo'q talaba oliy darghohda o'qiydi. Pul bilan ishi bitgan inson ertangi kunda qaysidir sohada ishlaydi. U jamiyat hayotini yaxshilay oladimi, degan savol o'ylantiradi.

Ba'zi insonlar shaxsiy manfaatini yuqori qo'yib, pora olib, pora berish yo'li bilan ishini bitkazadi. Bu holat yillar

o'tib hosilni beradi. Natijada, jamiyatimizda bir emas, minglab, hatto millionlab hech narsani his qilmaydigan, oila va jamiyat hayotini yaxshilash uchun harakat qilmaydigan insonlar ko'payadi. Har bir inson bu hayot yo'llarida ishonch bilan o'z e'tiqodi asosida qonunlarimizga rioya etsa, albatta, to'g'ri yo'ldan borishi shubhasiz.



O'g'iloy NORBEKOVA,
Samarqand viloyati Payariq tumanidagi
44-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

TARAQQIYOT KUSHANDASI

Korrupsiya nihoyatda ijtimoiy-siyosiy, vayronkor kuch. Uning oqibatida milliy iqtisodga putur yetadi. Xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo'qoladi. Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi to'rt asosiy sabab bor.

1. Shaxsiy sabablar. Korrupsiya yaxshi ta'lim-tarbiya ko'rmaslik va kam maosh oladigan amaldorlarning nokasligi oqibatida paydo bo'ladi. O'zbekistonda o'tkazilgan so'rovnomada ham yoshlarning ko'pchilik qismi korrupsiyaga asos qilib kam maosh olishini sabab qilib keltirgan.

2. Institutsional sabablar. Kadrlar tayyorlash, hisobga olish va nazorat qilishning samarasizligi, mansabdorlarni yollashning osonligi va ularni oson ishdan haydash kabilar korrupsiyani rag'batlantiruvchi omillardir.

3. Tizimiy sabablar. Hukumat ba'zan jamiyatning shunday talablariga duch keladiki, ularni bajarishning rasmiy tartiblari hali aniqlanmagan bo'ladi. Ana shu vaziyatda korrupsiyaga to'g'ridan-to'g'ri va qisqa yo'llar ochiladi.

4. Ko'p tomonlama sabablar. Korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini endi keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash toza vijdonli, oriyatli ziyolilarning qalb amriga aylanmog'i lozim. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili 1 trillion AQSh dollari hajmida pora beriladi. Jahon iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion

dollar mablag'dan ayriladi bu jahon yalpi ichki mahsuloti-ning 5 foiziga tengdir. Ko'rinib turibdiki, bu qabih illat orqali davlatlar qanchadan qancha zarar ko'radi. Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari o'zining kimligi, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi balki demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga non-tuz berib katta qilgan, obro' va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo'yadi.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, boy va kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish poraxo'rlik, tamagirlik kabi huquqbuzarlikni aniqlash va ularga minba'd chek qo'yish bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi lozim. Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi yo'lni o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini, hayot tarzini ko'rsatadi. Shunday ekan, bir tan-u bir jon bo'lib, korrupsiya deb atalmish illatga qarshi kurashib, yurtimiz taraqqiyoti yo'lida barcha imkoniyatlarimizni ishga solishimiz darkor. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan qutqarish sharaflı burchimiz ekanligini hamma birdek tushunmog'i shart. Aks holda, o'ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo'rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar jazoga tortilishi muqarrar!

Gavhar BO'RIQULOVA,
Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi 4-umumi
o'rta ta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – JIRKANCH ILLAT


Inson zoti dunyoga kelibdiki, hayoti davomida o'z ehtiyojlarini qondirish uchun butun vujudi bilan harakatda bo'ladi, mehnat qiladi va bularning natijasida ma'lum bir ko'zlagan maqsadiga erishishi turgan gap. Albatta, «Mehnatning oshi shirin», degan naqlarimiz bejiz aytilmagan-da. Tanganing ikki tomoni bor deganlaridek, yuqoridagi gaplarimning ham aloqasi bo'lmagan katta bir nuqtasi bordir. Bu nuqta, ya'ni korrupsiya deb atalmish jirkanch illat insoniyatning yaralish davrlari-yu, diyorimizning xonlik paytlaridanoq boshlanib kelib, hozirgi kunga qadar insonlarning qon-qoniga singib ketgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nafaqat O'zbekistonda, balki butun davlatlararo hayotning global muammosiga aylanib qolgan illatning yana bir karra tomir otishiga yo'l qo'ymaslik uchun dunyoda qarshilik kurashlari olib borilmoqda.

Darhaqiqat, agar biz rivojlanish sari shaxdam qadamlar tashlab o'sib borayotgan davlatimizni – kishi oldida savlat to'kib, yaproqlarining jilvalaridan ko'ngillarni quvonchga to'luvchi daraxt timsolida tasvirlaydigan bo'lsak, korrupsiyani ana shu daraxtga tushgan qurt sifatida ko'rishimiz mumkin. O'ylardimki, bunday qiyoslarni ko'proq o'sib borayotgan yosh avlod ong-u shuuriga singdirib borsak, yashnab turgan daraxtga o'rmalayotgan qurti yerga uloqtirgan bo'lamiz.

Qadimgi Yunoniston faylasufi Aristotel shunday degan ekan: «Hokimiyatga pul bilan erishgan odam, undan daromad olishga intiladi». Menimcha, dunyoda rivojlanish

hamda taraqqiyot yo'lini tanlagan har bir davlat, eng avvalo, korrupsiya, poraxo'rlik kabi salbiy illatlarga qarshi murosasiz kurash olib boradi. Aks holda, bunday jirkanch illatning o'sishiga yo'l qo'yib berilsa, o'sha yerda rivojlanish boy beriladi. Aslini olganda, bularning hammasi, ya'ni masalaning yechimi o'z qo'limizdadir.

Har birimiz korrupsiyaga qarshi birdamlikda kurashsak, natija ham shunga yarasha bo'ladi.



Go'zal RO'ZIMURATOVA,
Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi 27-umumiy
o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi

KORRUPSIYA – HAROMDIR!

Korrupsiyaning juda ko'p turlari mavjud. Bu shunday illatki, insonni o'z oqimiga tortadi va qonunlarga qarshi kurashadi. Korrupsiyaning turlaridan biri bu poraxo'rlikdir. Inson bu dunyoga keldimi, yaxshilik bilan, adolat bilan yashashi lozim.


Qadim zamonlardan beri poraxo'rlik bilan shug'ullanuvchi insonlarni yozma manbalarda yozib borishgani bizga ham ayon. Poraxo'rlikka aralashib qolgan insonlar oxiri nima bo'lishini o'ylashmaydilar. Poraxo'rlik og'ir jinoyatdir. Bu illat bilan shug'ullanuvchi insonlar: «Boshqalarga noqonuniy yo'llar bilan yaxshilik qilaman, yordam beraman», deb o'ylasalar, adashadilar. Chunki noqonuniy qilingan yaxshilik, albatta, oxiri yomonlik bilan tugaydi va qonun oldida ham javob berishga majbur bo'ladi. Bu poraxo'rlik evaziga topilgan pullar halolmi yo harom? Albatta, haromdir! Shu yo'lda topilgan pullarni keyinchalik o'z farzandlariga yedirsa, nima bo'ladi, deb o'ylaysizmi, biz musulmonmiz, halol topib, halol yeyishga o'rganganmiz!

Barcha dinda poraxo'rlik juda qattiq qoralanadi. Agar insonlar harom yeb o'rganishgan bo'lsa-chi? Ulardan keyingi avlod ham shu yo'lni tutadilar. Xalqimiz ham halol luqma yeyishga odatlangan. Poraxo'rlik tufayli ilmsizlar ko'payadi. Yoshlar vaqtlarini ilm olishga sarflasalar, mehnat qilsalar, albatta, kelajakda rohat-farog'atda yashaydi va oliy o'quv yurtlariga ham o'z bilimlari bilan kiradi.

Korrupsiya jamiyatda hukm sursa, barcha davlatlar inqirozga uchrashi mumkin. Korrupsiya jahon davlatlari

bo'yicha hal qilinuvchi muammolardan biridir. Poraxo'rlik og'ir musibatdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish oq va qorani ajratuvchi yoshdagi o'quvchilarning maskani, ya'ni maktabda o'qitilishi lozim. Bu borada o'qituvchilarning bergan tavsiyalari asqotadi. Korrupsiya oqimiga tushib qolmang!



Nafosat MUHAMMADIYEVA,
Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi Halima
Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining
8-sinf o'quvchisi

VIJDONIMIZNI SOTMAYLIK

Biz hayotda qing'ir yo'l bilan, osongina maqsadimizga erishmoqchi bo'lamiz. Inson bor ekan, hayotda yaxshi yashashga harakat qiladi. Insonning oldida doimo ikki yo'l bo'ladi. Biri ezgulik bilan, ya'ni o'z mehnati, qiyinchiliklar bilan maqsadga yetishish bo'lsa, ikkinchisi, osongina o'z maqsadiga yetishdir. Ba'zi insonlar ikkinchi yo'lni tanlab, manfaati evaziga maqsadiga yetadilar. Lekin bunday qilish xato. Vijdonli insonlar hech bunday qilmaydilar. Negaki, ularning qalbida iymon bor.

Inson hayotda yashar ekan, har doim adolatsizlikka, nohaqlikka duch keladi. Inson hayotda yashar ekan, xato qiladi, qing'ir yo'lni tanlaydi. Ana shunday qing'ir yo'ldan biri bu – korrupsiya.

Korrupsiya taraqqiyot kushandasi. U mamlakatimiz rivojlanib o'sishiga to'sqinlik qiladi. Korrupsiya – inson va jamiyatga xavf soluvchi illat. Bu illatning ildizi ming yillarga borib taqaladi. Qadimda ham shaxslar katta-katta mansabdorlarga erishish uchun oqsoqollarga sovg'a-salomlar hadya qilishgan. Sovg'a-salomlarga qarab, ularga boshqacha munosabatda bo'lishgan. Bu pora olishlarga qattiq jazo qo'llangan. Lekin shunga qaramasdan, bu illat haligacha davom etib kelmoqda.

Biz korrupsiyaga qarshi kurashishimiz kerak. Agarda korrupsiyaga qarshi kurashmasak, nima bo'ladi? Masalan, savodsiz talaba pora orqali o'qishga kirib, diplom olsa, ke-

yin o'quvchilarga dars beradi? O'quvchilarga bilim urug'ini sochish o'rniga savodsizlik urug'ini sochadimi? Savodsiz o'quvchidan Vatanga foydasi tegadigan kerakli shaxs chiqmaydi-ku? Yana bir misol, oddiy kundalik hayotdagi haydovchilarni olaylik. Haydovchilar o'qimay, avtomobil haydayverishsa, turli xil ko'ngilsizliklar kelib chiqishi mumkin.

Biz yoshlar korrupsiyaga bir yoqadan bosh chiqarib kurashmog'imiz darkor. Muhtaram Prezidentimiz bizga shuncha shart-sharoitlar yaratib bermoqdalar. Ulardan unumli foydalanib, a'lo baholarga o'qiylik. Xalqimiz aytadi-ku: «Zo'rga hech kim bas kela olmaydi». Agarda biz zo'r o'qisak, o'qishga kirishimizga hech kim to'sqinlik qilolmaydi. Hattoki, korrupsiya ham.

Shahzoda ERGASHEVA,
Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi 3-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

HALOKATGA ELTUVCHI YO'L

Korrupsiya – yomon illat bo'lib, jamiyatga xavf tug'dirishi bilan birga, mamlakatni tanazzulga uchratib, iqtisodiyotga juda katta zarar yetkazadi, barcha davlatlar kabi yuk-salish, rivojlanish baxtidan ayiradi.

Korrupsiya hech qachon insoniyatga foyda keltirmaydi. Faqat va faqat jaholat botqog'iga botiradi, xolos. U bizni halokatga tomon eltuvchi yo'ldir.

Nazarimda, korrupsiya ham yolg'onning bir turi. Yolg'on, xato, jinoyat jazosiz qolmaganidek, korrupsiya ham hech qachon jazosiz qolmaydi.

Korrupsiya bu hozirgi kunda ham yechimi topilmagan dolzarb bir muammo. Shu kunga qadar dunyoning eng rivojlangan G'arb davlatlarida ham uning yechimi topilgani yo'q. Lekin ular korrupsiyaga qarshi kurashishdan, undan qutulish yo'llarini izlashdan to'xtashgani yo'q. Chunki ular «Olma pish, og'zimga tush» qabilida ish ko'rishsa, bunday chirkin illat tomir otib, kelajak avlod miyasini zaharlashi mumkin.

Agarda siz Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» asarini o'qigan bo'lsangiz, unda qora niyatli Homid Otabek va Mir-zakarim qutidorni sotib berishi uchun cho'ntagidan oltin tanga chiqarib, qoziga beradi. Amakisi Ziyo hamda uning o'g'li Rahmatjon o'limidan saqlab qolishi kerak bo'lganda, qaysidir ma'noda qozining og'zini yopish uchun unga ham oltin beradi.

Bu holat korrupsiyaning sodda ko'rinishi, xolos. Yer yuzida bu kabi tamagirlik va firibgarlik deyarli har qadamda uchraydi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Korrupsiyaga qarshi bor kuchi bilan kurashadigan chin ma'nodagi halol inson bu, avvalo, Yurtboshimizdir. U kishi korrupsiya jamiyatni ortga tortishi haqida kuyinib so'zlaydilar. Biz ham bu illatga qarshi kurashni, eng avvalo, oiladan boshlashimiz kerak, fikrimcha. So'ngra bog'cha, maktab, idora va jamoat joylarida turli davra suhbatlari va tushuntirish ishlari olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi, nazarimda. Chunki bola uyda ko'rganini qiladi. Oilada yoshlikdanoq to'g'ri tarbiya berilsa, bu butun umr korrupsiya kabi ofatdan yiroq bo'lishga turtki bo'lar edi.

Korrupsiya bor jamiyat hech qachon yuksalmaydi, rivojlanmaydi. Agar biz bu ofatdan qutulmas ekanmiz, yetuk, rivojlangan davlatlar sirasiga kira olmaymiz.

O'zingiz bir o'ylab ko'ring, kimdir kirish imtihonidan yoki berilgan topshiriqdan o'tolmadi va qanchadir miqdorda pul berib, diplomga ega bo'ldi. Ammo o'qituvchi va shifokor kabi ahamiyatli kasblarning diplomi korrupsiya kabi jirkanch yo'llar bilan qo'lga kiritgan insonlarning hayoti ne kechadi? O'zida yetarli bilim bo'lmay turib, kelajagimiz qo'lida bo'lgan yosh avlodni qanday tarbiya qiladi? U ham mayli, shifokorlar-chi? Ularning ishlari juda katta salohiyat va e'tiborni talab qiladi. Birgina xatosi ham bemorning o'limiga sabab bo'ladi.

Yaqinda guvohi bo'lganman: shifokor qabuliga borganimda ikki nafar og'ir ahvoldagi bemor keltirildi. Ularning ikkisini ham operatsiya qilish zarur. Ularning qanday ahvoldaligini ust-boshlaridan ham bilish qiyin emasdi. Biri juda boy bo'lsa, ikkinchisi mutlaqo buning aksi. Shifokor men o'tirgan stulning qarshisidagi xonaga boy bemorning o'g'lini chaqirib, vaziyatni tushuntirdi. Farzand esa yonidan pul chiqarib, «Otamni asrab qoling va og'zingizga siqqanicha

so'rang», dedi. Narigi bemorning aft-angori bir chaqa ham puli yo'qligidan dalolat berib turibdi. Buni yaxshigina anglab yetgan shifokor pora olgan bemorni operatsiya qila boshladi, nochorini esa oddiy palataga olishdi.

Taqdir charxpalagi aylanib, pora bergan bemor olamdan o'tdi, nochor esa shirin uyqu og'ushida edi. Qarangki, bu kasb egalari o'z kasblarini suiiste'mol qilib, bir insonning umriga zomin bo'ldi.

Korrupsiyasiz hayotni bir tasavvur qilib ko'ring! Naqadar yoqimli! Halollik va poklik bor yerda hech qachon korrupsiyaga o'rin yo'q. Biz doim korrupsiya kabi illatdan voz kechish payida bo'lamiz, Vatanimiz bayrog'ini ko'klarga ko'taramiz.

Shukrlar bo'lsinkim, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Bizning boshimizdan silab, tarbiya qilguvchi ota-onamiz bor. Yurtboshimiz omon bo'lsin, bizga qator sharoitlar yaratib bermoqda.

Keng, yorug', shinam xonalarda ta'lim olmoqdamiz. Bir necha yillar ilgari bu faqat orzu edi, xolos. Bugun bizdan faqat o'qish, yuqori marralarga erishish va bu darajaga korrupsiya kabi chirkin holatni aralashtirmasdan yetishimiz talab qilinmoqda.

O'zbekiston – kelajagi porloq yurt. Uning oltin kaliti bizning qo'limizda.

Biz yaratib berilgan sharoitlardan oqilona foydalanishimiz kerak. Zero, O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida.

Sabina SANJAROVA,
Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi 18-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYASIZ ILM, TARBIYA ILA DAROMAD KERAK

Korrupsiya buzg'unchi illat sifatida qachon paydo bo'lgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Bundan ming yillar oldin ham ushbu illat bo'lgan va hanuzgacha bizni tark etayotgani yo'q. Joylarda «Biz korrupsiyaga qarshimiz», degan yozuvlarga ko'zimiz tushadi. Senga yer olib beraman yoki farzandingni ishga, o'qishga joylab qo'yaman, deb tamagirlik asosida korrupsiyaga yo'l qo'yayotgan insonlar, afsuski, oramizda ko'p uchraydi. Eng achinarli tomoni, ota-onalar o'z farzandlarini sotishgacha boryapti. So'nggi yillarda bu holatlarning oldini olish bo'yicha yurtimizda samarali ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligi davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning yorqin ko'rinishidir.

Korrupsiyani ko'pchilik shaxsiy manfaat yo'lida boylik orttirish uchun qonunga xilof tarzda ish tutish deb tushunadi. Aslida ham shunday. O'zga shaxslarning yoki butun bir jamiyatning manfaatlarini suiiste'mol qilish evaziga pora olish, boylik to'plash, mansabidan foydalanib, ish o'rinlarini ma'lum bir summaga sotish kabilar korrupsiya bilan yonma-yon yuradigan egizak tushunchalardir. Qayd etish kerakki, korrupsionerlar shaxsining hamon mamlakat aholisiga ochiqlanmay kelinayotganligi og'riqli nuqtalarimizdan biri bo'lib qolmoqda.

Korrupsiyaning turlari sifatida yana xalqimiz qon-qoniga singib ketgan manfaat uchun biror-bir sovg'a, hadyalar ulashish, xushomadgo'ylik, laganbardorlik kabi sifatlarni ham aytib o'tish muhim. Bu kabi jihatlar bizga oddiy, jo'n va arzimas bo'lib ko'rinishi mumkin. Ammo shu kichik narsalar ham mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlod ongini zaharlaydi. Davlatimiz rahbari bu illatni bartaraf etish uchun mutasaddi idoralar ko'magi bilan qanchadan-qancha ishlarni amalga oshirayotgan bir paytda, ba'zi mansabdor shaxslarning o'zlari bu ishga qo'l urayotganini hech qanday bahona bilan oqlab bo'lmaydi. Yana bir jihat: vijdon masalasi. Vijdon uyg'oqligi har qanday sharoitda bu illatning amalga oshishiga to'siq bo'lib turadi. Demak, korrupsionerlarni bir ibora bilan vijdonini yo'qotganlar deyish mumkin. Vatanimizda shunday vijdotsizlar ko'paymasligi uchun tinimsiz kurashishimiz zarur.

Xalqimiz hamisha adolatsizlikdan aziyat chekib kelgan. Adolatsizlik qurboni bo'lib qolishlarida fuqarolarning huquqiy bilimlari yetishmasligi ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Indallosini aytganda, korrupsiya yuzaga kelishiga o'zimiz ko'p hollarda yo'l ochib beramiz. Ishimiz oson bitsin, deb kimgadir pora taklif qilamiz yoki sovg'a, hadyalar bilan siylaymiz.

Biz o'quvchilar bugungi kundagi asosiy vazifamiz yaxshi bilim olib, a'lo xulqli bo'lishimiz, eng asosiysi, mana shu kabi illatlarga nafratimiz kuchli bo'lishi, qo'l urishdan hazar qilishimiz, ertangi biz o'ylagan yorug' istiqbollarga yetaklashiga ishonaman.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Dunyoqarashni nima o'zgartiradi: ilm, tarbiya, daromad». Shuning uchun dunyoqarashimizni kengroq qilib, oldimizga yuksak marralar qo'yib, sof vijdon bilan kelajakda yurtimizga nafi tegadigan o'g'il-qizlar bo'lib yetishaylik.

Azizlar, biz korrupsiyaga qarshimiz va birga yengamiz.

Mohigul MAMATQULOVA,
Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 7-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

TANAZZULNING ESHIGI

Korrupsiya juda qadimdan beri yashab kelayotgan illatdir. Hozirgi kunda bu illatning naqadar xavfli ekanligi bizga, siyosatchilarga juda yaxshi ma'lum. U bor joyda yuksalish bo'lmaydi. Rivojlanayotgan davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashishni bosh maqsadlardan biri qilib qo'ygani bejiz emas.

Bu illatga qarshi kurash jahon tashkilotlari doirasida ham amalga oshirilgan va oshirilyapti. Jumladan, korrupsiya bo'yicha indekslar mavjud bo'lib, 2016-yili Rossiya davlati 180 ta davlat orasida 2,5 ball olib, Gambuziya kabi davlatlar qatoriga tushib qolgan, ya'ni 143-o'ringa. O'zbekiston esa 180 ta davlat ichida 150-o'rinda. G'arb davlatlarida ham korrupsiyaga qarshi jadal ishlar olib borilmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali so'rab-surishtirilib, mansabdor shaxslar davlat organlari tomonidan sodir etilgan poraxo'rliklar ayovsiz tarzda fosh qilinmoqda.

Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat natijasida korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurash ketmoqda. Har bir davlat o'z hududiga mos holda kurashish yo'lini tanlaydi. Chunki bir davlatda foyda bergan usul boshqa davlat foyda bermasligi mumkin. Korrupsiya o'ziga sodir etiladi? Mana shu savolning javobini topsak, yechimiga yaqinlashgan bo'lamiz. Mansabdor shaxslarning oyliklari oshirildi, huquq-tartibot organlari nazorati kuchaytirildi.

Bir qarashda korrupsiya oddiy jinoyatchilikdek ko'rinsa ham, aslida, juda murakkab tuzilishga ega. Qadim zamonlarda odamlar qabila boshliqlariga mansabi ko'tarilishi uchun sovg'a-salomlar berishgan. O'sha paytlarda bu yomon holat ekanligini hech kim bilmagan. Tarixda Usmoniylar imperiyasi tanazzulida aynan korrupsiyaning o'rni borligi bizga tarixidan ma'lum. Xalifa Motudur davrida soliq, harbiy xizmat kabilarni vazirlarga yuklab qo'yish boshlangan. Natijada davlat g'aznasiga pul kerak bo'lganda vazirlar va ularning yordamchilari tomonidan soliq yig'ish jarayonida poraxo'rlik avj olgan. Ko'pchilik insonlar korrupsiyasining bartaraf qilib bo'lmaydi deb hisoblaydi. Fikrimcha, buning iloji bor. Korrupsiyaga qarshi kurashni oiladan boshlash kerak. Bunda ayollar beqiyos rol o'ynaydi. Agar ular oilalarga kirib kelayotgan mablag'larning halolligini surishtirsalar va xo'jayinlariga nopok yo'l bilan bilan topilgan mablag' yuqmasligini va farzandlarining ham kelajagiga ta'siri bor ekanligini uqtirsalar, shuning o'zidayoq butun dunyo bosh qotirayotgan muammo hal bo'lar edi. Demak, jamiyatning negizi oila ekan. Oilaga ahamiyatni kuchaytirish kerak ekanligi ma'lum bo'ldi. Oila markazlarida ham endigina turmush qurmoqchi bo'lgan yigit-qizlarga turmush yo'li davomida bunday illatni hech biri sodir etmasliklari uqtirilsa, foydadan xoli bo'lmas edi. Qonunga amal qilaylik!

Dilnoza NIZOMIDDINOVA,
Sirdaryo viloyati Shirin shahridagi 2-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – TUBANLIK

Men vijdoniga qarshi borib, shaxsiy manfaatini yuqori qo'yib, ishini yengillik bilan bitirib, o'zi, oilasi hamda jamiyatni inqirozga yuz tuttiruvchi insonlardan yaxshi xulosa chiqarib, qiyinchilik, mashaqqatlar bilan bo'lsa ham, o'z maqsadimga qing'ir yo'llarsiz erishishni birinchi darajali niyatim deb baholayman.

Korrupsiya – inson va jamiyatga xavf soluvchi illat. Agar u jamiyat hayotida chuqur ildiz otib ketsa, ana shu xalq inqirozga yuz tutadi. Tasavvur qilib ko'raylik. Bir bilimi, savodi yo'q bola pul bilan o'qishga kirdi. O'qishni ham pul bilan bitirib, diplom oldi. So'ngra tanish-bilish, pora bilan amallab ishga kirdi. Endi u o'ziga o'xshagan, bir emas, yuzlab, minglab o'quvchilarni yetishtiradi. Shu tariqa bilimsiz, uquvsiz, savodsiz kishilar jamiyatni qamrab oladi. Endi ularning na oilasi, na xalqiga, na yurtiga foydasi tegadi.

Qachonki har bir fuqaro qonun-qoidalariga majburiyat yuzasidan emas, balki o'z vijdoni yuzasidan amal qilsagina biz, albatta, bu illatdan butunlay xalos bo'lamiz. Har birimiz bu kushandaga jiddiy e'tibor berib, qattiq yondashsak, albatta, jamiyat gullab-yashnaydi. Bu esa bizning ham burchimiz, ham farzimizdir!

Mahliyo JUMAGELDIYEVA,
Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanidagi
55-umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – XALQARO OFAT

Inson! Alloh bizni shu besh harf mazmuni bilan imyonli, nomusli, sadoqatli oriyatli, noyob qilib yaratdi. Shu sababli yer yuzi ko'rkam, hayot esa go'zal bo'ldi. Biroq yorug'likning zulmati, oqning qorasi bo'lgani kabi insoniylikni unutgan kimsalar uchrab turadi. Bularga ota-onaga qo'l ko'targan farzand, Vatanini sotgan xoin, yomon qo'shni yoki tovlamachilik, poraxo'rlikni kasb qilib olgan kimsalarni kiritishimiz mumkin. Bu illatlar orasida «Xalqaro ofat» deya e'tirof etilgan korrupsiya jinoyati eng xavflisidir.

Korrupsiya! Bu so'z «hokimiyatni buzish», «chiritish orqali sotib olish» degan ma'noni bildiradi. Korrupsiya-ning keng tarqalgan turlariga poraxo'rlik, firibgarlik va tovlamachilik kiradi. Bunday jinoyatlarning ko'plab sodir etilishi iqtisodiyotni zaiflashtirib, siyosiy boshqaruvni izdan chiqarishi, fuqarolarning davlat tizimi va siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkin.

Osmono'par binolar dovul va bo'ronlarga bardosh bera olishi, bir necha asrlardan buyon qulamasdan, qad rostlab turishi uning poydevori mustahkamligidadir. Shuningdek, inson yaxshi yashashi, chiroyli turmush kechirishi ham tarbiyasiga bog'liq. Abdulla Avloniy aytganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir». Farzand tarbiyasidagi nosog'lom muhit ham korrupsiyaning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Chunki moddiy boylik orttirish payida bo'lgan har qanday

kishi tamagirlik, poraxo'rlik kabi jinoyatlarni sodir etadi. Natijada qing'ir yo'l bilan topilgan boylik evaziga farzandlarini voyaga yetkazadi. Bunday muhitda tarbiya topgan farzandlar korrupsiya illatining davom etishiga sababchi bo'ladi.

Korrupsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'tish davridagi qiyinchilik;
- ijro etish tizimining yomonlashuvi;
- huquqiy nigilizm;
- jamiyatda insonlarning huquqiy madaniyati.

Korrupsiya insonlarning bilimsizligi, o'z nafsini tiya olmasligi, manfaatini hamma narsadan ustun qo'yishi orqali ham yuzaga keladi. Bu illat tufayli inson o'z nafsining quliga aylanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Korrupsiya insonning qalbiga bostirib kirib, uning ong-u tafakkurini izdan chiqaradigan vositadir». Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ham bosh qahramon – Qobil bobo tamagir amaldorlar qurboniga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

Korrupsiyaning jamiyat va davlat uchun zarari cheksiz va xavflidir. Bu jinoyat inson va jamiyat hayotiga katta xavf soluvchi illat hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, Amir Temur davrida ham davlat mulkiga xiyonat qilgan mansabdorlar kechirilmaganiga guvoh bo'lamiz. Sohibqiron o'z davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan so'roq, taftish, tergov o'tkazib turgan. Poraxo'rlik, doimiy ichkilik ichish, maishiy buzuqlik kabi qilmishlar og'ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, o'g'li Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Halil Sultonlar yuqorida zikr etilgan me'yorlarni buzganlik uchun xalq oldida jazoga tortilgan.

Korrupsiyaning inson va jamiyat hayoti uchun katta xavf ekanligini 2020-yil 1-mayda sodir bo'lgan Sardoba voqeasida ko'rib o'tishimiz mumkin. Sardoba suv omborining

qiymati 1,3 trillion so'm (404 million AQSh dollari)ni tashkil etadi. Suv ombori o'pirilib, O'zbekistonning Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlari va Qozog'istonning Paxtaorol tumanidagi o'nlab aholi punktini suv bosdi. Aholi ham moddiy, ham ma'naviy zarar ko'radi. Inson hayotiga tahdid eng og'ir jinoyatdir! Hozirda koronavirus pandemiyasi kuzatilayotgan og'ir paytda ham ayrim uddaburonlarning vaziyatdan unumli foydalanib qolishga harakat qilayotganliklari sir emas. Har yili dunyo mamlakatlari korrupsiyadan zarar ko'rmoqda. Dunyoning 150 ta rivojlanayotgan davlatida 6 trillion dollarga yaqin pul korrupsiya bois ko'kka sovurilgan. Bunday davlatlar ro'yxatining boshida Xitoy turibdi. Rossiyada korrupsiya keltirgan zarar 152 milliard dollarga teng.

Afrika davlatlarida eng korrupsiyalashgan hudud – Nigeriya. U yerda noqonuniy kapital aylanmasi 129 milliard dollarga teng. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni nazarda tutuvchi moddalari quyidagilardan iborat:

- 1) soxta tadbirkorlik (179-modda);
- 2) soxta bankrotlik (180-modda);
- 3) hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (206-modda);
- 4) mansab soxtakorligi (209-modda);
- 5) pora olish (210-modda);
- 6) pora berish (211-modda);
- 7) pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda) va boshqalar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qonun dastlab 1906-yil 4-avgustda Buyuk Britaniyada, 1947-yilda Pokistonda, 1960-yilda Singapurda, 1970-yilda AQShda qabul qilingan. 2016-yil 19-yanvarda O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar kompleks rejasi ishlab chiqildi. Ushbu kompleks reja asosida O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga

qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni 2017-yilning 3-yanvar kuni qabul qilindi va joriy yilning 4-yanvar kuni rasmiy e'lon qililib, kuchga kirdi. Qonun 6 bob, 34 moddadan iborat. Qonunning 7-moddasiga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi.

Jahon miqyosida quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlarni alohida ta'kidlab o'tish lozimdir:

a) BMTning «Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi»;

b) Yevropa Ittifoqning «Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasi»;

d) Yevropa Ittifoqning «Korrupsiya uchun fuqaroviy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasi» va boshqalar.

Bugungi kunda har birimiz qonunga itoatkor bo'lishimiz, bir yoqadan bosh chiqarib, korrupsiyaga qarshi kurashishimiz lozim. Har bir inson halol mehnat qilishi, qing'ir yo'llarga kirmasdan yurt ravnaqiga hissa qo'shishi shart va zarurdir.

Hurbibi TOSHMURODOVA,
Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi 66-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA OQIBATLARI

Korrupsiya – nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch, uning oqibatida milliy iqtisodga putur yetadi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo'qoladi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda ma'naviyat izdan chiqa boshlaydi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Korrupsiya buzg'unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham insoniy jamiyat qadim zamonlardan beri unga qarshi kurashib keldi. Islom dinida ham pora olish harom qilingan, bu borada hadislar ham juda ko'p.

Alisher Navoiyning zamondoshi podshoh Husayn Boyqaroning voizi Husayn voiz Koshifiy o'zining «Axloqi muhsiniy» asarida shahzodaga nasihat tariqasida quyidagi pandni bergan edi: «Ummollardan (ish yurituvchi, amaldorlar) pora olishdan ehtiyot bo'lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqalarga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo'lsa, pora olishga ruxsat bergan bo'ladi. Pora berish va bu porani olish haromdir. Pora olgan pora bergandan yomonroq bo'ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo'ladi».

XX asrga kelib Shvetsiya, Singapur, Yangi Zelandiya, Shveytsariya kabi mamlakatlar korrupsiyani qattiq jilovlashga muvaffaq bo'ldi. Hozirgi davrdagi «korrupsiya» tushunchasini sharhlaydigan bo'lsak, bu so'z «shaxsiy foyda olishda hokimiyatni suiiste'mol qilish» ma'nosida ishlatiladi. Boshqaruvning kuchsizligi asosiy omil sanaladi. Masalan,

kadrlar tayyorlash, hisobga olish va nazorat qilishning samarasizligi, mansabdorlarni yollashning osonligi va ularni oson ishdan haydash, ularda uzoq vaqt mansabda turishga ishonchsizlik paydo bo'lishi kabilar korrupsiyani rag'batlantiruvchi omillardir.

Hukumat ba'zan jamiyatning shunday talablariga duch keladiki, ularni bajarishning rasmiy tartiblari hali aniq ishlanmagan yoxud ularga ko'p miqdorda mablag' talab etiladi, aksar hollarda uzoq muddatlarga cho'ziladi. Shunday hollarda korrupsiyaga to'g'ridan to'g'ri va qisqa yo'llar ochiladi.


O'zbekiston mustaqillik yillarida ba'zi mansabdorlarning tadbirkor va fermer xo'jaliklari mulklariga tamagirlik ko'zi bilan qarashi, bankdan kredit olishi yo'liga sun'iy to'siqlar qo'yishi zahirida korrupsiyaviy manfaatlar yotgan edi. Yoshlarning oliy ta'lim muassasasi, tanlov yuqori bo'lgan kollej va litseyga o'qishga kirishida, talaba bo'lgandan so'ng esa joriy va yakuniy nazorat bo'yicha zarur ballarni to'plashida ayrim «ustozlar»ning tamagirliги negizida ham shu illat yashab keldi. Shuningdek, nufuzi va maoshi yuqori bo'lgan korxona-idoralarga kirishida, yuqori mansab darajasiga ko'tarilishida, turli tenderlarni yutishda xomashyo va boshqa resurslarni taqsimlashda korrupsiyaning xalq tilida «shapka» deb ataluvchi ko'rinishi urchiy boshladi. Ba'zan aholiga uy solish yoki foydalanish uchun yer maydoni ajratish, davlat mulkini xususiy lashtirish, faoliyat yuritish bo'yicha litsenziya olish kabi talab-ehtiyoji yuqori bo'lgan sohalar ham o'zini korrupsiya manbayi o'laroq namoyon etgani hech kimga sir emas. To'g'ri, mustaqillik davrida korrupsiyani jilovlash va tugatish borasida birmuncha islohotlar amalga oshirildi. 2008-yilda O'zbekiston BMTning «Korrupsiyaga qarshi konvensiya»siga qo'shildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish va demokratlashtirish maqsadida 2014-yilda qabul qilingan «Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi qonun esa axborotdan erkin foydalanish va bu borada xalqaro standartlar me'yorlarini implementatsiya qilishda muhim qadam bo'ldi. Taassufki, korrupsiyaga qarshi kurashishda bu ijtimoiy illatning tomirlarigacha yetib borilmadi. Oqibatda ko'rilgan barcha chora-tadbirlar besamar ketdi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurash 2016-yilning oktabr oyidan boshlandi. «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun loyihasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi va 2017-yil 4-yanvardan boshlab kuchga kirdi. Mazkur qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishda munosabatlarni to'liq tartibga solish, davlat boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishi yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish nazarda tutiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi amalga oshirgan islohotlari – barcha davlat boshqaruvi organlarining asosiy yo'nalish sifatida xalq xizmatini qilish uchun belgilab qo'yilishi, sud va huquqni himoya qilish organlarining xalq oldida mas'ulligi va hisob berib borish prinsiplarini o'rnatilishi, tadbirkorlik rivojlanishi. Bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatilmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashishni tashkil eta olmaymiz. Bu illat bilan nafaqat huquqni himoya qiluvchi organlar, balki har bir jamoa jiddiy kurashishi kerak.

Har bir o'g'il-qiz ona Vatanining gullab-yashnashini chin dildan xohlaydi. Men ham tug'ilib o'sgan, jondan aziz

yurtimni barcha yurtlar qatori obod bo'lishini chin dildan istayman. Biz yoshlar fan cho'qqilarini egallab, nasib etsa, yetuk kadrlar bo'lib yetishamiz. Yuqorida aytib o'tilgan jirkanch illatlardan yurtimizni xoli hududga aylantiramiz. Buning uchun hammamiz birgalikda harakat qilsak, shuning o'zi kifoya.



Guliroz TURSUNOVA,

Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 2-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA YOSHLARNING O'RNI

Bugungi kunda butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solib kelayotgan bu illat azaldan jamiyat va davlat ravnaqiga zimdan to'sqinlik qilib kelayotgan eng jirkanch omillardan biridir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyat shakllanish jarayonini ilk davri bo'lmish ibtidoiy jamiyatlarda ham korrupsiyaning ayrim ko'rinishlari bo'lib, o'sha davrda qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqlarga muayyan bir imtiyozni egallash uchun haq to'lash tabiiy hol hisoblangan. Xalqaro darajada 1970-yilda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha «Lokxid ishi» eng yirik korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi. Korrupsiyaning eng keng tarqalgan turlariga poraxo'rlik, firibgarlik, tovlamachilik kiradi. Bunday jinoyatlarning ko'plab sodir etilishi iqtisodiyotni zaiflashtirib, siyosiy boshqaruvni izdan chiqarishi va fuqarolarning davlat tizimi va siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkin.

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi davrda ushbu turdagi jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan, unga qarshi kurashuvchi davlat idoralari, ularning tarkibiy tuzilmalari tashkil etilgan bo'lsa-da, unga qarshi kurashish ko'ngildagidek bo'layotgani yo'q. Tom ma'noda korrupsiyaviy jinoyatchilik ildiz

otib, miqdori kun sayin oshib bormoqda. Eng xatarlisi esa odamlarning bunday holga nisbatan befarqligi, unga oddiy holat sifatida munosabatda bo'lishidir. Mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog'i darkor. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuch-g'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to'la-to'kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro korrupsiya yo'liga o'z vaqtida zarur to'siq qo'yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab yetmog'i lozim.

Biz korrupsiya balosiga birgalikda, ahillik bilan kurashmog'imiz zarur. Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Undan tashqari, ishga joylashish masalasida har kim «tanish-bilish» tizimi, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik kabi «ijtimoiy hodisa»larga duch kelishi tayin.

Shuningdek, kuchli fuqarolik jamiyatining haqiqiy belgisi sifatida davlat organlarining xalq oldida hisobdorligi, ularning faoliyati va moliyaviy harakatlar aniq raqamlar bilan ifodalanishi shart. Har bir sohaning xalq oldidagi hisobdorligidan tashqari, ayni paytda Oliy Majlis a'zolari, vazir va davlat qo'mita raislari, yuqori rahbarlik lavozimida ishlaydigan amaldorlarning shaxsiy mol-mulki, daromadlari hamda ularning manbasi shu paytgacha ko'rsa-

tilmagan. Hisobdorlik shakli qanday bo'lishi kerak? Agar bironta vazirlik misolida qisqacha tushuntirish berilsa, hisobdorlik belgilangan vazifalar, taqvimdagi masalalar hamda bajarilgan ishlar kabi harakatlar bilan to'yintirilishdan tashqari, moliyaviy shaffoflikni talab etadi. Bunda har qanday oddiy xalq vakili istagan savoliga javob olishga haqli bo'lishi nazarda tutilsin. Xulosa shundaki, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog'lom yashashida namoyon bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, tamagirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga minb'ad chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarur. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmaydi. Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko'zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Mutaxassislar fikricha, korrupsiya so'zi «sotish» va «sotilish» degan ma'nolarni ham anglatar ekan. Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari, o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Oliy o'quv yurtida talabadan yo uning ota-onasidan pora olgan, tamagirlik qilgan degan yo boshqa mansabdor shaxs uchun iymon, vijdon, insoniylik degan tuyg'ular bo'lmaydi. Ular harom-harish yo'l bilan topganlarini farzandlariga yegizayotganini tushunmaydi. Bunday oilada o'sgan o'g'il-qizlar ertaga undan battar ochofat, yulg'ich, poraxo'r bo'lib o'sadi va bir kunni, albatta, qopqonga tushib, umri panjara ortida o'tadi. Mana shu haqiqatni oliy o'quv yurtlaridagi

har bir mansabdor shaxs yaxshi bilib olishi zarur. U bugun qilayotgan qing'irliklarimni hech kim bilmaydi, sezmaydi, deb o'ylaydi. Oriyatli, vijdonli ziyolilar ular haqda tegishli idoralarga xabar berib qo'yishni o'zlarining vijdoniy burchi, pokiza yashashga intilgan xalq oldidagi qarzi deb bilmoqdalar.

Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning chalgidan qutqarish sharaflı burchimiz ekanligini hamma birdek tushunmog'i shart. Aks holda, o'ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo'rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar jazoga tortilishi muqarrar. Darhaqiqat, har qanday vaziyatda ham halol odam hayotda g'olib bo'lib, baxtli-saodatli yashaydi. Bugun butun jamiyatimiz ana shunday pokiza hayotga intilmoqda. Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning oldini olish masalalarini samarali yechish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Dilshoda RO'ZIYEVA,
Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 56-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

PORA KANDA BO'LMASA, PAROKANDA BO'LAMIZ!

Korrupsiya qadimdan mavjud bo'lib, ayirboshlashning noqonuniy, ya'ni boshqa bir insonlarga yoki atrof-muhitga, hayvonot va o'simlik olamiga zarar yetkazadigan amal hisoblanadi. Korrupsiya – jahondagi har qanday davlatda fuqarolarning tinchligi va xotirjamligi, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvchi, o'ta xavfli illatlardan biridir. Xalqaro institutlarning xabar berishicha, rivojlangan davlatlarda korrupsiya maksimal 15 foiz ekan. Demak, u davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashib, yaxshi natija ko'rsatganligi uchun ham hozirda rivojlangan davlatlar qatorida o'rin egallab turibdi. Bunday turdagi illatga qarshi kurashish uchun, avvalambor, insonlarning ongini yuk-saltirish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish zarur. Korrupsiya natijasida xalq va davlatning rivojlanishi ortda qolayotganligini va kelajakda yoshlar bizdan yomon o'rnak olishini tushuntirishimiz lozim. Hozirgi kunda korrupsiya eng kam uchraydigan davlatlar Daniya, Yangi Zelandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur. Korrupsiya rivojlangan davlatlar esa Afg'oniston, Tunis, Jazoir, Afrika davlatlaridir. E'tibor bersak, korrupsiya rivojlangan davlatlar necha yildan beri notinch. U davlatda urushlar va qon to'kilishlar oddiy holga aylanib bo'lgan va bularning asosiy sabablaridan biri bu – korrupsiya. Demak, qachonki, o'sha davlatda puldan ko'ra xalqning manfaatlari

ustun qo'yilsa, shundagina tinchlik yana u yurtlarga qaytadi deb o'ylayman.

Korrupsiya ko'rinishlari juda ko'p. Xalqaro darajada 1970-yilda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha «Lokxid ishi» eng yirik korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi. Korrupsiya turlarga bo'linadi. Bulardan eng keng tarqalganlariga: poraxo'rlik, firibgarlik, tovlamachilik, nepotizm kiradi. Korrupsiyadan ko'riladigan zararlarning ko'lami cheksizdir. Global moliyaviy oshkoralik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2001-yildan 2010-yilga qadar dunyoning 150 rivojlanayotgan davlatida 6 trillion dollarga yaqin pul korrupsiya sabab ko'kka sovurilgan. Bunday davlatlar ro'yxatining boshida Xitoy turibdi. O'tgan 10 yil davomida bu o'lkada 2,75 trillion dollar noqonuniy oldi-berdi uchun sarflangan. Ayni davrda Meksikada 476 million dollar pul davlat g'aznasidan o'marilgan, ya'ni har bir fuqarodan 4500 dollardan o'g'irlanadi degani. Respublikada korrupsiya keltirgan zarar 152 milliard dollarga teng. Afrika davlatlaridan eng korrupsiyalashgani Nigeriya. U yerda noqonuniy kapital aylanmasi 129 milliard dollarga teng.

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llari to'g'ri tarzda davom ettirilmoqda. Mamlakatimizda joriy yilning 4-yanvaridan esa «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun kuchga kirdi. Bu qonun 6 bob va 34 moddadan iborat bo'lib, unda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar va me'yorlar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurash bu murakkab va butun bir tadbirlar dasturidan kelib chiqadigan jarayon bo'lishi lozim. Ko'pchilik ishonganidek,

poraxo'rlikka qarshi ish haqi va maoshni oshirib qo'yib, kurashib bo'lmaydi. Barcha mansabdorlar maoshini ko'tarib qo'yish bu ularni pora olmaydi, degani emas. Garchi davlat amaldorlarining moliyaviy ahvoli muhim ahamiyatga ega bo'lmasa-da, 2018-yil aprelda O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risidagi»gi qonuni qabul qilindi. Bu qonunning 12-moddasida shunday nom qo'yildiki, bu nom insoniyat hayotiga foyda keltiradi. Bu nom: «Korrupsiyaga yo'l qo'yilmaslik prinsipi» edi. Bunda korrupsiyaning oldini olish ancha tezlashdi. Zero, Aristotel aytganki: «Hokimiyatga pul bilan erishgan odam undan daromad olishga intiladi».

Do'stlar, korrupsiyaga befarqlik bilan qarash uning ildiz otishiga sabab bo'ladi. Bu illatga qarshi kurashni o'zimizdan boshlashimiz zarur. Shundagina biz jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga, fuqarolarning davlat idoralariga ishonchini mustahkamlash, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatining xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirishga erishamiz.

Agar bugun bu illatga qarshi keskin va ayovsiz kurash boshlanmasa, huquq-tartibot, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat sohalarida kelajakda faoliyat boshlaydigan yosh avlodning qalbi jarohatlanadi, ongi zaharlanadi.

Darhaqiqat, har qanday vaziyatda ham halol odam hayotda g'olib bo'lib, baxtli-saodatli yashaydi. Bugun butun jamiyatimiz ana shunday pokiza hayotga intilib yashamoqda. Shuni unutmaslik kerakki, pora kanda bo'lmasa, kun kelib parokanda bo'lamiz.

Muxlisa QORABOYEVA,
Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 3-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 10-«D» sinf o'quvchisi

«LOYKXID ISHI»

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Dunyoda rivojlanish va taraqqiyot yo'lini tanlagan har bir davlat, eng avvalo, korrupsiyaga, tamagirlik, poraxo'rlik kabi illatlarga qarshi murosasiz kurash olib boradi. Aks holda, bunday jirkanch illatlarning tomir otishiga yo'l berilsa, o'sha joyda taraqqiyot va rivojlanish boy beriladi. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashni o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi. Har bir davlatda korrupsiya va poraxo'rlik davlatni ich-ichidan yemiruvchi omil sifatida ko'rsatiladi. Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat.

Har qanday jamiyat uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biridir. 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha «Loykxid ishi» jahondagi eng yirik korrupsiyaga misol bo'ladi. Korrupsiyaning tarixiy o'zatlari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Qadimgi davlatlarni, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazadi. Korrupsiyadan ko'rilyotgan zararining ko'lami cheksiz. Korrupsiya demokratiya ustuvorligi asoslariga putur yet-

kazadi, inson huquqlarining buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Har bir mamlakatda bo'lgani kabi bizning yurtimizda ham korrupsiya yo'q emas. Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xalqimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatimizda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan bir qator choralar ko'rilmogda. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvar kuni «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun imzolandi. Tarixan qisqa davr ichida mamlakatimizda qonuniylik va huquqiy tartibot asoslari shakllantirilib, korrupsiya, poraxo'rlik kabi yomon illatlarning bartaraf etilishida samarali tizim yaratildi. Poraxo'rlik va korrupsiya o'zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga xalaqit bermoqda. Buning uchun biz korrupsiyaning kichik bir ko'rinishi sodir bo'lsa-da, e'tiborsizlik qilmasligimiz kerak. O'zbekistonimiz har tomonlama rivojlanishi, iqtisodiy jihatdan qudratli bo'lishi uchun korrupsiyasiz hayot qurmoq lozimdir.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida mustahkam asos yaratilgan. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi korrupsiya va poraxo'rlikni ildizi bilan quritish uchun barcha zaruratlar ko'rilmogda.

Biz yoshlar porloq kelajak, sog'lom va barqaror jamiyat uchun korrupsiyaning har bir alomatini yo'qotishimiz darkor. Korrupsiyasiz hayot insonlarni vijdonli, halol va

pok yashashga, har bir mas'uliyatli kishini o'z mansabini suiiste'mol qilmaslikka undaydi. Biz yoshlar hayot yo'limizda korrupsiyasiz yashashga, korrupsiya ko'chasiga kirganlarni jamiyatimiz oldida, xalqimiz oldida xiyonat qilishidan qaytarishimiz kerak.

Aziza HIKMATOVA,

Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi 16-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA - JAMIYAT TARRAQIYOTINING ZAVOLI

Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari, o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga non-tuz berib katta qilgan, ilm-hunar, obro' va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo'yadi. Masalan, oliy o'quv yurtida talabadan yo uning otasidan pora olgan, tamagirlik qilgan degan, yo boshqa mansabdor shaxs uchun imyon, vijdon, insoniylik degan tuyg'ular bo'lmaydi. Ular egri yo'l bilan topganlarini oilasida o'z farzandlariga harom luqma sifatida yedirayotganlarini tushunmaydi. Bunday oilada o'sgan o'g'il-qiz ertaga undan battar ochofat, yo'lg'ich, poraxo'r bo'lib o'sadi va umri panjara ortida o'tadi. Mana shu haqiqatni oliy o'quv yurtlaridagi har bir mansabdor shaxs yaxshi bilib olishi zarur. U «Bugun qilayotgan qing'irliklarimni hech kim bilmaydi, sinamaydi», deb o'ylaydi. Vaholanki, bugun odamlarning ko'zi ochilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida qaysi dekan yoki mansabdor shaxs shunday qing'irliklar qilayotganini atrofdagilar yaxshi bilishadi. Oriyatli, vijdonli, ziyolilar ular haqida tegishli idoralarga xabar berib qo'yishni o'zlarining vijdoniy burchi, pokiza yashashga intilgan xalq oldidagi qarzi deb bilmoqdalar.

Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, tamagirlik

kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarur. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmaydi. Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir davlat yo'lini o'zi tanlaydi.

Korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini endi jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash – toza vijdonli, oriyatli insonlar qalb amriga aylanmog'i lozim. Darhaqiqat, har qanday vaziyatda ham halol odam hayotida g'olib bo'lib, baxtli-saodatli yashaydi. Bugun butun jamiyatimiz ana shunday pokiza hayotga intilmoqda.

Madina ABDURAHIMOVA

Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 19-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi

QARS IKKI QO'LDAN CHIQADI

Inson yashab o'tgan umri davomida ko'plab hodisalar, voqealar va g'ayritabiiy ofatlarga duch keladi. Shunday ekan, bularning orasida poraxo'rlik ham ko'p uchraydi. Bu illatni yo'qotish inson zotining o'ziga bog'liq. Zero, odillik bo'lmagan joyda adolat olovi hech qachon yonib turmaydi. Hayot jo'shib oqayotgan bir pallada xalqning yoqasidan tortayotgan ayrim razil kimsalar insonni o'ylantirib qo'yadi. Aslida esa pora berayotgan kishi ham farishta emas. Ayta-dilarki: «Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi», deb. «Qars ikki qo'ldan chiqadi», deganlari shu bo'lsa, ajab emas. Bu xalq dushmani davlatni tomiridan kemirib bormoqda. Shu illat bo'lmaganida, barcha insonlar bir qoidaga amal qilganida edi, hayotimiz gullab-yashnayotgan bo'lar-di. Insonda zarracha insof degan tuyg'u bo'lganida edi, bu zamon allaqachon ziyoli kishilarga to'la bo'lar edi. Bu xalq dushmanini yengish, uni obod O'zbekistonimizdan quvib chiqarish o'zimizning qo'limizda. Shuni unutmangki, agar xalqda odillik bo'lmasa, u hech qachon oldinga siljimaydi. Shunday go'zal, quyoshli yurtimizda o'z huquqlarimizni bilib, halol yashashga nima yetsin?! Kelajakda, albatta, har-biy bo'laman. Yurtimizni ko'z qorachig'idek asrab-avay-layman. Shu kezlarda o'zim korrupsiyaga chek qo'yaman, yurtimni poraxo'rlik degan illatdan qutqarib, bayrog'imni jahon minbariga ilaman. Vatanim oyog'iga chirmashib olgan zanjirlarni adolat mash'ali bilan olib tashlayman. Bu so'zlar shunchaki yozilmadi.

Рухсора ҲИКМАТОВА,
Вилояти Тошканд Ноҳияи Паркент Мактаби миёнаи
рақами 14 Хонандаи синфи 10 «А»

МУҚОВИМАТ БА КОРРУПСИЯ

Пеш аз дар бораи коррупсия гап задан бояд дар бораи ҳуди коррупсия маълумот дод, ки худ калимаи коррупсия чист? Калимаи «Коррупсия» ба истилоҳ фасод, вайронкунанда, зараррасонда ва фурӯхтани ягон кор, мансаб маънидод карда шуда, ҳамчун рафтори истифода намудани имкониятҳои мансаб ба манфиати шахси фаҳмида мешавад ва афроди ба чунин амал даст зада, дар ҳамаи давраи замони аз ҷониби аҳли ҷомеа маҳкум мегардиданд.

Дар санадҳои меъёрии ҳуқуқии байналминалӣ вобаста ба пешгирӣ ва мубориза бар зидди коррупсия низ махсус қайд гардида, аз ҷумла дар моддаи 7-уми кодекс рафтори шахсони мансабдор оид ба таъмини тартиботи ҳуқуқӣ, ки бо қатъномаи Ассамблеяи Генералии СММ аз 17-уми декабри соли 1979 қабул шудааст, дарҷ ёфтааст, ки шахсони мансабдор оид ба таъмини тартиботи ҳуқуқӣ бояд ягон намуди кирдори коррупсиониро содир наkunанд ва барои пешгирии ҳамаҷонибаи чунин омилҳо ва мубориза бар зидди он кӯшиш намоянд.

Мубориза бар зидди коррупсия дар ҷаҳон ба як масъалаи глобалӣ табдил ёфтааст. Дар дунё кишваре нест, ки бо ин мушкилот рӯбарӯ нашуда бошад.

Асосан мафҳуми муқовимат ба коррупсия ин фаъолияти тамоми мақомоти ҳокимияти давлатӣ ҷиҳати ошкор, пешгирӣ ва бартараф намудани сабабу шаро-

итҳои ба коррупсия мусоидаткунанда, ошкор ва мубориза ба ҷиноятҳои коррупсионӣ инчунин кам намудани содиршавии чунин қонуншиканиҳо ва бартарафсозии оқибатҳои онро дар бар мегирад.

Бояд таъкид намуд, ки коррупсия яке аз зухуроти хавфноки ҷомеа буда, дар миқёси ҷаҳонӣ ҳамчун ҷинояти вазнин ва яке аз унсурҳои таҳдидкунанда ба амнияти миллӣ ва поксозии рушду суботи иҷтимоӣ иқтисодии давлат эътироф гаштааст.



Гаухардың ҚАЮМОВА,
Ташкент облысы Жоғары Шыршық ауданы
6-жалпы орта білім мектебінің 10-сынып оқушысы

БІЗ СЫБАЙЛАС ЖЕМҚОРЛЫҚҚА ҚАРСЫМЫЗ


Бүгінге күнге келіп ең жиі қолданылып жатқан сөздердің бірі бұл – «коррупция». Жай өмірде оның ошағына кіріп, аяғы сынып жатқан адамдар аз емес. Бұрынғы заманда түрлі тайпалардың бастықтарына жағымпаздану үшін түрлі сыйлықтар беру әдеті сыбайлас жемқорлықтың басталуына кең жол ашып берді. Бірақ ол кездерде мұндай сыйлықтар тарту ету жай көзқарас деп есептелінген. Бірақ қазіргі күнге келіп сыбайлас жемқорлықтың мемлекет дамуының төмендеуіне алып келуі байқалып тұр. Жиі құлаққа есітіліп тұратын сөздер. Балабақшадан жоғары оқу орындарына дейінгі, айыптылардың өзі жоғары лауазым иелері, сондай-ақ көптеген адамдар түрмеде жазасын өтеп шықса да, сыбайлас жемқорлықты толық жоюға мүмкіндік болмай тұр. Бірақ не үшін олай? Себебі оңай: адамдар қиналып өз еңбегімен жетістікке жетудің орнына жай ғана ақшаны ортаға салып пара беруді өзіне оңай жол біліп жүргендер де аз емес. Әрине, мұндай адамдардың саны көбеюінің немесе азаюы жалғыз жолы өзімізге байланысты.

Бір кісінің ғаламторда «Сыбайлас жемқорлыққа қарсы күресетін мемлекеттердің өзінде де коррупция бар» деп жазғаны адамды терең ойландырады. Бұл пікірді XVII ғасырда жасап өткен Томас Гобстің «Сыбай-

лас жемқорлық – замандар алаңында өсіп келе жатқан жаңа көшет болып жүрген кезде, түрлі ниет әуестермен болған кезде, бірде-бір сөзді есітпей жасау» деген сөйлемі және де күшейтіреді. Шын айтқанда адамдар тарихында сыбайлас жемқорлыққа қарсы күрес бұрынғы заманнан басталған. Мысал ретінде айтсақ: Кир II-нің баласы Камбис пара алған адамдың терісін шілген. Ал Иван Грозный мұндай адамдарды сол кезде-ақ өлтірген. Жапонияда қазіргі күнде сыбайлас жемқорлық сабақ ретінде сабақ кестесіне енгізілген, балаға кішкентай кезінен-ақ дұрыс көзқарасты қалыптастыруға септігін тигізеді.

Сыбайлас жемқорлыққа қарсы күрес тек қана бір немесе екі мемлекетке тиісті емес. Яғни, бүкіл әлемдік жұмыс болып есептелінеді. БМТ тарапынан тоғызыншы желтоқсан «Халықаралық сыбайлас жемқорлыққа қарсы күрес күні» деп жарияланған. Бірақ ең аяныштысы, дүниенің барлық мемлекеттерінде сыбайлас жемқорлыққа тиісті болған нормалар бар болсада, пара беру дүниенің кез келген бұрышында кездеседі, сол сияқты біздің мемлекетімізде де мұндай жағдайлар орын алады. Сол себепті біздің елімізде сыбайлас жемқорлыққа қарсы күрес бойынша түрлі іс-шаралар жүзеге асырылуда. Соңғы жылдарда сыбайлас жемқорлыққа қарсы күрес бойынша анық мақсатты стратегик жолдары жоспарланды. Сонымен қатар 2017 жылда «Сыбайлас жемқорлыққа қарсы күрес» туралы заңының қабылдануы елімізде сыбайлас жемқорлықты жоюдың жаңа жолын ашып берді. Бұл қабылданған заңдар халық арасында сыбайлас жемқорлықтың жойылуына алып келді. Дін өкілдері де мешіт және медреселерде сыбайлас жемқорлық және оның жаман жақтары туралы түрлі әңгімелер мен насихаттау жұмыстары алып барылуда.

Қорытынды жасайтын болсам, адамды ең қиын жағдайға салушы, психикалық қысым ішінде ең ауыры – бұл әділетсіздік. Оның бір бөлігі жемқорлықпен байланысты. Біз әділетті жұртта жасауымыз үшін тек қана жемқорлыққа күрес тек қана мемлекет үшін емес, әр бір тұлға өз еңбегін қосу қажет. Сол кезде еліміздің дамуына үлкен үлес қосқан боламыз. Ал Отанға өз пайдасын тигізу әрбір тұлғаның үлкен азаматтық борышы деп ойлаймын.



Дилафруздун МИРЗАБАЕВА,
Ташкент областы Паркент району элге билим берүү
бөлүмүнө караштуу 33-жалпы орто билим берүү
мектебинин 10-«А» класс окуучусу

«КОРРУПЦИЯГА КАРШЫ КҮРӨШ» ТЕМАСЫНДА ЖАЗГАН ДИЛ БАЯНЫ

Коррупцияга каршы күрөш. Коррупцияга каршы күрөш Өзбекстан Республикасында Конституциясынын Коррупцияга каршы күрөш мыйзамынын Өзбекстан Республикасынын башка ченемдик укуктук актылары жана эл аралык келишимдеринин негизинде жөнгө салынат. Мамлекеттик кызматка талапкер Өзбекстан Республикасынын жарандары. Коррупция укук бузууларга жол бербөө максатында. Коррупцияга каршы аракеттенүү мыйзамында жана ченемдик, укук актылары белгиленген чектөөлөрдү өзүнө ыктыярдуу түрдө кабыл алат.

Коррупция фактысы жөнүндө билдирген же кандайдыр бир башкача түрдө коррупцияга каршы күрөшүүгө көмөк көрсөткөн адамга мамлекеттик коргоо камсыз кылынат.

Коррупцияга каршы күрөштө көмөк көрсөткөн адам жөнүндөгү маалымат мамлекеттик жашыруун сыр болуп саналат жана коррупцияга каршы күрөш жүргүзүүгө ыйгарым укук берилген мамлекеттик органдардын же соттун Өзбекстан Республикасынын мыйзамдарында белгиленген тартиптеги жазуу жүзүндөгү суроо таллабы боюнча гана берилет.

Коррупция күрөшүнүн фактылары жөнүндө билип туруп, жалган маалымат берген адам Өзбекстан Респу-

бликасынын мыйзамдарында белгиленген тартиптеги жоопкерчиликке тартат.

Коррупция үчүн шарт түзүүчү укук бузууларга жол бербестен, аларга богот кою үчүн колдон келген аракеттер жумшообуз зарыл. Мамлекеттик кызматчылар тарабынан кандайдыр бир укук бузуулардын жасалышы эгерде ал кылмыш катары жазалана турган жосундун белгилерин камтыбаса, тартиб жаза тартууга, ошону менен бирге мамлекеттик кызматтан четтетүү менен ээлеген орнунан бошотууга алып келет.

Биз коомдо дайыма коррупцияга каршы күрөшүүдөбүз. Мундай жаман жолдорго барбоого жана башка элдердида жол бербөөгө аракеттенебиз.

Ученица 10 класса среднеобразовательной школы №2 Букинского района Ташкентской области М. ТУРГУНОВ

МЫ ПРОТИВ КОРРУПЦИИ

Коррупция – это собирательное название разнообразных нарушений закона чиновниками и бизнесом. Слово «корруптио» в переводе с латыни означает: «разложение, порча».

Самым распространённым считается взяточничество – поборы откатов за оказание каких-либо услуг или предоставление конкурентных преимуществ. Коррупцию часто можно встретить при проведении тендеров и осуществлении госзакупок.

Коррупция – одно из древнейших явлений в системе общественных отношений, «Такое же древнее явление, как и социальный порядок».

Естественно, что в ходе исторического процесса это явление постоянно трансформируется и видоизменяется, по мере усложнения политических и экономических порядков возникают новые формы его проявлений.

– Средства, аккумулируемые с помощью взяток, часто уходят из активного экономического оборота и оседают в форме недвижимости, сокровищ, сбережений;

– Предприниматели вынуждены расходовать время на диалог с нарочито придирчивыми чиновниками, даже если удаётся избежать взяток;

– Из государственной службы уходят квалифицированные кадры, морально не приемлющие систему взяток.

Борьба с коррупцией ведётся во всех сторона. Методы борьбы могут быть разными, но все старания направлены на снижение уровня коррупции, а в последующем и на полное её искоренение.

Но, несмотря на то, что современное государство постоянно принимает законы, противодействующие коррупции, прилагает разного рода усилия, оно так и не может окончательно избавиться от этого зла.

Государство активно ведёт борьбу с коррупционными преступлениями, проводит комплекс мероприятий по предупреждению коррупции.

Отсюда вывод: борьба с коррупцией касается каждого из нас.

Самое главное – это организовать борьбу с коррупцией на всех её уровнях, уничтожит условия и обстоятельства, благоприятствующие коррупции, уменьшить выгоду для обеих сторон, участвующих в коррупционной сделке.

Мы все должны понять: какой мир, какое общество мы построим, в таком мире и в таком обществе мы и наши дети будут жить. Давайте подумаем об этом и объединимся против этого зла.

Ученица 7 класса среднеобразовательной
школы №7 города Янгйюля Ташкентской
области М. ОЛЖАБАЕВ

МЫ ПРОТИВ КОРРУПЦИИ

Во все времена существовала коррупция. Коррупция – это использование своего должностного положения в личных целях. Коррупция возникает там, где нет контроля со стороны власти, государства и общественности.

Много исторических событий указывают на то, что коррупция зародилась давно. В древнем Египте очень ценили и уважали жрецов. Такая должность иногда продавалась за серебро. В древней Греции подкупали судей и чиновников. На Руси развивалась коррупция даже во времена Казанского ханства. Также в религиозных книгах осуждается коррупция. Во все времена с коррупцией пытались бороться: издавались указы, ужесточались законы.

В современном мире, одним из опасных социальных явлений, напрямую, затрагивающих интересы общества и государства, выступает коррупция. И борцом против этого должна стать именно молодёжь. Коррупция оказывает большое воздействие на молодёжь. Взятки в учебных заведениях, невозможность трудоустроиться после получения высшего образования без денег или связей, протекционизм, также являющиеся разновидностями коррупции, негативно сказываются на морально-психологическом состоянии молодого человека, что может натолкнуть его на плохие мысли. Однако и в этих условиях необходимо следовать принципам

морали, религии, национальных традиций – все эти категории отвергают и осуждают коррупцию в любом виде и всему этому учим молодёжь и семью, и в школе, и в ВУЗе. Но очень важно, чтобы слова были подтверждены примером.

Взяточничество мешает бизнесу, который не может успешно развиваться в коррумпированной системе, что ведёт к сокращению общего богатства страны.

Казнокрадство приводит к тому, что деньги, выделяемые государством на оказание социальных услуг (школы, больницы, дороги, канализация, полиция и т.д.), не используются должным образом, что ухудшает качество услуг. Подкуп и взяточничество создают условия для того, чтобы люди, у которых есть деньги и связи, могли изменять законы и постановления государственных органов в своих интересах.

Коррупция влечёт за собой сокращение объёма денежных средств, которые правительство должно выплачивать трудящимся и расходовать на приобретение предметов снабжения: книг, медикаментов, компьютеров и т.д.

Коррупция оказывает на вас воздействие, даже если вы не сталкиваетесь с ней напрямую через различные службы и организации.

Коррупция приводит к уменьшению богатства страны и снижению уровня жизни. Согласно исследованию, когда страны успешно ведут борьбу с коррупцией, государственные доходы в долгосрочной перспективе возрастают в четыре раза. При снижении коррупции бизнес может развиваться на три процента быстрее.

Таким образом, можно сделать вывод, что именно молодое поколение должно стать борцом против коррупции. Так как, именно она влияет на молодёжь в первую очередь, особенно при поступлении в ВУЗы.

Ученица 10 класса среднеобразовательной
школы №7 Юкори-Чирчикского района
Ташкентской области В.КИМ

МЫ ПРОТИВ КОРРУПЦИИ

Одна из глобальных проблем нашего Земного шара, которая развивается по сей день – это проблема коррупции, в том числе и взяточничества. Данный вид угрозы нарушает не только стабильную обстановку и развитие государства, но также приводит к серьёзным изменениям поведения коренного населения, проживающих в нём. От того насколько быстрее разрешится этот вопрос зависит социально-экономическое, политическое положение нашей страны и её роль в международном сообществе. Так что же такое коррупция? И какие усилия нужно приложить для её скорейшего устранения?

Коррупция – это моральное разложение должностных лиц и политических деятелей, выраженное в незаконном обогащении, подкупе взятками, хищении, срастании с мафиозными структурами. Иными словами – это не только использование служебного положения с целью получения собственной выгоды, а также правовая неграмотность граждан и низкий уровень гражданского самосознания. Она проявляется во всех сферах жизни: в образовании, в политике, в органах здравоохранения, хозяйстве и т.д. А последствия остаются рискованными и неблагоприятными для общества.

Эта проблема укоренилась ещё с давних времён. Когда только начинала развиваться торговля образовывались новые государства, принимались законы и

конституции. Наравне с модернизацией начала вступать в действие и тёмная сторона экономики. Люди ради собственного интереса и во избежание наказания пользуются незаконными сделками, тем самым растёт численность преступности, злоупотребления законами, полномочиями. Как говорил М.Салтиков-Шедрин: «Взятка – это оплот самовластия. Она уничтожает преграды и сокращает расстояния, делает сердце чиновника доступным для обывательских невзгод». Эта ситуация становится одной из самых страшных угроз человечества, так-как она меняет сознание людей. Они начинают убеждаться, что всё в этом мире можно купить. А значит и всё продаётся: и честь и совесть и достоинство, а также готовность продать даже Родину. Мы должны знать, какой опасной является коррупция.

И первым шагом на пути к процветанию нашей страны и снижению прогрессивной деятельности беззакония является главным образом изменения нравственности и взглядов населения. В целях эффективного обеспечения современной и качественной реализации мер по предупреждению коррупции в жизнедеятельности общества и государства был принят закон Республики Узбекистан «О противодействии коррупции». В программу вводится создание Межведомственной комиссии по выявлению и пресечению коррупционных правонарушений, их последствий, также причины и условия их возникновения, анализ о состоянии и тенденции данной проблемы, самоотверженная борьба против неё.

Мы живём в независимой стране, где Правительство разрабатывает и принимает множество законов по защите наших интересов, прав по всех сферах образования. Наш Президент Ш.Мирзияев говорил: «Наш народ – созидатель и творец всех наших успехов». Чтобы под-

нять наше общество на более новый уровень развития была принята Стратегия по пяти приоритетным направлениям. Принцип этих действий: «Не народ служит государственным органам, а государственные органы должны служить народу». А мы в первую очередь обязаны добросовестно и честно выполнять свои обязанности, не идти на поводу у коррупционеров, активно принимать участие в её ликвидации. Ещё в II веке до н.э. китайский философ Конфуций говорил: «Каждый человек должен соблюдать свои обязанности – отец должен быть отцом, сын сыном, правитель правителем».

Мы должны сплотиться, чтобы вместе победить это зло, приложить все усилия для роста и благополучия нашей Республики, ведь всё это зависит от каждого из нас. И если мы будем сейчас усердно строить надёжный и крепкий фундамент для усовершенствования будущего нашей страны, мы обеспечим себе спокойную, счастливую старость и откроем светлый путь подрастающему поколению. Я уверена, что на страже закона будут стоять достойные дочери и сыны Узбекистана.

*Мы – отроки твоей свободы,
Её защитники, творцы.
Сегодня и в любые годы,
Дух чистой веры не угас.
В сердцах горит надежды пламя,
Узбекистан – свободный край.
Живи и расцветай садами!*

Muazzamoy ODILJONOVA,
Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi
1-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA INSONNI TUBANLASHTIRADI

Tong. Ko'zlarimni ochar ekanman, musaffo osmonimiz uzra charaqlab turgan saxiy quyosh ota makonimizga ta'zim qilganday nur sochmoqda, chor-atrofdan ohista kezib yurgan shabboda yuzlarimga urilib, sochlarimni silamoqda. Quloqlarim ostida qushlarning mayin sayrash-yu, insonlarning sho'x-shodon kulgilari jaranglamokda. Bu go'zal, osuda hayot debochasidir.

Inson yashar ekan, qalbini olam-olam orzular qamrab oladi. Bu orzu-istaklarga yetmoq uchun hayot yo'li tanlanadi. Hayot yo'lini to'g'ri yoki noto'g'ri tanlash, insonning kimligini, nimalarga qodir ekanligini ko'rsatadi. Adolatparvar, xalq manfaatini ko'zlovchi insonlar to'g'ri, pok yo'lni tanlaydilar. O'z shaxsiy manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yuvchi ayrim odamlar esa orzulariga nopok yo'llar bilan erishmoqchi bo'ladilar. Bunday noqonuniy yo'l xalq tilida poraxo'rlik, huquqshunoslikda korrupsiya deb ataladi. Oppoq tongimizga, go'zal hayotimizga raxna soluvchi illat bo'lgan korrupsiya "aynish", "poraga sotilish" ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat jinoyat hisoblanadi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati

qurishning umumiy strategiyasi ko'rib chiqilmoqda. Strategiya asosiy tamoyili shundan iboratki, jamiyatning har bir vakili ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'z huquqini bilishi darkor. Huquqiy madaniyat shakllanishi ana shu jamiyatning taraqqiyot belgisi sanaladi. Har bir fuqaro o'zining ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra, o'z huquqini anglashi, o'z fikriga boshqalarni jalb eta olishni uddalashi jamiyat talabidir.

Yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda siyosiy va huquqiy barqarorlikni ta'minlashning dorilfununi va huquqiy asoslari shakllantirildi, jamiyatni tubdan yemirib borayotgan illat – korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari o'tkazildi.

Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirish davomida milliy qonunlarga xalqaro huquqning umume'tirof etilganligi masalasiga alohida e'tibor berildi. Shu tufayli huquqiy madaniyatni bilish – har bir fuqaro uchun asosiy burch darajasiga ko'tarildi.

Bugun jamiyatimizda keskin darajada ko'payib borayotgan tuban illat – korrupsiyaga qarshi kurash masalasi jiddiy tus olmoqda.

Korrupsiya – nihoyatda vayronkor kuch. U millatni tubdan yemiruvchi, insonni tubanlashtiruvchi illat.

Bizning jonajon mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurash 2016-yilning oktabr oyidan boshlandi. Shu yilning 16-oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konstitutsiyaviy qonunchilik tashabbusi asosida «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun loyihasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi, ushbu qonun 2017-yil 4-yanvardan boshlab kuchga kirdi. Mazkur qonunchilik asosida 2017-2018-yillarda «Korrupsiyaga qarshi kurash» dasturi tasdiqlandi, unda qo'yilgan aksariyat vazifalar hozirgi kunlarda ham izchil amalga

oshirilmoqda. 2018-yil 9-aprelda O'zbekiston Respublikasi-ning «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Bu qonunning 12-moddasi «Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipi» deb nomlanib, davlat xaridlarida huquqbuzarlikka yo'l qo'ymaslik qat'iy belgilab qo'yildi.

Prezidentimizning korrupsiyaga qarshi islohotlari barcha sohalarda davlat boshqaruvi organlari faoliyati va ochiqligini ta'minlash orqali samarali natijalar ko'rsatmoqda. Ko'plab qonunbuzar shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashda, ayniqsa, ta'lim sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish imunitetini rivojlantirishda ta'limning o'rni beqiyos. Chunki korrupsiya kabi tuban illatga qarshi kurashda jismoniy harakatlar bilan bir qatorda ma'naviyat, teran tafakkur, sog'lom aql ham kerak. Chunki Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir». Ma'naviyatni yuksaltirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Yoshlarni ogohlikka davat etish, isyonkor g'oyalarga qarshi ruhda tarbiyalash ta'lim sohasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya har qanday illatga qarshi kurashning kuchli qurolidir.

Teran tafakkurli insonda tubanlikka qarshi davat kuchli bo'ladi. Korrupsiya – nafsning talabi, inson o'z nafsini qondirish uchun shu yo'lga kiradi. E'tiqodi mustahkam inson pora olmaydi va bermaydi. Falsafiy fikrlar sohibi bo'lgan yozuvchimiz O'tkir Hoshimov «Dunyoning ishlari» qissasidagi «Imon» hikoyasida quyidagi fikrlarni kuyinib gapiradi: «Nahot, inson tirik qolish uchun ham pora berishi kerak bo'lsa...»

O'zbek xalqi – musulmon xalq. Musulmon xalqi haromdan, mehnatsiz topilgan bir burda nondan ham hazar qiladi. Bu o'rinda «Dili pokning – ishi pok» maqoli bejiz aytilmaganiga guvoh bo'lamiz. Biz – yoshlar, qonunga rioya qilib

yashashga o'rganishimiz va ko'nikishimiz, eng katta xavf jinoyat emas, balki jinoyatga befarqlik ekanligini chuqur anglashimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi sha'nini e'zozlash, mamlakatimiz erishgan yutuqlarini hurmat qilish, ularni mustahkamlashga o'z hissamizni qo'shish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan tamoyillarga va konstitutsiyaviy tuzumga sodiq bo'lish barchamizning burchimizdir.



Gulsanam YODGORALIYEVA,
Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi 3-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

YOSHLAR, TOZA VIJDONLI, ORIYATLI BO'LAYLIK!

Korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini endi keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash – toza vijdonli, oriyatli ziyolilarning qalb amriga aylanmog'i lozim.

Korrupsiya paydo bo'lishi va rivoji mazkur mamlakatning taraqqiyotiga zimdan to'sqinlik qiladi hamda davlatning olib borayotgan islohotlariga qarshilik ko'rsatadi. Korrupsiya illatiga qul bo'lgan amaldorlar davlatning, jamiyatning, xalqning bildirgan ishonchini suiiste'mol qilib, o'z manfaatlarini xalq va davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa o'sha amaldorlar boshqarayotgan davlat siyosati bo'g'inida ish sifatining buzilishiga olib keladi. Natijada, butun bir jamiyat zarar ko'radi. Korrupsiya davlatni nafaqat moddiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yemirib, xalq va davlat o'rtasida ishonchsizlik deya atalmish ulkan chegaraning vujudga kelishiga olib keladi. Bu esa xalq o'rtasida Vatanga daxldorlik va kelajakka ishonch tuyg'ularining so'nishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishni keng qamrovda olib borish choralari ko'zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash

borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, tamagirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi lozim. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmaydi, har qanday vaziyatda ham halol odam hayotda g'olib bo'lib, baxtli, saodatli yashaydi.

Bugun butun jamiyatimiz ana shunday pokiza hayotga intilmoqda. Biz ham bir tan-u bir jon bo'lib, korrupsiya deya atalmish bu illatga qarshi kurashib, yurtimiz taraqqiyoti yo'lida barcha imkoniyatimizni ishga solishimiz darkor. Biz korrupsiyaga qarshimiz!



Malohat DEHQONOVA,

**Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi 14-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi**

O'YLASAM, ETIM JUNJIKIB KETADI

Osuda tun, oy ham farzandiga alla aytayotgan ona singari mo'ltillaydi. Son-sanoqsiz yulduzlar bir-biridan yorug'roq bo'lishga intilgandek porlaydi. Mayin shabboda esib, xayolimni ham o'zi bilan olislarga olib ketadi. Dunyoning qaysidir burchagida bir tomchi suvga zor insonlar bor. Yana qayerdadir esa urush, vayronagarchilik, ochlik, qahatchilik...

Men tengi yoshlarning hayoti og'ir, xayolida kelajagi, ertangi kunini o'ylash qayoqda deysiz. «Bugun tirik qoldim, ertaga nima bo'lar ekan?!», deb tahlika bilan uxlab, yana shu tashvishda uyg'onayotgan tengdoshlarim xayolimdan ketmaydi. Yo'q-yo'q... Adashdim... O'zi ular uxlarmikan? Bir daqiqaga bo'lsa-da, xotirjam kiprik qoqarmikan? Aslo, yo'q! Har kun, har soniya qo'rquvda yashaydi. O'q ovozlari, bombalar portlashi, mayib-majruh insonlar, ota-onasiz chaqaloqlar, qonga belangan, och-nahor odamlar, vayrona bo'lgan uylar, kultepaga aylangan qishlog'-u shaharlar...

O'ylasam, etim junjikib ketadi. Nahotki, begunoh chaqaloq qon yig'lasa, nahotki, inson bir-birining moliga ko'z olaytirsam. Shu ham hayot bo'ldimi?

Ming shukr, ming qatla shukr! Men shunday yurtda yashaymanki, o'zimning o'zimga havasim keladi. Har tong o'q ovozidan emas, azon tovushidan uyg'onaman. Musaffo havodan to'yib nafas olib, borliqqa tikilaman. Hayot buncha go'zal bo'lmasa! Yashaging, olg'a yurging kelaveradi.

Duogo'ylarim bag'ridaman. Dasturxonim noz-ne'matga limmo-lim. G'amim yo'q, tashvish yo'q. To'rt mucham

sog'. Har kunim bayram. Bundan ortiq baxt bormikin-a?! Osmonga termilib shularni o'ylayman-u, qalbim faxrga to'ladi. O'zimni so'roqqa tutaman. Sen shu jannatmonand yurtning uchun nima qilyapsan? Qo'lingdan o'zi nima keldi? Vatanning yuksalishi uchun o'z hissangni qo'shyapsanmi, sen yurtingga munosibmisan?

Dunyoda har toifa insonlar bor. Kimdir halol mehnat qilib, yer chopib, azob tortib, topgan nonini lazzat bilan tanovul qiladi. Uning uchun shu totli. Yana kimdir esa yengil hayot istaydi. Mehnatsiz, qiyinchiliksiz ko'zlangan cho'qqisiga osongina chiqib olishni xohlaydi. Kundan kunga boylik, pul, mol-dunyoga ruju qo'ymoqdamiz. Hatto shunday insonlar borki, pul deb o'z do'st-u birodaridan kechmoqda. Boylik uchun har narsaga tayyor kimsalar ham yo'q emas. Nahotki, boylik inson qadr-qimmatidan ustun tursa! Nahotki, nafsni qondirish uchun odamzod o'z g'ururini poymol qilsa!

Ulug' ijodkor Said Ahmadning «Qoplon» hikoyasi ham-mamizga tanish. Uning bosh qahramoni – Qurbonboy pul, mansab uchun hech narsadan qaytmaydi. Uyini mehnatsiz, xarajatsiz qurdirib olish uchun xo'jayiniga o'zini nochor qilib ko'rsatib, ahvoli tang ekanligini ayyorona «rol o'ynab» namoyish etadi. Soddagina xo'jayin esa uning yolg'oniga laqqa tushib, uyini qurib beradi. Biroq xo'jayin betoblighi sabab ishdan bo'shaydi. Ehtimolki, o'rniga boshqasi keladi. Qurbonboy esa tasavvur etganingizdek, o'sha boshqa xo'jayinning yugurdagiga aylanadi. Bunday pastkash, o'z nafsining quli bo'lib erkakligini unutgan bunday insonlardan hazar qilish kerakligini adib uqtiradi va bu illatni zaharxanda kulgi bilan qoralaydi. Ijodkor mutlaqo haq edi. Qurbonboy nafsining quli edi.

Biz qachongacha pul ketidan quvamiz? Qachongacha o'zligimizni unutib yashaymiz? Qachongacha pul deb yelib-yugurib, ota-onamizdan, yor-do'stimizdan mehri-

mizni, bir og'iz shirin so'zimizni qizg'onamiz? Dang'illama uyimizni, chiroyli mebellarimizni, qator-qator mashinalarimizni qabrga olib keta olamizmi? Nafsimiz qopi qachon to'ladi? Menimcha, har bir inson o'ziga shu savollarni bersa, qalbiga oz bo'lsa-da, iymon qaytadi, deb o'ylayman.

Aslida, insonning kelajakda havas qilgulik yoki hazar qilgulik bo'lishi ota-onaning bergan tarbiyasiga bog'liq. Agar otaning yoki onaning o'zi haromdan tiyilsa, farzandlariga halol luqma yedirsas, o'z-o'zidan bola ham ulardan o'rnak oladi. Ming tanbeh bergan bilan o'zi amalda qilmasa, hammasi bekor. Ota-ona farzandiga kichkinaligidan savob nima-yu gunoh nima, halol nima-yu harom nimaligini uqtirsa, bola katta bo'lganda bu nasihatlariga amal qiladi. Shu o'rin-da: «Ota-onasiz bolalar-chi?» degan savol tug'ilishi mumkin. Shunday do'st borki, u ham bo'lsa, kitobdir. Kitobga oshno bo'lish dunyoqarashni o'stiradi. Davlatimiz rahbari bejizga besh tashabbusning birini kitobxonlikka bag'ishlagani yo'q. Inson kitobda o'qiganlarini hayotga tatbiq etsa, shaksiz, unga havas qiluvchilar ko'payadi. Prezidentimiz uzoqni ko'ra olgani holda kitobxonlikka katta e'tibor qaratmoqda. Uning sa'y-harakatlari natijasini ko'rsatmoqda. Men oddiy o'quvchi, muxlis sifatida Alisher Navoiy ijod mahsulini o'qishni tengdoshlarimga maslahat bergan bo'lardim. Uning «Hayrat-ul abror» asari pand-nasihat ruhida yozilgan bo'lib, har bir nasihatga mos tushadigan hikoyatlar majmuyidan iborat. Demoqchi bo'lganim shundan iboratki, insonni na faqat tarbiya, balki kitob o'qish ham, yomonlikdan qaytaradi. Ezgulikka undaydi. Kitob – bebaho xazina.

Ammo bugungi kunda boylik ko'zini ko'r qilgan inson ko'plab jinoyatlarga, korrupsiyaga ham yo'l qo'ymoqda. Ma'naviyati qashshoq kimsagina bugungi kunini o'ylaydi, xolos. Jinoyatchilarning jazosini berish kerak. Korrupsiya bir daraxt bo'lsa, uning ildiziga bolta urish lozim. Ildizsiz daraxt qurishi tayin. Har bir farzand bo'lg'usi ota yoki ona.

Men ham bo'lajak ona sifatida farzandlarimning komil inson bo'lib yetishishi uchun bor kuch-g'ayratimni ayamay, aql, sabr-matonat bilan ish ko'raman. Zero, farzand kelajak mevasidir. Ularni to'g'ri parvarishlab, serhosil daraxtga aylantirish bog'bonning mahoratidir.

Biz Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Muso al-Xorazmiy, Bobur va Navoiy kabi tamaddun o'chog'ining yirik namoyondalarining avlodi sifatida ularga munosib farzandlarni kamolga yetkazmog'imiz lozim. Alisher Navoiy oila, farzand baxtiga muyassar bo'lmagan esa-da, butun bashariyatni tarbiyalashga arzigulik boy ma'naviy meros qoldirdiki, har qaysi ota-ona bu hikmatlarni qalbiga jo qilib olsa, kelajakda komil farzandlarni tarbiyalay olishiga shubha yo'q.



Munisa ELBOYEVA,
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 21-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

ENG KATTA ZARAR

Bilasizmi, Daniya, Yaponiya, Germaniya, Koreya kabi davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan qonunga zid ravishda ish ko'rganlarga juda og'ir jazo berilar ekan.

Shu sabab bu davlatlarda ko'pi bilan 15 foiz miqdorda korrupsiya uchrashi mumkin ekan. Bunga qarama-qarshi, ya'ni korrupsiya ko'p uchraydigan davlatlar sirasiga Afg'oniston, Tunis, Jazoir va Afrikaning ko'p davlatlari kiradi. Korrupsiya mavjud davlatlarda notinchlik hukm surmoqda. Bu davlatlarda urush va odam o'ldirish juda oddiy holatga aylanib qolgan. Menimcha, bularning tub-tubida korrupsiya deb atalmish illat yotadi. 1787-yilda AQShda «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi farmon qabul qilingan. Fikrimcha, AQShda bu illatga kurash juda samarali olib borilgan.

Pora olish va pora berish jamiyat va davlat iqtisodiyotiga juda katta zarar yetkazadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bozorlar faoliyatining pasayishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, fuqarolarning erkinliklari va huquqlariga putur yetadi. Aniqlanishicha, pora berish va pora olish qadim-qadimdan o'sha paytda qabila fuqarolarining o'z qabila egalariga xushomad va sovg'a taklif qilishlaridan boshlangan ekan. Fikrimcha, korrupsiya insonning qon-qoniga singib ketgan. Masalan, ota-onalarimiz bugun mana bu ishni qilib qo'ysang yoki bu ishni bajarmasang, senga shirinlik olib beraman, deyishdi. Yoki har yili o'tkaziladigan turli

fan olimpiadalarini olsak, birinchi o'rin ko'pincha pul bilan olinadi, qarindosh-urug'chilik holatlari kuzatiladi. Natijada juda yaxshi bilimli o'quvchi orqada qolib ketadi. Mana adolat, mana haqiqat va mana korrupsiya. Bilasizmi, bolaga yoshligidanoq faqat adolat va haqiqat bilan ish ko'rishlarini o'rgatish lozim.

Adolat hayot darvozabonidir. Bilingki, adolat bilan ish ko'radigan insonning ishlari doim besh bo'lavermaydi. Masalan, o'tgan yili bo'lib o'tgan bir voqeani olsak. Bir jurnalist bir mushtipar onani o'z himoyasiga olaman, deb o'z farzandidan ayrilishiga bir baxya qoldi. O'sha mushtipar ona o'z eridan shunchalik darajada xo'rlik ko'rdiki, hatto eri ayoliga o'z farzandini ko'rishni taqiqlab qo'ydi. Yakunda, albatta, adolat qaror topadi. Shuning uchun bilingki, aziz do'stlarim, o'rtoqlarim, har doim adolat va haqiqat bilan ish ko'rishni esdan chiqarmang. Zero, bizga berilgan shart-sharoitlardan doimo oqilona foydalanmog'imiz zarur. Biz 6-sinf tarix darsligidan o'tgan "Qadimgi Yunoniston" mavzusidagi adolat va haqiqat ilohi Femida ko'zida bog'ich, qilich va qo'lida tarozi tasvirlangan edi. Ustozimiz bu belgilarning ramzini topib kelishni uyga vazifa qilib berdilar. Ota-onam bilan birga vazifani bajarishga harakat qildik. Ko'zidagi bog'ich bu haqiqatning ko'zi ko'r, tarozidagi toshlar esa biri haqiqat, biri yolg'on. Faqat haqiqat qilichi adolatni yuzaga chiqarar ekan. Men shunday deb javob berdim, ustozim menga «besh» qo'yib berdilar. Tasavvur qiling, siz ukangiz bilan uyda yolg'iz qoldingiz. Bo'yoq bilan rasm chizayotgan paytingizda bo'yoqni gilamga to'kib yubordingiz. Siz bu vaziyatdan qanday qilib chiqib ketar edingiz? Men bu vaziyatda dog'ni ukamdan foydalanib, tozalab olgan bo'lardim. Shu savolga, aybni birdan ukamga ag'darardim-qo'yardim, deb javob qilindi. Mana adolat bilan ish ko'rish qanday bo'ladi.

Siz har doim oldinga qarab intiling, qoqildingizmi, bir joyda to'xtab qolmang. Chunki hayotda haqiqat bir tekisda ketmaydi. Sinovlaringizga har doim kulib javob bering. O'qituvchingiz bergan ta'lim va tarbiyani oqlashga harakat qiling. Onangiz oq sutini oqlab, otangiz bergan halol non-tuzga hech qachon xiyonat qilmang.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Qonun va adolat uchun kurashadigan insonlar bugungi kunning qahramonlari bo'lishi kerak», degan gaplarini unutmang. Ota-onangiz, ustozingiz bergan ishonchni oqlashga doimo harakat qiling. Ularning yuzlarini yerga qaratishga urinmang ham. Amir Temur bobomiz «Adolat va haqiqat bilan ish ko'rish barcha hokimlarning, davlat boshliqlarining shioriga aylanishi kerak», deb aytganlar. Adolat bilan ish ko'rgan har qanday davlat kelajagi gullab-yashnaydi.

Biz korrupsiyaga qarshimiz, deb avval ham aytganmiz, hozir ham aytyapmiz va bundan keyin ham aytishda davom etamiz. Har doim bir-biringizga adolat ila ish ko'rishni unutmang. Ba'zan shunday vaziyatlarga duch kelamiz: payt kelganda jim turishga to'g'ri keladi. Lekin bunday vaziyatlarda ham hech qachon taslim bo'lmang. Ota-onangiz va ustozingizning bergan ta'lim-tarbiyasini doimo oqlang. Zero, ular kelajagingiz kalitidir.

Dildora ERGASHOVA,
Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi 2-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 7-«G» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – VATANGA XIYONAT

Korrupsiya bizning ongimizni zaharlab, kelajagimizga katta xavf soladi. Lekin hozirgi kunga kelib korrupsiyaga qarshi kurashish uchun yurtimizda qator tadbirlar olib borilmoqda. Korrupsiya hozirgi kunda barcha sohalarida uchramoqda. Asosan, ta'lim sohalarida korrupsiyani ko'p uchratamiz.

Korrupsiyaga yo'l qo'ygan amaldor yoki biror shaxs xalqni o'ylamay, faqat o'zini o'ylaydiganlardandir. Bu kabilar korrupsiya botqog'iga botib, o'z vataniga xiyonat qiladilar. Bu bilan birga o'zligini yo'qotadi. Natijada xalqning siyosatga nisbatan ishonchi yo'qoladi. Korrupsiya nafaqat yurtni, balki yoshlarning ham ongini zaharlaydi. Uning botqog'iga tushgan shaxs qaytib chiqa olmaydi. Birinchi marta yo'l qo'ydimi, demak, keyingilarida ham ishtirok etadi.

Buning oldini olish uchun yoshlarimizning bilimini oshirib, bu haqida tushuncha berish lozim. Sababi korrupsiya hali yo'q bo'lmadi. Aslida insoniyat bu ishlarga yo'l qo'ymasdi. Ayrim nopok insonlar siz bajarmoqchi bo'lgan ishlarga turli to'siq qo'yganligi sababli korrupsiya yuzaga kelmoqda. Oddiy misol, oliy ta'lim muassasalarida talaba bo'lish uchun korrupsiya va poraxo'rlikka yo'l qo'yadilar. Bu qanday ayanchli vaziyat. O'z bilimi bilan emas, korrupsiya orqali niyatlariga yetadilar. Bu ham korrupsiya holatidir. Bu holatga ayrim insonlar e'tibor bermay qo'yishdi, oddiy vaziyatga aylanib qoldi. Bu esa juda yomon. Bu ishlar e'tiborsizligimiz

sababli bo'lmoqda. Korrupsiya siz-u bizga katta xavfdir. Aytish joizki, turli shaxslar tez boyish maqsadida ham bu ishga qo'l uradilar. Qanday qilib o'z yurtida bu ishni amalga oshiradi. Hozirgi kunda bunday ishlar ko'payib bormoqda. Davlat rahbarlari ham korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunlar imzolamoqda. Bu ishlarga nafaqat davlatimiz rahbari, biz ham harakat qilishimiz zarur. Buning uchun o'zimiz bu illatga qo'shilib qolmasligimiz kerak. Qonunlarga rioya qilishimiz lozim. Bu ish bilan shug'ullangan insonlarga qonuniy chora ko'rish zarur. Yurtimizga bu illat kerak emas. Bu illat kelajagimizga soya soladi. Korrupsiyaga yo'l qo'ygan shaxs qonunlarga amal qilmaydi.

Korrupsiya bo'lmagan yurti tasavvur qilaylik. Barcha insonlar halol yo'l bilan ishlarini bajarmoqda. Oliy o'quv yurtlariga kirmoqchi bo'lgan o'quvchilar o'z bilimi, ziyrakligi bilan o'qisalar. Bu jarayon yurtimizni yanada rivojlantiradi. Xalq davlatga ishonadi. Bu onlar uchun barchamiz birdam harakat qilishimiz zarur. Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik, uning oldini olishda, boymi yoki kambag'al, barchaning hissasi bor. Mening nazarimda, barcha kasb egalari korrupsiyaga yo'l qo'ymay, o'zligini unutmasa, yurtimiz farovon bo'ladi. Bir men emas, korrupsiya yo'qolishini istagan har bir inson shunday o'ylaydi, degan umiddaman. Korrupsiya yo'qolishini istagan har bir davlat unga qarshi qonunlar joriy etadi. Yoshlarni bunga qarshi qilish uchun ularning bilimini oshiradi. Xulosa qilganda, bizning yurtimizga bu illat kerak emas!

Sevinch IMOMNAZAROVA,
Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Talimarjon
shahridagi 34-umumiy o'rta ta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – ADOLATSIZLIK, NOHAQLIKDIR!

Bugungi kunda butun dunyo korrupsiya bilan kurashmoqda. Albatta, biz bu kurashda o'z o'rnimizni tanlashimiz lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish har birimizning burchimizdir.

Insonni qiyin ahvolga tushiradigan, ruhan ezadigan holatlar ichida eng og'iri: adolatsizlik, nohaqlik deyish mumkin. Uning bir ildizi korrupsiya bilan bog'liq bo'lib, mansabdor shaxsning o'z manfaati yoki lavozimidan shaxsiy manfaatini ko'zlab, moddiy naf olishi, bunday ishni qonunga xilof ravishda taqdim etishda ifodalanadi. Har birimiz qayerda, qanday muammoga duch kelsak, uning hal etilishida mas'ul shaxslarning tamagirligiga guvoh bo'lganda, indamay ketish yoxud chidash o'rniga bong urishimiz kerak. Shunda mudrayotgan mansabdor uyg'onadi, zimmasida qanday mas'uliyat borligini his qiladi.

Bugungi kunda korrupsiyaning turli ko'rinishlarini uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, ta'lim sohasida juda kuchli rivojlangan. Bizning mamlakatimizdagi mansabdor shaxslar o'z imkoniyatlaridan foydalanib, boshqalardan pul undirmoqda. Ba'zilar o'qishga kirgizaman, ba'zilar ishga joylab qo'yaman deb, shu illatning quliga aylanmoqda. Bunday insonlar mamlakatni ich-ichidan yemira boshlaydi. Shundan so'ng bizga tashqi dushmanning ham

keragi yo'q, chunki bunday insonlar mamlakatni yuksaltirish, uni rivojlantirish o'rniga, o'z millatdoshlariga chinakam dushman hisoblanadi. Birgina millatdoshlariga emas, o'z oilasiga, farzandlariga, ularning kelajagiga qarshi dushmandir. Yurtimiz kelajagini parokanda qilishadi.

Korrupsiya – taraqqiyot ildizlariga bolta uruvchi kuch. Uning kuchi butun jamiyatni barbod etishga yetadi. Biz hayotga doimo o'tkir nigoh bilan qarashimiz kerak. Faylasuflardan biri shunday deydi: «Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq, ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida adolatsizliklar, poraxo'rliklar sodir bo'laveradi».

Biz korrupsiyaga qarshimiz. Korrupsiyaga qo'l urish juda katta jinoyat hisoblanadi. Bu illat hukm surgan davlat bilan hukm surmagan davlatni solishtirsak, korrupsiyasiz yurtda adolat, vijdon, mustahkam ishonch sezilib turadi. Korrupsiya hukm surgan mamlakatda esa o'zaro adolatsizliklar, poraxo'rliklar yuzaga keladi. Barchaning yakdilligi, yurt taqdiriga daxldorligi mamlakatni birlashtirishga xizmat qiladi. Biz yoshlar yurt uchun xizmat qilishda vijdonli, insofli, halol bo'lishimiz shart. Hozirgi kunda yurtimizda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar olib borilmoqda. 2017-yil 4-yanvarda «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun kuchga kirdi. O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etildi. Dunyoda korrupsiya sodir bo'lmaydigan davlatlar: Daniya va Singapurdir. Dunyo bo'yicha: Xitoy va Meksika korrupsiyaga qo'l urish bo'yicha yetakchilik qiladi.

Men maktab o'quvchisiman. Kelajagimni yorug' qilishni va Vatanimizning kelajagi yorug' bo'lishini istayman. Vatanimizga qarshi kurashayotgan dushmanlar mening

ham dushmanlarimdir. Avvalo, bu kurashlar bir-birimizning qalbimizda va ongimizda bong urishi kerak. Chunki davlat faqat mansabdor shaxslarniki emas, davlat barchamizniki. Biz korrupsiyaga qarshimiz! Korrupsiyasiz kelajak – yorug' kelajak! Mustaqil O'zbekistonimizni gullab-yashnashi uchun bor kuchimiz bilan harakat qilamiz!



Sevinch SAMANDAROVA,
Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi 2-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 9-«D» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – GLOBAL MUAMMO!

Korrupsiya urchigan davlatda rivojlanish bo'lmaydi, bozor iqtisodiyoti to'xtaydi, insonlar hayotiga xavf soluvchi terrorizm va boshqa uyushgan jinoiy to'dalar soni ortadi. Korrupsiyaning tarixiy o'zatlari qadimga borib taqaladi.

Korrupsiya butun jahonning global muammosi hisoblanadi. Korrupsiya qanday kelib chiqishi mumkin? Korrupsiya ma'lum mavqega ega mansabdor shaxslar o'z vakolatlaridan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanganidan kelib chiqadi. Korrupsiyani yo'q qilish miloddan avvalgi asrlarda boshlangan. Shvetsiya, Singapur, Gongkong, Portugaliya kabi davlatlarda korrupsiya ko'rsatkichi juda past. Ular korrupsiya darajasini qanday pasaytirganliklarini ta'kidlab o'tishadi: insonlarning ongini tozalash, korrupsiyaga oid ishlarni konstitutsiyaga xilof ekanligini anglatish, korrupsiya davlatning kushandasi ekanligini uqtirish kabi ishlarni amalga oshirish natijasida.

Korrupsiya – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi, insoniyat hayotiga putur yetkazadi. Korrupsiyaning yomon taraflari juda ko'p. Korrupsiya sababli yurtimizda bilim olish darajasi past ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ta'limda, kasb-hunarda, ishlab chiqarishda biz korrupsiyani ko'ramiz. Korrupsiyaning gullab-yashnashiga qo'shtirnoq ichidagi ayrim mansabdor shaxslar sababchi. Chunki ular manfaatlaridan foydalanishga ishlatmoqda. Yuqori lavozimdagi mansabdorlarning qarindoshlari far-

zandini oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgizib qo'yishini iltimos qiladi va pul beradi. Mana bu korrupsiya. U keyin hech narsani bilmaydigan bolani oliy o'quv yurtiga o'qishga kirgizib qo'yadi. Ammo u bola bu yerga noloyiq. O'qishni amallab bitirib, yana pul bilan ishga kirib olsa, o'g'limni, qizimni o'qishga kirgizib qo'ying deb bersa, u ham xuddi o'zidaylarni o'qishga kirgizadi. Ko'rib turibmizki, shu orqali korrupsiya gurkirab ketadi.

Biz yoshlar korrupsiyani yo'q qilmasak, u yurti parokanda qiladi. Bunga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Yaxshi o'qib, yurti gurkiratishimiz kerak, korrupsiyani emas. Hamma o'z ishiga mas'uliyatli bo'lsa, korrupsiya so'nib boradi. O'qib-o'rganib, yaxshi kadrlar bo'lib yetishishimiz lozim. Bilimga asoslangan jamiyatda yuksalish zo'r bo'ladi. O'zbekiston hech qaysi davlatdan kam emasligini isbotlashimiz kerak.



Sabina KENJAYEVA,
Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi
1-DIMining 9-sinf o'quvchisi

KUCH – ADOLATDADIR!

Korrupsiya bu – insonni qabihlikka, jinoyatga, biror-bir davlatni esa parokandalikka yetaklovchi eng yomon illat hisoblanadi. Korrupsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, «buzaman» degan ma'noni anglatadi. Bu atamaga o'tgan vaqt nazari bilan qarasak, o'z manfaatini xalq manfaatidan yuqori qo'yuvchi katta ishda ishlovchilar va shu kabi kim-salarga qarata aytilgan. Bu illat xohlaymizmi-yo'qmi barcha katta-yu kichik mamlakatlarda uchraydi. Shu sababli biz korrupsiyaga bor kuchimiz bilan qarshilik qilishimiz kerak.

Korrupsiya – demokratiyaning ildiziga bolta uruvchi eng katta omil. Barchamizga ma'lumki, demokratiya bor joyda o'sish, rivojlanish kuzatiladi. Agarda qaysi bir davlatda korrupsiya avj olib ketsa, demakki, u yerda demokratiya o'ladi. Demokratiya yo'q joyda na o'sish, na rivojlanish kuzatiladi. Iqtisodiyotning ahvoli yomonlashib, davlat budjeti kambag'allashadi, natijada aholi o'rtasida kamo-madlar, yetishmovchiliklar kuzatiladi. Qarabsizki, bu davlat inqirozga yuz tutadi. Shu sababli, biz har birimiz korrupsiya balosiga qarshi kurashishga mas'ulmiz. Birlashib biz katta kuchmiz.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shulardan biri Xalq qabulxonalarining ochilganligidir. Mas'ullar xalq dardini eshitib, bu muammolarga yetarlicha yechim topmoqdalar desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bizning qanchadan-qancha buyuk bobokalonlarimiz, davlat arboblari bor. Ulardan biri bu sohibqiron Amir Temurdir. Tarixdan barchamizga ma'lumki, Amir Temurning uzugida «*Kuch – adolatdadir*» degan misralar bitilgan. Bundan ma'lumki, Amir Temur davlatida shunchalar qonun ustuvor bo'lganki, laganlarda tillalar olib ketilsa, biror-bir kishi o'sha tillaga qo'lini uzatmagan. Ana endi Alisher Navoiy bobomizni oladigan bo'lsak, u kishi Husayn Boyqaroning eng yaqin kishilaridan biri bo'lib, unga yurtni boshqarishda yordam bergan. Alisher Navoiy ham bu masalada inson huquq va erkinliklarini asosiy vazifa deb bilib, o'zining «*Iskandarnoma*» asarida adolatni «*Mamlakat rivojining asosiy bo'g'ini*» deb ta'kidlaydi.

Biz O'zbekiston yoshlari bir ovoz bilan korrupsiyaga qarshimiz. Agarda ta'lim sohasidan korrupsiya butunlay yo'qolsa, haqiqiy olov yoshlarni, haqiqiy iste'dodlarni kashf qilamiz. Ana undan keyin bu yoshlar yurt uchun, millat uchun o'z mehnatlarini sarf qiladilar. Biror bilimsiz o'quvchi oliy bilim yurtiga korrupsiya yordamida kirdi. Kirgandan keyin u oliy dargohni pul bilan tamomladi ham deylik. Keyin-chi, keyin u minglab yosh nihollarga qanday qilib bilim, ilm ziyosini beradi. Ana ko'rdingizmi, kelajak shu tariqa yol-g'on asosida bunyod etiladimi? Bu jamiyatda ko'rlar, ya'ni qalbi, ongi ojizlar istiqomat qiladimi? Agarda shunday bo'lsa, bu davlat tez orada qulaydi. Shunday ekan, biz yoshlar bunday jamiyat barpo etishni istamaymiz va bor kuchimiz bilan Prezidentimizga korrupsiyaga qarshi kurashda ko'makdosh bo'lamiz.

Korrupsiyasiz soha umidbaxsh yo'l. Bu nima degani? Biz yuqorida ta'lim sohasini korrupsiyasiz tasavvur qildik. Agarda korrupsiya barcha sohalarni tark etsa-chi? Ana sizga taraqqiyot. Bu millatga, bu davlatga hech bir illat yaqin yo'lay olmaydi. Sanoat rivojlanadi. Sifatli mahsulotlar ko'payadi. Sifatli mahsulot ko'paygandan so'ng davlat yuk-

saladi, boy bo'ladi. Davlat boy bo'ldi degani uning aholisining turmush tarzi yaxshilandi degani. Mamlakatda ziyolilar ko'paysa, barcha bir-birining fikrini eshitadi. Tinglaydi. Kelajak uchun yangi innovatsiyalar, g'oyalar ko'payadi va ular amalga oshadi. Ba'zi joylarda kuzatamiz kimdir nohaqlikka qarshi kurashaman desa, kimdir uni to'xtatishga urinadi. Demakki, bu yerda qandaydir bir nazorat – «ko'rinmas qo'llar» mavjud. Agar biz jamiyat vakillari korrupsiyani yengsak, qo'llarimizga kishan soluvchi ko'rinmas qo'llarni ham bartaraf qilgan bo'lamiz.

Aziz tengdoshim, o'z yorqin kelajagimiz uchun birlashaylik va korrupsiyaga qarshi tura bilaylik. Sababi, korrupsiya balosi nafaqat davlatni, jamiyatni, balki jamiyatda o'sib kelayotgan yosh nihollarni chilparchin qiladi. Qanchadan-qancha yorqin kelajak yulduzlari porlamasdan o'snadi. Bu esa yomon, juda ham yomon. Biz korrupsiyani bartaraf qilsak, yurtga minglab Amir Temurni, Alisher Navoiyni yetkazib beramiz.

Navro'za ABDUNABIYEVA,
Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi 31-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – KASALLIK

Inson dunyoga kelibdiki, hayotida nimalargadir ehtiyoj sezib yashaydi. Shu ehtiyojlardan to'ymaslik natijasida korrupsiya kelib chiqadi. Ba'zi insonlar o'z ishlarini osonlik bilan bitirish maqsadida ham korrupsiyaga qo'l urishadi. Osonlik bilan erishilgan yutuqning umri qisqa bo'ladi, albat-ta. Korrupsiya bilan yashayotgan inson oilasini, yaqinlarini, unga ishongan yurtining yuzini yerga qaratadi. Oilasini halol luqma bilan boqmaydi. Mutasavvuf shoir Ahmad Yassaviy ta'kidlaganlariday, nafsni yengib, unga bo'yin egmaslikkerak.

Korrupsiyani yo'q qilish uni ildizigacha quritish demak-dir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev korrupsiyani kasal-lik deb bejiz aytmaganlar. Bu kasallikni davolash yorug' ke-lajak sari bosilgan qadamdir.

Korrupsiya bor ekan, ilmsizlik bo'lishi muqarrar. Kor-rupsiya deganda insonlarning ko'z oldida pul gavdalanadi, shubhasiz, pora bilan hamma ish nihoyalanaversa, inson hayoti pul bilan o'lchanib qoladi. Yaratgan bergan ong, aql susayib boraveradi. Bora-bora butun jamiyat qulash da-rijasiga keladi. Ulg'ayib borayotgan yosh avlod halollik, to'g'rilik bilan tarbiya qilinsa, jamiyatimizda uchraydigan ba'zi illatlar barham topadi.

Bilamizki, ilmi insonlar hamma zamonlarda ham ulug'langan. O'sha korrupsiyaga qo'l urgan insonlar buyuk-buyuk allomalarning izdoshlari, avlodlari ekanini nahotki unutib qo'yishsa? Bilamizki, yurtimizda ham korrupsiyaga qarshi bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yil «Kor-

rupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun tasdiqlandi. Bu ham yurtimizning kelajagini tom ma'noda o'ylab qilingan harakatdir.

Birinci galda hamma ta'lim-tarbiya ishlarini maktabdan boshlash kerak. Chunki daraxt niholligidan to'g'ri parvarish qilinmasa, qiyshiq o'sadi.

Xalqimiz: «Yoshlikda olingan bilim – toshga o'yilgan naqshdir», deb bejiz aytmagan. Ilmli insongina oqni qoradan ajrata oladi. Ongli ravishda nima ish qilayotganini anglaydi, biladi.

Mustaqil vatanimiz kundan kunga chiroy ochib bormoqda. Tanganing ikkinchi tomoni deganlaridek, xavf soluvchi illatlar ham yo'q emas, albatta. Biz yoshlar korrupsiya balosini ildizigacha quritishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Faqat va faqat ilm bilan o'z kuchimizni ko'rsatishimiz kerak. Korrupsiya bilan bog'langan ishning oxiri yaxshilik bilan tugamasligi aniq. Jamiyatda poraxo'r bor ekan, korrupsiya bo'laveradi.

Korrupsiya jamiyatni qulatuvchi vositadir. Korrupsiyasiz jamiyat, shubhasiz, buyukdir. Jamiyatning hamma sohalarida korrupsiya uchrashi mumkin. Lekin shu korrupsiyani ko'rmaslik, uchratmaslik uchun to'g'ri tarbiya va ta'limni, avvalo, oila va maktabdan boshlash kerak. Shundagina yurt ravnaq topadi, yuksaladi. Biz O'zbekiston yoshlari, korrupsiyani ildizigacha quritamiz. Doimo korrupsiya balosiga qarshi turamiz.

Aziza VAISOVA,

Xorazm viloyati Urganch shahridagi 15-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 8-«G» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA BILIMSIZLIK, LOQAYDLIK, ISHONCHSIZLIK OQIBATI

Insoniyat tarixi yaralibdiki, ikki buyuk kuch: ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy musobaqada yo u tarafda, yo bu tarafda turib ishtirok etadi. Bu ikki azaliy raqib bashariyat hayoti va uning mazmuniga, hayot tarzi va taraqqiyot olamiga shu qadar katta ta'sir o'tkazadiki, bu jarayon bevosita odamzodning yana bir boyligi bo'lgan tilda o'z aksini topadi. Jamiyatning ma'nan sog'lomligi unda yashovchi insonlarning qo'llayotgan so'zlarida va qilayotgan amallarida zohir bo'ladi. Korrupsiya har qanday davlat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavfli omil. Zero, bu xavfli omil har qanday davlat rivojini sekinlashtiradi.

Bundan bir necha asr oldin: «Nafs hukmi bilan qilingan har bir ishda, maqsad komida shaytonning irjaygan tishlari ko'rinib turadi», degan ekan Alisher Navoiy bobomiz.

O'zbek xalqi juda dono va zakiy xalq. Uning har bir so'zi, atamasi o'zligidan so'zlaydi go'yo. Bugun fikr yuritayotganimiz «korrupsiya» so'zi ham bizga yot so'z emas, aslida. Xalqimiz orasida uning «poraxo'rlik», «tanish-bilishchilik», «oshna-og'aynigarchilik» kabi nomlarda yashab kelayotganiga guvohmiz.

Misol tariqasida, 2020-yilning to'qqiz oyi davomida korrupsion jinoyatlar oqibatida davlat byudjetiga 200 milliard so'mdan ortiq moddiy zarar yetkazilganini aytishimiz mumkin. Bunda Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi,

Ichki ishlar vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va tijorat banklarining xodimlari yuqori o'rinlarni egallagan. Shu sabab ko'p sohalarida bilimsizlik, loqaydlik va ishonchsizlik urchib bormoqda.

Korrupsiyaning eng xavfli tomoni shundaki, u jamiyat a'zolarining davlat boshqaruviga, olib borayotgan siyosatiga bo'lgan ishonchni so'ndiradi.

Shaxsan men oliy ta'limda bo'layotgan korrupsiyaga qarshiman. Chunki ota-onasini halol topgan pullariga yillab repetitorlarga qatnab, ko'z nuridan ayrilib, qo'lidan kitob tushmagan o'quvchilar o'rnini, oilasida erka-tantiq o'sgan, qo'lga kitob olmagan, ota-onasining qistovi bilangina hujjat topshirgan yoshlar egallamoqda. Bunday insonlar kelajakda yurtimiz rivojiga qanday hissa qo'sha oladi? Shunday ekan, o'zimizga xulosa qilishimiz, kelajakni korrupsiyasiz qurishimiz, buning uchun, avvalo, o'zimizni o'zimiz tarbiyalashimiz, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi birgalikda kurashishimiz kerak.

Boshqa yurtda o'qib, yashab kelayotgan, o'z bilimi bilan o'sha yurtning rivojiga hissa qo'shayotgan yoshlar ham korrupsiya qurbonlari emasmikan? Shu illat sabab bunday yoshlar boshqa davlatlarga ketishga majbur bo'lishgan, menimcha. Prezidentimiz shunday yoshlar uchun o'z Vatanga, ota-onasining bag'riga qaytishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. Bunday tanlovlarni o'tkazib, biz yoshlarning fikrlariga qiziqqanligi ham tahsinga loyiq.

Qarorlar chiqar, qonunlar qabul qilinar, jinoyatchilar jazolanar, to qalbmizda insof tuyg'usi, to Allohdan qo'rqish hissi uyg'onmas ekan, to iymonimiz mukammal bo'lmas ekan, Navoiy hazratlari aytganlaridek: «El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas».

Sabohat JUMANAZAROVA,
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 1-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA – VIJDONSIZLIKDIR!

Men korrupsiya deganda vijdonini sotib, shaxsiy manfaatini el manfaatidan yuqori qo'yish kabi illatlarni tushunaman. Men korrupsiyani Alisher Navoiy bobomiz ta'biri aytganda, elga zulm qilish deb tushundim. Beixtiyor o'ylanaman, bu umr yo'llarida qaysi yo'ldan boraman.

Korrupsiya inson va jamiyat hayotini buzib, jamiyat rivojiga raxna soluvchi illat ekanini barchamizga ma'lum. U jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy muammolar natijasida turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Davlat mansabidan foydalanib, amaldorlarga noqonuniy mukofot-u hadyalar, aniqrog'i, pora olishga ruju qo'yish ko'pincha islohotlar davrida ro'y bermoqda. XVIII asr oxiridan G'arbda jamiyatning korrupsiyaga munosabatida keskin burilish yuz berdi. Xususan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora berish eng og'ir jinoyat deb topilgan.

Korrupsiya balosi hozirgi kunda har bir jamiyat, davlat uchun eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. 1793-yilda qabul qilingan BMTning «Korrupsiyaga qarshi konvensiya»si fikrimning yana bir isbotidir. Hozirda korrupsiyaga qarshi juda ko'p ishlar olib borilmoqda, bir necha tashkilotlar tuzilmoqda. Biz bu korrupsiya balosidan qanday qilib himoyalaniib, unga qarshi qanday ishlar, chora-tadbirlar olib boramiz? Biz bu yo'lda ishonch bilan e'tiqodimizga tayangan holda, baxtimiz qomusi – Konstitutsiyamizda belgilab berilgan qonun-qoidalarga rioya etgandagina, to'g'ri yo'ldan borishimiz mumkin.

Men bu inshoda dunyoda ildiz otgan illatlardan biri korrupsiyaning ayrim jihatlari to'g'risida so'z yuritdim. Hozirgi kunda davlatimiz rahbari boshchiligida korrupsiyaga qarshi kurash olib borilmoqda. Bu sa'y-harakatlar o'z samarasini beradi, deb o'ylayman. Biz rivojlangan davlat – O'zbekistonda yashar ekanmiz, unga loyiq farzand bo'lish uchun harakat qilaylik. Yaxshi o'qib, yaxshi ishlarda ishlab, Vatanimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shaylik. Unga kerakli inson bo'lib yetishaylik. Shunday ekan, aziz o'quvchilar, bu korrupsiya balosidan nafaqat o'zimizni, yurtimizni, balki butun bir dunyoni qutqaraylik!

Shahrizoda YO'LDASHEVA,
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi
4-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

NAFS HALOKATGA YETAKLAYDI

Korrupsiya termini, odatda, mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlaridan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishni anglatadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olingan. Qadimgi davlatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum.

Qalb xotirjamligi, ko'ngil to'qligi, o'z-o'zidan rozi bo'lish bu – iymon butligi va sofligidan darak. Inson yashar ekan, o'zidan yaxshi nom va xotira qoldirishni istaydi. Qachon biz bunday sharafiga muyassar bo'lamiz? Qachonki, ezgu amallar sohibi bo'lsak, mehr ulashsak va iymonimizni butlay olsak. Bunday ezgu amallarga ega bo'lish uchun, avvalo, nafs atalmish dushmanimizni yengishimiz, ichimizdagi shaytonga aldanmasligimiz darkor. Nafsiga tobe bo'lgan inson ma'naviy va jismoniy tubanlikka, halokatga mahkum.

Navoiy bobomiz «Nafs itin qilsang zabun, olamda yo'q sendek shujo», deya yozadi. Shunday ekan, bizni korrupsiya sari olib borgan yo'l ham bu – nafs yo'li.

Bir inson o'z manfaati, o'z nafsini yo'lida boshqalarning hayoti, balki jamiyatning hayotini xavf ostiga qo'yishini anglab yetmog'i lozim. Buning uchun bizga ilm, oqillik, iroda va ma'naviy barkamollik lozim.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq korrupsiya illatini bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilgan. Korrupsiya hodisasi shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma'naviy buzilishdir. Ushbu hodisaga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar. Jamiyatimizdan korrupsiyani yo'q qilish uchun, avvalo, insonda bolalikdanoq huquqiy savodxonlikni oshirish va rivojlantirishimiz lozim. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning ko'pchiligi insonlarning o'z huquqlarini bilmasligidan kelib chiqadi, deb o'ylayman.

Korrupsiya davlatni tanazzulga olib keluvchi dahshatli illat ekanligini o'quvchi-yoshlarga bog'cha va maktab yoshlaridanoq singdirib borishimiz kerak. Korrupsiya makon topgan joyda rivojlanish va yuksalish bo'lmasligini ommaviy axborot vositalari orqali ham ko'p namoyish etish kerak. O'tgan yili «MTV» orqali namoyish etilgan korrupsiyani qoralovchi videorolik, ayniqsa, biz yoshlarda yaxshi taassurot qoldirgan edi. Ommaviy axborot vositalari orqali shu kabi mavzularda davra suhbatlari o'tkazilsa, biz o'sib kelayotgan yoshlar korrupsiya illatini ko'proq va kengroq bilib olgan bo'lar edik.

Mohira ABDRIKOVA,
Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi 1-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA - MAMLAKATLARNI ZAIFLASHTIRUVCHI ILLAT

Jamiyatda hayot kechirayotgan har bir insonni iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy ehtiyojlar o'rab turadi. Bu ehtiyojlarni qondirishda inson bolasining nafi emas, aql-zakovati, yuksak ma'naviyati yetakchilik qilmog'i darkor. Qachonki insonni nafi boshqarsa, jamiyatda turli illatlar, jamiyatni tag-tugi bilan qo'porib yuborgudek kuchga ega bo'lgan salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Bu kabi salbiy oqibatlarning biri korrupsiyadir.

Korrupsiya taraqqiyot kushandasi, jamiyat ildiziga urilgan boltadir. Korrupsiya jamiyatni oldinga emas, balki orqaga tortuvchi yo'ldir. Korrupsiyaning eng ko'p tarqalgan turlariga poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik kabilar misol bo'la oladi. Bunday illatlarning paydo bo'lishi iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi rivojlanishni zaiflashtiradi, jamiyatni aldab, o'z iskanjasiga oladi.

2003-yil Nyu-Yorkda Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Korrupsiyaga qarshi konvensiya»si qabul qilindi. Ushbu konvensiya muqaddimasida korrupsiyaga global muammo sifatida qaralgan. Korrupsiya jamiyat va davlatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat ekanligi, u demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga to'g'ri kelmaydigan, aholining huquq va manfaatlari poymol bo'lishiga olib keladigan, hayot sifatini yomonlashtiradigan omil sifatida ta'kidlanadi. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi

kurashning aniq tizimi va mustahkam huquqiy bazasi yaratilgan.

Korrupsiya hayotimizga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Boshqa sohalarga ta'sir qilgani kabi ta'lim sohasida ham uning asoratlarini ko'rishimiz mumkin. Korrupsiya ta'lim sifatini pasaytiradi, unga erishish imkoniyatini cheklaydi, adolatga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi. Korrupsiya aralashgan ta'lim sohasida quyidagi salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin:

- ta'lim berish sifati pasayadi;
- bilim olish ishtiyoqi so'nadi;
- unda bilim va ko'nikmalarning yo'qligi, hayotdan qoniqmaslik kabi muammolarni yuzaga keltiradi.

Demak, korrupsiya davlatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga, ta'lim sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan, davlatning konstitutsiyaviy huquqi va qonun ustuvorligi asoslarini zaiflashtiradigan xavfli jinoiy hodisa, xavfsizlikka tahdid hisoblanadi. Agar jamiyatdagi har bir fuqaro jinoiy ishlarga qo'l urmasdan, belgilangan qonun-qoidalarga rioya qilib yashasa, jamiyatda hech qanday korrupsiya bo'lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham bunga global muammo sifatida qaraydi. Shu bois har yili 9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan joylarda tadbirlar o'tkaziladi, bu kun nishonlanadi. O'zbekiston Respublikasi ham 2008-yil 7-iyulda Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi»ga a'zo bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Jumladan, kodeksning 210-moddasida pora olishning mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi ekanligi ta'kidlangan.

Shuningdek, kodeksning 211-moddasida pora berish va uning javobgarligi qayd etilgan. Ushbu kodeksning 212-moddasida esa pora olish-berishni tashkil etuvchi shaxs pora bergan yoki olganlikda vositachilik qilganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi muqarrarligi aks etgan.

2017-yil 4-yanvardan O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. Ushbu qonun 6 ta bob, 34 ta moddadan iborat bo'lib, unda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari belgilab qo'yilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olishga e'tibor berib kelmoqda. Jumladan, joriy yilda Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi har bir tashkilot, siyosiy partiya, umuman, har bir fuqaro kurashishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizdagi har bir qonunni chuqur o'rganish, hayotga tatbiq etishga intilish, qisqa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi tinimsiz kurashish har birimizning fuqarolik burchimizdir. Bugungi kunda bo'lib o'tayotgan ko'rik-tanlovlar, tadbirlar yosh avlod qalbida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Pul-u boylikning quli bo'lgan, jonini tikib, mol-dunyoga xaridor bo'lgan odam hech qachon aziz bo'lmaydi. Buni Navoiyning quyidagi misralaridan ham anglashimiz qiyin emas:

*Hargiz bo'lmas joh-u diram zori aziz,
Jon naqdi berib, siym xaridori aziz.*

Hamisha sergak va ogoh bo'laylik, zero, mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi biz – yosh avlod qo'lidadir.

Maftuna ERKINBOYEVA,
Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi Mahmud
az-Zamaxshariy nomidagi 11-umumiy o'rta ta'lim
maktabining 11-sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA ONG-U TAFAKKURNI YEMIRADI

Inson dunyoga kelar ekan, qalbida bir olam ezgu orzu-umidlar bilan yashaydi. Ko'z ochib ko'rgani ota-onasi va yaqinlari baxtini ko'rishga intiladi. Ota-onalar farzandlarining Vatan koriga yaraydigan, yurt uchun kerakli shaxs bo'lib yetishishi yo'lida ularni yer-u ko'kka ishonmay yashaydi. Zero, Vatan muhabbati, fidokorlik, jasorat, umuman, tarbiya oiladan boshlanadi.

Bu muqaddas zamin taqdirini hal etuvchi yoshlar esa butun xalqimizning ishonchi, g'ururi timsolidir. Ularning kelajagi bizning kelajagimiz, ertangi kun egalari bo'lmish bu yoshlar ong-u tafakkuri har narsadan ustundir. Afsuski, yoshlar ongini zaharlovchi oqim illatlar, xususan, korrupsiya bugungi kunda keng ildiz otib bormoqda. Qanchadan qancha insonlarga, butun bir jamiyatga qora nigohi bilan qaramoqda. Uning kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijtimoiy jamoa tuzumi davrida ham ushbu poraxo'rlik turi mavjud bo'lgan.

Mashhur alloma Abu Nasr Farobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida ham korrupsiya bor joyda hech qanday yuksalish bo'lmasligini alohida aytib o'tgan. Buyuk davlat Usmonli turklar hukmronligi davrida ham oddiy qishloq aholisi amaldorlarining poraxo'rliklaridan nihoyatda ko'p jabr-u sitamlar ko'rganligi hech kimga sir emas.

Bu kabi jamiyat, insonlar hayotini zaharlovchi omillar bor bo'lsa, yurt hech qachon yuqori cho'qqilar, zafarlar

egasi bo'lolmaydi. Korrupsiya davlatni yemirib, o'z domiga tortib boraveradi. U kattalashgan sayin yovuz ajdarhodek insonlar hayotiga dov solaveradi. Davlat egallagan o'rnidan pasaysa, pasayadiki, lekin hech qachon yuqori joyni egallay olmaydi.

Shunday ekan, jamiyat bu taraqqiyot kushandasiga qarshi sobit turib, bor kuchi bilan kurashishi darkor. Korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor qadimgi Shumer davlatlar birlashmasidan boshlangan. Ular poraxo'rlik, adolatsizlik kabi illatlarni kamaytirish yo'lida ko'plab chora-tadbirlar ko'rishgan. Bugun ham har bir davlat qo'lidan kelganicha korrupsiyaga qarshi kurashmoqda. Butun dunyo bo'yicha hisoblab ko'rilganda, Daniyada korrupsiya darajasi eng past ko'rsatkichni namoyon etadi. Bizning yurtimizda esa poraxo'rlik ko'rsatkichi o'rtacha miqdorni ko'rsatar ekan.

Bugun yoshlar ongida poraxo'rlik, korrupsiya ildizini quritib bo'lmaydigan illat sifatida muhrlanib qolgan. Lekin Xitoy va Yaponiya kabi davlatlar bundan mustasno. Bu kabi davlatlarda yoshlar ham, kattalar ham adolatli ta'lim-tarbiya har narsadan ustun va taraqqiyot uchun eng samarali yo'l ekanligini tushunib yetishgan. Lekin ming afsuslar bo'lsinki, bizning yurtimizda bu holatga yetish uchun ancha bor. Negaki, hali-hamon atrofimizda poraxo'rlik bilan shug'ullanayotgan shaxslar bor.

Korrupsiyasiz hayot uchun kurash bir insonning qarshiligi bilan hal bo'lib ketuvchi ish emas. Biz butun jamiyat, davlatni bu yo'lga qarshi kurashga undamog'imiz darkor. Zero, buyuklar aytganidek, xalq o'zining birdamligi va ahilligi bilan xalqdir. Biz, Vatanimiz yoshlari, qo'lni qo'lga berib, adolatli hayot uchun kurashaylik. Yurt ertasi yorug', kelajagi buyuk bo'lishiga o'z hissamizni qo'shaylik.

Nafosat DO'SIMMETOVA,
Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi
14-umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

NOHAQLIKLARGA KORRUPSIYA SABABCHI

Darhaqiqat, kelajak biz yoshlarniki. Uning chin ma'nodagi haqiqiy, bilimdon, zukko, baxtli va kuchli egalari biz yoshlar hisoblanamiz. Adolat yo'lidan hamisha olg'a qadam tashlasak, aminmanki, porloq kelajak bizni kutmoqda. Shubhasizki, ezgu ahdimiz esa yurtga sodiq bo'lishdir.

Albatta, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun har birimiz mas'uldirmiz. Uning o'sishi, rivojlanishi, taraqqiyoti har bir jamiyat a'zolarining qo'lida. Har kim Vatan oldidagi burchi va majburiyatlarini his qilgan holda yashasa, o'ziga adolatli kelajak qursa, demak, davlat rivojlanadi. Yurt tinch, xalq farovon, Vatan ozod va obod bo'ldimi, demak, jamiyat a'zolari ahil, birdam, yakdil va adolat yo'lidan boruvchi insonlardan iborat. Aynan jamiyat a'zolarining o'sishi va taraqqiyoti uchun asos bo'ladi. Axir, mustaqil O'zbekistonimizning o'sishi, rivojlanishi va taraqqiyot cho'qqisini zabt etishi uchun har birimiz mas'uldirmiz.

Hayotda har birimiz ertami-kechmi nohaqliklarga duch kelishimiz ehtimoldan xoli emas. Aytaylik, puxta bilimga ega o'quvchining oliy o'quv yurtiga kirolmasligi yoki sudyaning sud jarayonida aybdorni oqlab, begunohni qoralashi ozmi-ko'pmi uchrab turadi. Davlat xizmatidagi amaldor pora evaziga fuqaro ishini «to'g'irlab» hojatbarorlik qiladi. Aynan «korrupsiya» so'zi ham shu asosdan kelib chiqqan.

Korrupsiyaning xarakterli jihati shundaki, amaldor hamda uning manfaatlari zid bo'ladi. Korrupsiyada poraga sotilgan ham, amaldorni sotib olgan ham birdek aybdor hamda qonun va axloqqa zid keluvchi jinoyatning subyektlari hisoblanadilar. Hozirgi kunga kelib jahon bo'ylab korrupsiyaning miqyosi va darajasi oshib borayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Masalan, Yangi Zelandiya, Finlandiya kabi davlatlarning ko'lami pasaygan bo'lsa, Sudan, Somali, Rossiya va boshqa ko'plab rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning ko'lami oshib bormoqda. Korrupsiyaning ko'lami oshib borayotgani ayni vaqtda odamni chuqur o'yga toldiradi.

Qadimda insonlar boshqalardan ajralib turish uchun qabila boshliqlari yoki oqsoqolga sovg'a-salomlar, hadyalar berganlar. Tabiiyki, ular boshqalardan ajralib turgan va iltimoslari hamda talablari so'zsiz qondirilgan. Amaldor tomonidan fuqaroning ishini pora evaziga hal qilib berishi arizachining ishini osonlashtirgan, balki yuz foiz hal bo'lgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunga kelib poraxo'rlikning miqyosi va ko'lami keskin oshib bormoqda. Korrupsiya islohotlar davrida, ayniqsa, ko'payadi. Amaldor biror-bir mansabni egallashi yoki lavozimini oshirishi uchun saylov kampaniyasi xarajatlarini ko'taradi (keyin esa mansab vakolatlaridan foydalanib, yordam, xizmat ko'rsatadi). XVIII asrga kelib G'arb mamlakatlarida korrupsiyaga bo'lgan munosabatlarda keskin burilish yuz berdi. 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida korrupsiya og'ir jinoyat sifatida qoralandi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, korrupsiya yanada kuchaydi. O'ta darajada korrupsiyalashgan davlatlar uchinchil dunyo bilan cheklanmay qolishdi. Xalqaro darajadagi kompaniyalar oliy maqomga ega amaldorlarni sotib olishi avj oldi. Xalqaro miqyosdagi korrupsiya 1970-yilda «Lokxid ishi» nomi bilan Yaponiyadagi samolyotlarni sotishda eng

yirik amaldorni sotib olish bilan tarixda qoldi. 90-yillarga kelib Sobiq Sotsialistik Respublikalarda liberallashtirish natijasida amaldorlarning o'z mansabini suiiste'mol qilishi avj oldi. «Financial Times» gazetasining 1995-yil 31-dekabrda-gi sonida 1995-yil «Korrupsiya yili» deb nomlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan 2016-yil 24-noyabrda-gi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun, 2016-yil 13-dekabrda Oliy Majlis Senati tomonidan imzolandi. 2017-yil 4-yanvarda kuchga kirgan ushbu qonun korrupsiyaning oldini olishda dasturilamal bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-211-212-moddalarida poraxo'rlik, pora olish, pora berish belgilari uning subyektlari va ularga qo'llaniladigan jazo choralari belgilab o'tilgan. Ammo ko'pgina hollarda korrupsiyaning, ya'ni poraxo'rlikning oldi butunlay olinmaydi. Poraxo'r shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, korrupsiyaning 3-4 foizigina aniqlanadi, jinoyatchi esa ko'pgina hollarda jazodan ozod bo'ladi. Hozirgi kunga kelib davlatlarda yoshlarning o'rni oshib bormoqda. 1996-yil 29-avgustdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonun ham aynan yoshlarning huquqiy bilimini oshirishi, ular o'rtasida huquqiy savodxonlikni yanada rivojlantirish uchundir. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan «Harakatlar strategiyasi» ham o'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy va adolat bilan boshqariladigan davlatda yashashlari uchun zamin yaratadi, desak adashmagan bo'lamiz.

«Farzandlari bilimli yurt qudratli bo'lur» deganlaridek, yoshlarning bilimini oshirish uchun davlatimiz tomonidan qator imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularning bilim olishi, har sohada mukammal bo'lishlari, baxtli va adolatli kelajak yaratishi uchun imkoniyatlar yetarlicha.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, korrupsiyani jamiyatdan batamom sug'urib tashlash uchun, eng avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodga uning nima ekanligi, poraxo'rlik, firibgarlik, nepotizm kabi korrupsiyaning ko'rinishlari na-faqat inson, balki jamiyat uchun ham qay darajada xavfli ekanligini anglatish lozim. Ularning porloq kelajagi uchun faqat va faqat halollik, to'g'rilik, adolat va oddiylik kabi insoniy prinsiplarni qo'llagan holda, kelgusidagi ishlarida huquqiy bilim asosiy tamal toshi ekanligini anglashi lozim. Shundagina davlatimiz rahbarining qo'llayotgan islohotlari samarasiz ketmaydi. Yuksak darajadagi taraqqiyot va porloq kelajak sari adolatli ravishda qadam tashlaymiz. Zeroki, adolat yo'lida marra bizniki.



Diyora BOLTABOYEVA,
Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 267-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 10-«B» sinf o'quvchisi

XALQ RIZQINI YEGAN HALQUMIDAN ILINAR

Mastura menga rosa ham havasi kelishini ko'p bora takrorlaydi. Yolg'iz buvisining qaramog'ida yashayotgan bu dugonam doimo mahzun kayfiyatda yuradi. Onamning aytishicha, uning dadasi kimdandir pora olganligi bois qamoqxonada, onasi esa ukasi, buvisini va uni boqish uchun chet davlatga ishlashga ketgan ekan. Onajonim tansiq taom yoki shirinliklar tayyorlasalar, albatta, dugonamga ham berib yuboradilar. U esa har doim onam pishirgan narsalarni ko'zida yosh bilan qo'liga oladi.

Buvim «Xalq rizqini yegan halqumidan ilinar», «Tekin-xo'r boyimaydi, boyisa ham, yuqmaydi» degan maqollarni ko'p takrorlaydi va kelajakda qaysi kasbni tanlashimizdan qat'i nazar, boshqa insonlarning haqqidan qo'rqishimiz kerakligi, aks holda, Masturaning dadasi singari yaqinlarimizni qiynab qo'yishimiz mumkinligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ularning aytganini qilish, kelajakda halol mehnat qilib, o'zim va oilamga nafim tegishini orzu qilaman.

Bir kuni Maktabimizga «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi vakillari kelib, korrupsiya illati haqida insholar tanlovi o'tkazilayotganini bildirishdi. Mavzu e'lon qilinishi bilan dugonamga ko'z tashlasam, uning yuzi lolaqizg'aldoqdek qizarib ketgandi. Unga juda ham achindim. Aslida otasining noto'g'ri harakati tufayli u doimo o'zini aybdor his qilishi kerak emas-ku. Eng yomoni, yaqin dugonam sifati-

da u bilan oilamizdagi voqea-hodisalar, suhbatlar, tadbirlar haqida ham yozilib, ochilib suhbatlasha olmayman. Sababi, sog'inch azobi tufayli qalbida paydo bo'lgan yarani yangilab qo'yishdan qo'rqaman.

Qani endi shunday imkoniyat berilganida, dunyodagi barcha katta yoshli insonlarga aytgan bo'lardim: «Hurmatli kattalar! Iltimos, o'z ishingizni vijdonan bajaring. O'zgalar uchun atalgan pullarga qiziqib, nasibangizni qiyib qo'ymang. Yaqinlaringiz, atrofdagilarga ziyon yetmasligi uchun halol ishlang! Axir, Mastura singari dugonalarim, opa-singlim, aka-ukalarim sizlarning qing'ir ishlaringiz tufayli aziyat chekishi kerak emas-ku!»

Katta bo'lsam, odamlarning duoyi fotahasiga ega bo'lish uchun shifokor bo'lmoqchiman. Oq xalat kiyib, pandemiya davrida jasorat ko'rsatgan hamyurtlarimiz singari odamlarga yaxshilik ulashmoqchiman. Buning uchun esa hozir ko'p kitob o'qishim, bilimimni oshirishim kerak. Chunki o'z sohasining ustasi bo'lmasdan turib, odam anatomiyasidan tortib, insonlar ruhiyatini yaxshilab o'rganmasdan ishlatsam, Masturaning dadasi qilgan jinoyatdan ham og'irroq jazoga mahkum bo'lishdan qo'rqaman.

Xulosa qilib aytganda, ota-onam, ustozlarim o'rgatganlaridan tushunganim shuki, korrupsiya, avvalo, bu bilimsizlik, uzoqni ko'ra bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan illat. Chunki bilimli, oqil insonning maqsadi aniq bo'ladi va bunday insonlarni nafs ham, yot g'oyalar ham sindirmaydi.

O'g'iloy ORIPOVA,
Toshkent shahri Bektemir tumanidagi 289-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 11-«G» sinf o'quvchisi

HALOL MEHNAT BILAN O'RNAK BO'LAYLIK

Oliy o'quv yurtlarida korrupsiyaga qarshi kurash borasi-
dagi huquqiy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish masalasi dol-
zarb ahamiyat kasb etmoqda. Halol yashash saodatini yosh-
likdan o'rgangan odamning umri halovatda bo'ladi.

Adolatsizlik, kasb-u amalga, ishonchga xiyonat qilib
bo'lmasligini o'qib-uqqan, poraxo'rlik va korrupsiyaga,
suiiste'mol qilishga qarshi o'zida immunitet hosil qilgan
yoshlar kelajakda jur'atli, vijdonli inson bo'lib yetishadi.

Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo'lmasligini,
hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kul-
fat keltirishini tushunadi. Tanish-bilishchilikdan davlat va
jamiyat manfaatlariga ziyon yetmasligi, qonunlarga, inson
qadr-qimmatiga raxna solinmasligi kerak. O'zining g'arazli
maqsadi uchun har qanday tubanlikdan tap tortmaydigan
mas'ul shaxs nafaqat oliy o'quv dargohiga, shu bilan bir qa-
torda, butun jamiyatga ziyon yetkazadi. Rahbar hammaga
o'rnak bo'lib, halol ishlab, fidoyilik ko'rsatish o'rniga kishi
bilmas poraxo'rlik qilsa, yosh kadrlar undan nimani o'rgana-
di? Qanaqa o'rnak oladi? Shu savollarga hamon javob yo'q!

Biz yosh avlod korrupsiyaga qarshimiz, lekin katta-yu
kichik bu ishda davom etishmoqda. Biz o'z kuchimiz bilan
ishlashimiz kerak. Ba'zi insonlarga o'xshab korrupsiyadan
foydalanishimiz kerak emas. Biz hozirdan yaxshi o'qib,
ilm olsak, kelajakda korrupsiyani yengamiz. Faqat buning
uchun harakat qilishimiz kerak.

Xosiyat SOLIYEVA,
Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 215-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

TO'G'RI YO'LDAN YURAYLIK

Ertalab ostona hatlab o'qishga, ishga otlanganimizda ona-
larimiz-u momolarimiz qo'llarini duoga ochib, «Iloyo, o'q-
ishlaring, ishlaring o'ngidan kelsin, doimo xonadonimizga,
mahalla-ko'yimizga va yurtimizga tinchlik-omonlik bersin»,
deya yaxshi tilaklar tilaydilar. Bunda nihoyatda hikmat ko'p.
Inson hayotda yashar ekan, yaxshi yashash uchun harakat
qiladi. Kimdir bu yo'lda ezgu amallarni tanlasa, kimdir qin-
g'ir yo'llarga kirib, manzilga osonlik bilan borishni istaydi.

Taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi»
asari ham mazmun-mohiyati bilan shu asosga qurilganligini
har bir o'quvchi ich-ichidan sezadi. Beixtiyor o'ylanaman.
Men bu umr yo'llarida qaysi yo'ldan boraman?

Men hozirgi davrda XXI asrni tahlikaga solgan korrup-
siyani vijdoniga qarshi borib, shaxsiy manfaatlarini el man-
faatlaridan yuqori qo'yib, ishni yengillik bilan bitirib, pora
olib, pora berish kabi salbiy holatlarni tushunaman.

Inson va jamiyat hayotini izdan chiqarib, jamiyatning
rivojiga raxna soluvchi illat korrupsiya ekanligini har bir
vijdonli odam sezadi. Negaki, pul berish orqali bilimi yo'q
talaba oliy o'quv yurtida mutaxassislik diplomini oladi, in-
son tanish-bilish orqali ishga kiradi. Bularni sanayversak,
sanog'iga yetolmaymiz.

Tasavvur qiling, pul bilan o'qigan talaba o'qituvchi bo'l-
di. U bir emas, minglab, millionlab o'quvchilarning qalbiga
bilim urug'ini emas, savodsizlik urug'ini sepadi. U yillar o'tib

hosilini beradi. Jamiyatda bir emas, minglab, millionlab hech narsani his qilmaydigan hamda oila va jamiyat hayotini yaxshilash uchun harakat qilmaydigan insonlar ko'payadi. Buni ongli odam ich-ichiga sig'dira olmaydi. Ya'niki, haydovchini olaylik. U o'qimasa, yo'l harakati qoidalarini bilmasa, avtohalokatlar ko'payib, insonlar hayoti xavf ostida qoladi. Bu haqiqatan hazrati Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, elga jabr va zulm.

Biz bu umr yo'llaridan boramiz! Hozirgi davrda korupsiya deb atalmish balo-ofatlardan qanday himoyalani, unga qarshi qanday kurash olib boramiz? Inson bu yo'lda o'z e'tiqodi asosida baxtimiz qomusi Konstitutsiyamiz belgilab bergan qonun-qoidalarga rioya etsagina, albatta, to'g'ri yo'lda borishi shubhasiz. Biz baxtiyor ona yurt – O'zbekiston tuprog'ida yashayotganimizdan faxrlanamiz!

Yoqutxon QODIROVA,
Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 274-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

KORRUPSIYA MA'NAVIYATGA ZID

Hayot biz uchun berilgan eng buyuk ne'matdir. Uning qadriga yetish, har bir daqiqasini mazmunli o'tkazish, odamlarga mehr-muruvvat ko'rsatish esa barcha insonlarning vazifasidir. Biz tuproqlari oltin O'zbekistonda yashaymiz. Uning toza havosidan nafas olib, ne'matlaridan bahramand bo'lamiz. Uning go'zalligini ta'riflashga til ojiz. Shoirlarimizning go'zal she'rilarida, bastakorlarimizning yoqimli kuy-larida Vatan madhi yangraydi. Ammo shunday go'zallikni ko'rolmaydigan nopok, manqurt kimsalar mavjud. Bunday insonlarning ongi zararli, ma'naviyatga zid g'oyalar bilan to'la bo'ladi hamda ularda Vatanga muhabbatdan ko'ra, o'z foydasini ko'zlab ish yuritish fikri ustunlik qiladi. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlab o'tilganidek, ma'naviy tahdid insonlarning erkin bo'lib yashashiga qaratilgan, ularning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy g'oyalar va informatsion xurujlardan iborat. Darhaqiqat, bugun biz tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiluvchi o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayapmiz. Hozirgi paytda yer yuzida qanday voqea sodir bo'lmasin, insonlar bu haqida zudlik bilan xabar topishlari hech kimga sir emas, albatta.

Yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom inson qilib voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qadriyatlarimizga yot g'oyalar, yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli xurujlarning tobora kuchayib

borishi bunga sabab bo'lmoqda. Bunday illatlar insonlarni ozod va hur bo'lib yashash baxtidan judo qiladi.

Ma'naviyatimizning shakllanishida, hayotimiz yanada gullab-yashnashi yo'lida to'sqinlik ko'rsatayotgan illatlardan yana biri korrupsiyadir. Bugungi kunda butun davlat hamjamiyatini tashvishga solib kelayotgan bu illat azaldan davlat va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilgan eng jirkanch omillardan biridir.

Turkyozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning «Choliqushi» asarida 1-jahon urushi davrlari aks ettirilgan. Aynan o'sha davrda ham insoniyat orasida korrupsiyaning mavjud bo'lganligini asar bosh qahramoni bo'lmish Feridening muallimlik kasbini egallashda chekkan mashaqqatlaridan anglab olish mumkin. Inson biror-bir kasbni egallashida ham poraxo'rlikning ustun bo'lishi korrupsiyaning asosiy qismidir.

Davlat boshqaruvining takomillashuvi va murakkablashuviga ko'ra, korrupsiyaning turli ko'rinishlari yuzaga kelib, oxir-oqibatda u global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Bilamizki, jamiyat, davlat va shaxs tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, jamiyatning biror a'zosiga ta'sir ko'rsatgan ba'zi illatlar, albatta, davlat taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Xalqaro miqyosda 1940-yillarda Yaponiyaga samolyotlar savdosida kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha «Lokxid ishi» eng yirik korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi.

Korrupsiya illatiga qul bo'lgan amaldorlar davlatning, xalqning, ishonchini suiiste'mol qilib, o'z manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadilar. Bu esa davlat siyosatining o'sha amaldor boshqarayotgan bo'g'inida ish faoliyatining birdan buzilishiga olib keladi hamda Vatanga daxldorlik, kelajakka ishonch tobora so'nadi. Oliy o'quv yurtlarida talabalardan pora olgan boshqaruvchilar harom yo'l bilan topganlarini oilasida farzandlariga yedirayotga-

nini tushunmaydi. Bunday oilada tarbiyalanayotgan bolalar kelajakda bundan-da poraxo'r bo'lib ulg'ayishadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy «Padarkush» asarida «Bizlarni xonavayron, bewatan, bandi qilayotgan tarbiyasizlik va jaholatdur», deya ta'kidlab o'tganlar. Yosh avlodlarning ham ongini mana shunday jaholatga boshlovchi g'oyalar bilan zaharlash ularning kelajagi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tamagirlik kabi huquqbuzarliklarning oldini olishni, ularga qarshi jazo muqarrar ekanligini har bir inson bilmog'i lozim. Bunday illatlarning shunchalar mudhish holat ekanligini bilgan inson bu ishga aslo qo'l urmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2017-yil 3-yanvar kuni «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning 1-moddasida mazkur qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Biz esa mana shu qonunlarga amal qilib, Vatanimiz taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shmog'imiz lozim. Zero, bizdan buyuk davlat qolishi shart.

Shahrizoda BOLTAYEVA,
Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 213-umumiy
o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

HALOL MEHNAT – KELITIRAR DAROMAD

Korrupsiya ko'p hollarda siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchilik hamda axloq qoidalariga zid ravishdagi faoliyatni anglatadi.

Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gongkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

Bunda huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya'ni korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni Konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan Konstitutsiyaga


zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Bu chora-tadbirlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, ishiga befarq, nopok xodimlardan tozalashdir. Yoshlar orasida halol mehnat qilib, halol ishlash tizimini targ'ib etishni rivojlantirish, yoshlar ongiga faqat va faqat halol o'qib, o'z peshona terlari bilan oliy o'quv yurtlarini tugatishni singdirishdir. Maktabimizda ham korrupsiyaga qarshi ko'plab chora-tadbirlar o'tkaziladi. Men keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyasiz hayotni tasavvur qilish ilinjidaman. Chunki korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi. Men o'zimning, balki butun O'zbekiston yoshlarining kelajagiga qayg'urgan holda, o'z ishimga, o'qishimga halollik tamoyillari bilan yondashaman.

Men xohlaymanki, barcha yoshlarda «Mening pulim ko'p, o'qishim shart emas», degan fikrlar emas, balki «Men o'zimga ishonaman, o'qiyman, aqlliman, bilimdonman», degan fikrlar bo'lsin. O'zbekistonning kelajagi yo'lida men ham o'qib, bilim olib, Vatanim kelajagiga o'z hissamni qo'shaman. Mening shunday Vatanim borligidan faxrlanaman. O'zbekiston ham mendan faxrlanishini xohlayman va

shunga harakat qilaman. Zero, men saxovatli o'zbek xalqi farzandiman! Halollikda gap ko'p. Bizning o'zbek xalqimiz o'zganing haqqiga xiyonat qilmaydigan xalqdir.



Ученица 10 «г» класса школы № 42
Шахризоды МИРАХМАДОВОЙ

СОЧИНЕНИЕ

Коррупция относится к форме преступной деятельности или нечестности. Это относится к злонамеренному действию человека или группы. Премечательно, что этот ставит под угрозу и привилегии других. Кроме того, коррупция в первую очередь включает такие действия, как взяточничество или хищение. Однако коррупции может происходить по-разному. Скорее всего, коррупция подвержены люди, наделённые властью. Коррупция, безусловно, отражает жадное и эгоистичное поведение. Прежде всего, взяточничество – это самый распространённый метод коррупции. Взяточничество подразумевает ненадлежащее использование услуг и подарков в обмен на получение личной выгоды. Кроме того, виды услуг разнообразны. Прежде всего, одолжения включают деньги, поподарки, акции компании, развлечения и политические выгоды. Кроме того, личная выгода может заключаться в перференциальном обращении и игнорировании преступности.

Хищение относится к удержанию активов с целью кражи. Кроме того, это происходит одним или несколькими лицами, которым были доверены эти активы. Прежде всего, хищение – это разновидность финансового мошенничества.

Взятка – это глобальная форма коррупции. Примечательно, что речь идёт о незаконном использовании авторитета политика в личных целях. Более того, попу-

лярным способом взяточничества является неправильное направление государственных средств в пользу политиков.

Вымогательство – ещё один важный метод коррупции. Это означает получение имущества, денег или услуг незаконным путём. Прежде всего, это достижение происходит путём принуждения отдельных лиц или организаций. Следовательно, вымогательство очень похоже на шантаж.

Фаворитизм и кумовство – довольно старая форма коррупции, которая всё ещё используется. Это относится к человеку, который предпочитает дать работу своим родственникам и друзьям. Это, безусловно, очень несправедливая практика. Это потому, что многие достойные кандидаты не получают работу.

Злоупотребление служебным положением – ещё один метод коррупции. Здесь человек злоупотребляет своей властью и авторитетом. Премьером может быть несправедливое прекращение уголовного дела судьи.

Наконец, последний метод – торговля влиянием. Это относится к незаконному использованию своего влияния на правительство или других уполномоченных лиц. Кроме того, это делается для того, чтобы получить преференциальный режим или услугу.

Одним из важных способов предотвращения коррупции является повышение зарплаты на государственной должности. Многие государственные служащие получают довольно низкие зарплаты. Поэтому они прибегают к взяткам для покрытия своих расходов. Значит, госслужащие должны получать более высокую зарплату. Следовательно, высокие зарплаты снизят их мотивацию и решимость заниматься взяточничеством.

Ещё одним подходящим способом обуздания коррупции может быть увеличение числа рабочих. Во

многих государственных учреждениях нагрузка очень высока. Это даёт возможность замедлить работу госслужащих. Следовательно, эти сотрудники затем дают взятку в обмен на более быстрое выполнение работы. Итак, возможность получения взятки может быть устранена путём привлечения большего числа сотрудников в государственные учреждения.

Жесткие законы очень важны для прерывания коррупции. Прежде всего, необходимо строго наказывать виновных. Кроме того, строгие законы должны выполняться эффективно и быстро.

Установка камер на рабочих местах – отличный способ предотвратить коррупцию. Прежде всего, многие люди воздерживаются от коррупции из-за страха быть пойманным. Более того, в противном случае эти люди были бы вовлечены в коррупцию.

Правительство должно следить за тем, чтобы инфляция оставалась на низком уровне. Из-за роста цен многие люди считают свои доходы слишком низкими. Следовательно, это увеличивает коррупцию в массах. Бизнесмены поднимают цены, чтобы продать товар по более высокой цене. Более того, политик поддерживает их за счёт получаемых ими льгот.

Подводя итог, можно сказать, что коррупция – великое зло общества. Это зло должно быть быстро устранено из общества. Коррупция – это яд, который в наши дни проник в умы многих людей. Надеюсь, что последовательными политическими и социальными усилиями мы сможем избавиться от коррупции.

MUNDARIJA

O'ZBEKISTON YOSHLARI KORRUPSIYAGA QARSHI.....	3
Hamida Qurbonboyeva KORRUPSIYANI ILDIZIGACHA QURITAMIZ.....	7
Гулбануд Полатбаева КОРРУПЦИЯ – РАЎАЖЛАНЫЎ ЗЫЯНКЕСИ.....	9
Феруза Хожамуратова БИЗ –КОРРУПЦИЯГА ҚАРСЫМЫЗ.....	13
Komila Baxtiyorova ТО'ХТА, KORRUPSIYA!.....	16
Муслима Базарбаева БИЗ ЖАСЛАР КОРРУПЦИЯГА ҚАРСЫМЫЗ.....	22
Omina Nabijonova YO'QOLSIN KORRUPSIYA.....	25
Ozoda Akmalova KORRUPSIYA – ADOLATSIZLIKDIR!.....	28
Sug'diyona Mamasodiqova KORRUPSIYA YOSHLAR NIGOHIDA.....	30
Barnoxon Odilova KORRUPSIYASIZ HAYOT QURAMIZ.....	32
Oydinoy Jo'rayeva KORRUPSIYAGA QARSHI QONUN BOR.....	38

Bibisora A'zamova KORRUPSIYA VA KELAJAK.....	40
Asila Turobova KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI.....	43
Dilnora Qahhorova KORRUPSIYANI YENGAMIZ.....	46
Dilnura Sa'dullayeva KORRUPSIYA – ADOLAT KUSHANDASI.....	49
Iroda Mahmudova KORRUPSIYA – QING'IRLIKDIR!.....	51
Sug'diyona Farmonova KORRUPSIYA – BU ZULMDIR.....	53
Xushro'bi Avazova ADOLAT KUSHANDASI.....	56
Zulayho Sa'dullayeva YOSHLAR KORRUPSIYASIZ KELAJAK TARAFDORI.....	58
Maftuna Umarova KORRUPSIYA JAMIYATNI YEMIRADI.....	61
Mashhura Samiyeva KORRUPSIYA – SOTQINLIKDIR!.....	63
Zarifaxon Abduqayumova KORRUPSIYA YOSHLAR NIGOHIDA.....	65
Mohitobon Salohiddinova KORRUPSIYASIZ KELAJAK SARI.....	67

Saida Abdurahmonova KORRUPSIYA – XATAR!	72
Dilshoda Hamidjonova KORRUPSIYA MAMLAKATNING RIVOJIGA QO'YILGAN TO'G'ONDIR	76
Mumtozbegin Obidova KORRUPSIYA – XAVF MANBAYI!	79
Shahzoda Mahammadmaminova QORA DARAXT (<i>yoxud korrupsion illatning ildizi</i>)	84
Marjona Qandiyorova KORRUPSIYA – NAFS BALOSI	87
Lobar Davronova KORRUPSIYA BOTQOG'IGA BOTMAYLIK	90
Nigina Sanaqulova KORRUPSIYAGA ISKANJASIDAN QUTULMOQ KERAK	96
Sevinch Ahmatillayeva KORRUPSIYANING ILDIZIGA BOLTA URAMIZ	98
Gavhar Odilova YOSHLAR KORRUPSIYAGA QARSHI	101
Bahora Avazberdiyeva BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ	104
Nozima Abdullayeva YOSHLAR KORRUPSIYASIZ KELAJAK TARAFDORI	106

Anora G'ulomova, KORRUPSIYA – ADOLATSIZLIKKA YO'L	108
Mohinabonu Zayniyeva KORRUPSIYA NURLI KELAJAKKA TO'G'ONOQ	110
Kumush Xayitkuliyeva YOSHLAR KORRUPSIYASIZ KELAJAK TARAFDORI	112
Pokiza Murodova KORRUPSIYA JAMIYAT RIVOJIGA RAXNA SOLADI	115
O'g'iloy Norbekova TARAQQIYOT KUSHANDASI	117
Gavhar Bo'riqulova KORRUPSIYA – JIRKANCH ILLAT	119
Go'zal Ro'zimuratova KORRUPSIYA – HAROMDIR!	121
Nafosat Muhammadiyeva VIJDONIMIZNI SOTMAYLIK	123
Shahzoda Ergasheva HALOKATGA ELTUVCHI YO'L	125
Sabina Sanjarova KORRUPSIYASIZ ILM, TARBIYA ILA DAROMAD KERAK	128
Mohigul Mamatqulova TANAZZULNING ESHIGI	130
Dilnoza Nizomiddinova KORRUPSIYA – TUBANLIK	132

Sabohat Jumanazarova KORRUPSIYA – VIJDONSIZLIKDIR!	197
Shahrizoda Yo'ldasheva NAFS HALOKATGA YETAKLAYDI	199
Mohira Abdrimova KORRUPSIYA MAMLAKATLARNI ZAIFLASHTIRUVCHI ILLAT	201
Maftuna Erkinboyeva KORRUPSIYA – ONG-U TAFAKKURNI YEMIRADI.....	204
Nafosat Do'simmetova NOHAQLIKLARGA KORRUPSIYA SABABCHI	206
Diyora Boltaboyeva XALQ RIZQINI YEGAN HALQUMIDAN ILINAR	210
O'g'iloy Oripova HALOL MEHNAT BILAN O'RNAK BO'LAYLIK.....	212
Xosiyat Soliyeva TO'G'RI YO'LDAN YURAYLIK	213
Yoqutxon Qodirova KORRUPSIYA MA'NAVIYATGA ZID	215
Shahrizoda Boltayeva HALOL MEHNAT – KELTIRAR DAROMAD	218
Шахризоды Мирахмадовой СОЧИНЕНИЕ.....	221

KORRUPSIYA YOSHLAR NIGOHIDA

«Adolat» nashriyoti
Toshkent – 2021

Muharrir	Muhammadsiddiq Alijonov
Badiiy muharrir	Doniyor Murodov
Sahifalovchi	Murodillo Rahmonov
Musahhih	Dilshodaxon Olimova

Sabc
KOR

Shaf
NAF

Moh
KOR
ZAH

Maf
KOF

Naf
NOI

Diy
XAL

O'g'
HAL

Xos
TO'

Yoc
KO

Sha
HA

IIIa
CO

Nashriyot litsenziyasi AI № 8225, 06.03.2021-y.

22.10.2021-yilda bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 84×108 ¹/₃₂. «Cambria» garnituras.

Shartli bosma tabog'i 14,75. Adadi 2000 nusxa.

Buyurtma raqami № 103. Kitob bepul tarqatiladi.

«ADOLAT» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

100047, Toshkent sh., Chilonzor tumani,

Sharq tongi ko'chasi, 23-uy.

«Dizayn-Print» MCHJ O'IC HK bosmaxonasida chop etildi.
100054. Toshkent shahri, Cho'pon ota ko'chasi, 28-a uy.

"ADOLAT"
nashriyoti

